M.S.VOXOBOVA

# LOGOPEDIK TEXNOLOGIYA







O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

M.S.VOXOBOVA

# LOGOPEDIK TEXNOLOGIYA

DARSLIK

NAMANGAN – 2024

**M.S.Voxobova**

Logopedik texnologiya: *darslik* / M.S.Voxobova – Namangan, 2024, 216 bet.

**Darslik. Pedagogika institutining 60112700 – Maxsus pedagogika logopediya yo‘nalishining ikkinchi bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv dasturi asosida tayyorlangan.**

Darslik pedagogika institutining “Maxsus pedagogika logopediya” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining ikkinchi bosqich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarga korreksion yordamni tashkil etishdagi logopedik texnologiya metodlari va yo‘llarini tahlil qilish; nuqsonlarni tashxislash va korreksiyalashda samarali logopedik texnologiyalarni tanlash; maxsus muassasalarda logopedik texnologiyalarni logopedik mashg‘ulotlar davomida qo‘llashni va logopedik texnologiya fani bo‘yicha olgan bilimlarini o‘z ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlarida qo‘llay olish; logopedik mashg‘ulotlar va bolalarni tashxislash uchun logopedik texnologiyalarni tanlash va ulardan samarali foydalanish, logopedik texnologiyalarni qo‘llash jarayonida nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarga individual va differensial yondashish, logopedik texnologiyalar qo‘llashda didaktik materiallar tayyorlashni o‘z ichiga oladi.

Darslik malaka talablari va maktabgacha va maktab ta’lim tashkilotlari uchun pedagoglarni tayyorlashga bo‘lgan barcha talablarga to‘liq muvofiq keladi va ta’lim tizimida talabalarni o‘qitishda qo‘llash o‘z samaradorligini beradi.

**Taqrizchilar:**

S.U.Sulaymonova – Namangan davlat pedagogika instituti falsafa fanlari nomzodi (PhD)

F.U.Qodirova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.d., professor

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 7.05.2024 yildagi, 149-sonli buyrug‘iga asosan № 149125-sonli nashr ruxsatnomasiga ega.

© M.S.Voxobova, 2024

# KIRISH

O‘sib kelayotgan yoshlar orasida nutqida kamchiliklari bo‘lgan bolalar mavjud bo‘lib, ularning sifatli ta‘limga jalb etilishi borasida ham qator ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi kunda turli nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning jamiyatning turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarida faol ishtirok etishlari, farovon turmush kechirishlari hamda turli hayotiy vaziyatlarga samarali ijtimoiy moslashuvini ta‘minlashda, ularning maktabgacha bo‘lgan davrning ahamiyati kattaligi bois, aynan maktabgacha maxsus ta‘limni isloh qilish masalasi ham maxsus pedagogika va xalq ta‘limi tizimi olidida turgan dolzarb vazifalardan sanalmoqda. Nogironligi bo‘lgan bolalarning jamiyatning kundalik hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta‘minlovchi maxsus va inklyuziv ta‘lim tizimi mazmuni va shakllari takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli, 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi halq ta‘limi tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyaning tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712 sonli farmonlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta‘lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo‘yilgan. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga alohida e‘tibor berilgan. Natijada imkoniyati cheklangan bolalarni ilk davrdan tashxis qilish, tashxis natijalari asosida mos ta‘limga jalb etish, sifatli ta‘lim olishini ta‘minlash, ijtimoiy hayotga moslashuvini ta‘minlashga yo‘naltirilgan kompleks ta‘sirni o‘z vaqtida maqsadli amalga oshirish uchun zaruriy infratuzilma hamda kadrlar masalasini hal etish imkoniyati kengaydi. Sog‘lom bolalar kabi imkoniyati cheklangan bolalarning ta‘limga jalb etilgan ilk davrdan,

ya‘ni maktabgacha ta‘lim tashkilotida tashkil etilgan pedagogik jarayon davomida ijtimoiylashish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalar hamda elementar kompetensiyalar bilan qurollantirishning imkoniyatlarini asoslab berish hamda ularni tibbiy-pedagogik jihatdan o‘rganish usullarini takomillashtirish maqsadida ushbu o‘quv qo‘llanmani hozirgi kunning muhim adabiyotlaridan biridir.

Barcha sohalar asosida yotuvchi bosh g‘oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabr-bardoshli, qanoatli, o‘zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko‘zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Ishonch bilan shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya ta‘lim jarayoniga yangiliklarni olib kiruvchi asosiy manbadir.

Talaffuz buzilishlarni bartaraf etish uchun logopedik ta‘sir lozim. Logopedik ta‘sirning asosiy maqsadi, nutq tovushlarini to‘g‘ri shakllantirishdir. Nutq tovushlarini to‘g‘ri tiklash uchun bola quyidagilarni bilishi lozim: nutq tovushlarini bilishi va ularni idrokida aralashtirib yuborishi kerak emas. Bir tovushni ikkinchisidan akustik belgisi bo‘yicha ajrata bilishi; normal talaffuz qilingan tovushdan noto‘g‘ri talaffuz qilingan tovushni ajrata bilishi; o‘zi talaffuz qilgan tovushni eshitib nazorat qila bilishi va sifatini baholashi; tovushni normal effektini,akustik effektini hosil qiluvchi artikulyatsion holatni bajara olishi; nutqning hamma turlarida tovushlardan o‘rinli foydalanishi lozim.

Logopedik ta‘sirning muvaffaqiyatli shart sharoitlari talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaxshi sharoitlar yaratib beradi: logopedning bola bilan emotsional kontakti; mashg‘ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil qilish va charchashga yo‘l qo‘ymaydigan ish tizimida olib borish asosiy ro‘l o‘ynaydi. O‘sib kelayotgan yoshlar orasida nutqida kamchiliklari bo‘lgan bolalar mavjud bo‘lib, ularning sifatli ta‘limga jalb etilishi borasida ham qator ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda.

Bugunni kunda turli nutq kamchiligiga bo‘lgan bolalarning jamiyatning turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarida faol ishtirok etishlari, farovon turmush kechirishlari hamda turli hayotiy vaziyatlarga samarali ijtimoiy moslashuvini ta‘minlashda, ularning maktabgacha bo‘lgan davrning ahamiyati kattaligi bois, aynan maktabgacha maxsus ta‘limni isloh qilish masalasi ham maxsus pedagogika va xalq ta‘limi tizimi olidida turgan dolzarb vazifalardan sanalmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqishni hamda maktabgacha ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, 2030 yilgacha maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga samarali ta‘lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta‘limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta‘lim

muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrovini ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

# I-Modul. Logopedik tekshiruv texnologiyalari



## Logopedik tekshiruvda an'anaviy yondoshuv. Logopedik tekshiruvning mazmuni va mohiyati

**Reja:**

1. Turli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni saralash.
2. Logopedik tekshiruvning predmeti, obyekti, subyekti.
3. Logopedik tekshiruvning maqsadi va vazifalari.
4. Logopedik tekshiruv bosqichlari. Mo'ljal olish bosqichi. Farqlash bosqichi.
5. Bir yoshgacha bolalarni logopedik tekshirish ishlari
6. Maktabagacha yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish ishlari

**Tayanch so'zlar va iboralar:**

✓ **Artikulyatsion apparat** – og'iz bo'shlig'ida joylashgan organlar holati va rivojlanishi.

✓ **Mimik mushaklar** – yuzning harakat rivojlanishi.

✓ **Umumiy motorika** – umumiy tana harakatining rivojlanishi.

Turli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar bilan korreksion rivojlantiruvchi ishlar tashkil etiladi. Korreksion rivojlantiruvchi ishlarda psixolog, logoped, tarbiyachi, nevrapotolog, psixonevrolog kabi mutaxasisslar bilan olib boriladi. Tajribadan ma'lumki, turli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalardagi kamchiliklarni bartaraf etishda ularning yosh xususiyatlari inobatga olgan holda takshkil etiladi. Ayniqsa bolani bog'cha yoshida erta

korreksion rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, bu bolani hayotga erta moslashtrishni ta‘minlaydi.

Maktabgacha ta‘lim sog‘lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta‘lim olishga tayyorlashda ota onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta‘lim bola 6 – 7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta‘lim bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim tarbiyasiga qo‘llaniladigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma‘naviy va intellektual jihatdan maktabda o‘qishga tayyorlashni nazarda tutatadi.

Quyidagilar ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim takshkilotlari-ning vazifalar hisoblanadi:

- ✓ Maktabgacha ta‘limga qo‘yiladigan davlat talablari hamda ular asosida ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilot-larida ta‘lim tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq bolalarning ta‘lim tarbiya olishlarini va korreksion pedagogik ishni ta‘minlash;
- ✓ Korreksion ta‘lim tarbiya jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, individual tarzda tashkil etish;
- ✓ Bolaning ijtimoiy xissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlari shakllanishi uchun zarur korreksion-rivojlantiruvchi ta‘lim tarbiya muhi-tini yaratish;
- ✓ Bolaning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun zaruriy korreksion pedagogik ishni tashkillashtirish;
- ✓ Bolalarni ijtimoiy hayotga va maktab ta‘limiga sifatli tayyorlash.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 3 – 7 yoshdagi bolalarning quyidagi toifalari qabul qilinadi:

1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar (alaliya, bolalar afaziyasi, rinolaliya, dizartriya, duduqlanish nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar);

2. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (1 – 4 guruh karlik va zaif eshituvchi bolalar);

3. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘zi ojizlar, zaif ko‘ruvchi bolalar);

4. Psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (psixik rivojlanish-ning orqada olishi, psixik nutqiy rivojlanshining orqada qolishi, bolalar autizmi);

5. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (aqliy rivojlanishida orqada qolishning yengil darajasi, aqliy rivojlanishida orqada qolishning o‘rta darajasi);

6. Tayanch harakatlanish a‘zolarida nuqsonlari bo‘lgan bolalar (ortopedik jarohatlarning asoratlari, idiopatik o‘zgarishlar bo‘yin, ko‘krak, 5 umurtqa).

Turli rivojlanshida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan tashkil etiladigan logopedik ishlarda logopedik tekshiruvning ahamiyati juda kattadir. Logopedik tekshiruvda bolaning barcha nutq komponentlari va nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari o‘rganiladi.

Logopedik tekshiruv ishlarining samarali natijasi asosan maxsus maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Maxsus maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyati maxsus dastur asosida ishlab, dastur 4 ta o‘quv yiliga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv yili boshidan 2 hafta davomida olib borilgan tekshiruvdan so‘ng tanlab olinadi. Bolalarning har tomonlama dastur materiallarini qay darajada o‘zlashtirishlarini tekshirish uchun yilning oxirida vaqt ajratiladi. O‘qish kuni 2 sentabrdan 31 may-gacha davom etadi. 1 iyundan 31 avgustga qadar yozgi sog‘lomlashtirish davri tashkil etiladi.

Mashg‘ulotlar jadvali 5 kunlik ish kuniga mo‘ljallab tuzilib, defektolog va tarbiyachilar tomonidan nutq o‘stirish, tevarak atrof bilan

tanishtirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, matematika, to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, tasviriy faoliyat bilan tanishtirish, qurish-yasash, mehnat, jismoniy tarbiya, o‘yin mashg‘ulotlari olib boriladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, maqsadga erishish uchun muayyan korreksion ta‘lim-tarbiya ishlarga kompleks yondoshilib, ya‘ni davolash tadbirlarini pedagogik ish jarayoni bilan chambarchas bog‘lab olib borish kerak.

Bolalar ta‘lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan asosiy vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

1. Bolalarning umumiy rivojlanishini shakllantirish.

2. Mavjud kamchiliklarini korreksion-pedagogik va tibbiy sog‘lom-lashtirish usullar orqali bartaraf etishga erishish;

3. Ijtimoiy hayotga moslashtirish;

4. Bolalarni maktab ta‘lim-tarbiyasiga tayyorlash.

Logopedik tekshiruvning predmeti: turli xil rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq shakllanishi xususiyatlariga va nutq kamchilik-larini aniqlashdan iborat.

Logopedik tekshiruvning obyekti: nutqiy va nutqiy bo‘lmagan jarayondir.

Logopedk tekshiruvning subyekti: nutqida nuqsoni bo‘lgan shaxs (bola).

Zamonaviy pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida munosabat – subyekt sanaladi. Shu boisdan ham nutqida nuqsoni bo‘lgan bola obyekt emas, subyekt hisoblanadi.

Logopedik tekshiruvning maqsadi: bolada kuzatiladigan nutq kamchiliklarining rivojlanishi olidini olishda korreksion rivojlantiruvchi ishlarni aniqlash va bolaga to‘g‘ri ta‘lim tarbiya berish.

Logopedik tekshiruvning maqsadidan kelib chiqqan holda vazifalar belgilanadi:

1. Ta‘lim tarbiya jarayonini olib borishda aniq reja asosida nutq kamchililiklarini bartaraf etishda korreksion logopedik ishlarni tashkil etilish.

2. Chuqur o‘rganish orqali bolada kuzatiladigan salbiy xususiyat-larni aniqlash.

3. Pedagogik faoliyat davomida nutq kamchiliklarini aniqlash va ularda kuzatiladigan o‘zgarishlarni belgilash.

Maxsus maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida nutq nuqsoniga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi bosqich: mo‘ljal olish bosqichi, bunda bolalar haqida anamnez ma‘lumotlar yig‘iladi va bolalar bilan muloqatga kirishiladi.

Ikkinchi bosqich: farqlash bosqichi, bunda bilish, ko‘rish, eshitish nuqsonlari orqali bolada kelib chiqadigan nutq nuqsonlarini logopedik tekshirish.

Uchinchi bosqich: asosiy bosqich, bunda nutq tuzilishining barcha tomonlari tekshiriladi(asosan logopeik tekshiruv).

To‘rtinchi bosiqich: yakunlovchi bosqich, bunda maxsus ta‘lim va tarbiya jarayonida bolaning rivojlanish dinamikasi nazorat qilinadi.

## Mo‘ljal olish bosqichi



Ushbu bosqichda bolaning anamnezi ma‘lu-motlari o‘rganiladi. Logoped ota onalardan bola haqida to‘liq ma‘lumotni suhbat, anketa, so‘rovnoma orqali olishi mumkin. Ota onadan xomiladorlikdan oldingi davr, xomiladorlik davri, xomiladorlikdan keyingi davrlar o‘rganiladi. Shuningdek, ota-onaning palapartish hayot tarzi (ichish, chekish) ham inobatga olinadi. Tug‘ruqdan so‘ng bolaning rivojlanish holati, ilk salbiy o‘zgarishlar bo‘yicha ham suhbat o‘tkaziladi. Bola haqidagi to‘liq ma‘lumotni yig‘ishda ko‘pincha tibbiyot kartasi katta

yordam beradi. Ko‘p hollarda ota onalar birdaniga logopedning savol-lariga to‘liq javob bera olmadilar, shuning uchun ham logoped savollarni anketa yoki so‘rovnoma qog‘oz tarzida uyda to‘ldirishni so‘rash mumkin bo‘ladi. Bunda ota onalar uy sharoitida shoshilmagan holda kerakli ma‘lumotlarni esga tushurish orqali anketa yoki so‘rovnomani to‘ldirib beradilar. Logoped albatta tibbiyot kartasini o‘rganganda asosiy tibbiyot mutaxasislarning qaydlarini o‘rganadi: bolalar shifokori, nevrapotolog, otorinolaringolog, jarroh, ko‘z shifokori va boshqalar. Suhbat maktab-gacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladi (3va 7 yoshdagi), bunda logoped bolalar bilan suhbat orqali muloqatga kirishadi, shundan so‘ng birlamchi nutq nuqsonlari aniqlanadi.






**Farqlash bosqichi**

Ma‘lumki, nutqning rivojlanishida bir qancha omillarga bog‘liq holda rivojlanadi bular:

1. Kognitiv jarayonlarning rivojlanishi.
2. Nutq harakat jarayonining saqlanib qolishi.
3. Ko‘ruv va eshituv jarayonining saqlanib qolishi.



Kognitiv jarayonlarni o‘rganishda bir necha metodikalardan foydalangan holda tafakkurni tekshirish mumkin: Segen doskasi, to‘rtinchisi ortiqcha, labirint, topishmoqlar, elementar matematik topshiriqlar, konstrkutorlar yig‘ish va boshqalar.

**Nutq harakat jarayonlar tekshirish quyidagicha:**

1) Mimik mushaklarni tekshirish.
2) Artikulyatsion apparat mushaklar holatini tekshirish.
3) Barmoqlar harakatchanligi tekshirish.
4) Umumiy motorikani tekshirish.



**Mimik mushaklarni tekshirish**

1. Peshona mushaklar harakatini sifat va koʻlamini tekshirish.
2. Koʻz mushaklar harakatini sifat va koʻlamini tekshirish.
3. Lunjlar mushak harakatini sifat va koʻlamini tekshirish.
4. Yuz mimik holatlarni aniqlash.



**Artikulyatsion apparat mushaklar holatini tekshirish**

Barcha topshiriqlar bir necha marta takrorlash orqali harakat yordamida bajariladi.




1. Ogʻzaki koʻrsatma orqali lablar harakatchanligini tekshirish.
2. Pastki jagʻ harakatchanligini tekshirish.
3. Til harakatchanligini tekshirish. Avval koʻrsatib berish orqali soʻng ogʻzaki soʻrash orqali.
4. Yumshoq tanglay harakatchanligini tekshirish.
5. Nafas olish kuchini davomiyligini tekshirish.

**Barmoqlar harakatchanligi tekshirish**



1. Harakat koordinatsiyalarni statik mashqlar yordamida tekshirish (sanoq yordamida barmoqlarni turli holatda ushlab turish);
2. Harakatlar koordinatsiyasini o‘zgarishini tekshirish.

**Umumiy motorikani tekshirish**

1. Harakatlarni bajarishda o‘zini nazorat qilish, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish, harakatni eslab qolishlarni tekshirish.
2. To‘xtab qolish (tormozlanish) harakatlarni tekshirish.
3. Harakatlar koordinatsiyasini statik holatda tekshirish.
4. Harakatlar koordinatsiyasini o‘zgarishini tekshirish.
5. Mo‘ljal olishni tekshirish.
6. Harakat tempini tekshirish.
7. Motorika sezgirlikni tekshirish.

So‘nggi yillarda bolalar logopediyasida bolalarning erta yosh davrni o‘rganish muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Zamonaviy logopediyada nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va bartaraf etish ishlari bolaning ilk kunlaridan boshlab, amalga oshirish lozim bo‘lib kelmoqda. Bolada qancha erta nutq kamchiliklarni aniqlansa, olib borilayotgan ishlar samarasi ham yuqori bo‘ladi. Logopedik ishlarni tashkil qilishda logoped ota onalar bilan hamkorlikda olib boriladi. Logopedik tekshirishda bolaning uyda yoki mehribonlik uyida tarbiya olganligi ham inobatga olinib, turli xil metodlardan foydalangan holda, shuningdek bolaning anamnez ma‘lumotlari olinadi. Hamda tabiiy sharoitda bolalar kuzatiladi, erta tekshirish ishlarini olib borishda xomiladorlikni to‘liq davrida rivojlangan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar olinadi.

## Birinchi etap (yangi tug‘ilgan chaqaloq)

*Logopedik tekshirish.*



Anamnez ma‘lumotlarni yig‘ishda logoped quyidagi ma‘umotlarga tayanadi:

- Yangi tug‘ilgan chaqaloqing birinchi qichqirishi holatlari (baland, bo‘g‘ilgan, zaif, past, dumbasiga urgandan so‘ng yig‘lagan, baqirmagan, yig‘lmagan);

- Fiziologik nafas funksiyasi (chaqaloq o‘zi mustaqil nafas olgan, nafas olish uchun maxsus apparatga ulangan);

- Neonatal jarayonida intensiv terapiya (antibiotiklar, qon quyish, kapelnitsaga ulanish);

- Neonatal jarayonda xirurgik amaliyot (tug‘ilish jarayonidagi nuqsonlar tufayli nafas organlari, qon aylanishi, ovoz tuzilishidagi kamchiliklar);

- Bolani ko‘krakdan birinchi bor emganligi;

- Sun‘iy ovqatlanishning sabablari;

- Ovqatlanishning davomiyligi;

- Emgan vaqtida ko‘krakni emish jarayoni, ovqatlanish vaqtida to‘g‘ri yutinish holati.

## Ikkinchi etap (1 – 3 oylikda)

Logopedik tekshiruv

Ushbu etapda logoped ota onalar bilan savol javob asosida bola haqidagi ma‘lumotarni hamda bolani tabiiy sharoitda kuzatish orqali ma‘lumot yig‘adi. Tabiiy sharoitda tekshirish orqali quyidagilarga e‘tibor beriladi:

- Och qolganda bolaning holati, cho‘milganda sovuq qotishi yoki isib ketishi.

- Turli tamga ega bo‘lgan narsalarni iste‘mol qilishda mimikaning qay holatda o‘zgarishi.

- Eshitish va ko‘rish vaqtida diqqat bilan tinglashning ilk kunlari.
- Turli asabga ta‘sir etuvchi shovqinlarga munosabati.
- Onaning bolaga murojaat etganda bolaning javob reaksiyasi.
- Yaxshi, qulay sharoitda bolaning ijobiy emotsiyalarni namoyon qilish.

Bundan tashqari alohida e‘tiborga olinadi:




- Bolaning birinchi gu-gulash davri;
- Tabiiy gu-gulash;
- Kattalar intonatsiyasiga birinchi reaksiyasi.

**Uchinchi etap (3 – 6 oylikda)**

Logopedik tekshiruv

- Chaqaloqning ovoz reaksiyalariga munosabati, ayniqsa kattalar unga diqqat bilan qaraganda va gapirganda.
- Ovozda intonatsiyalarga e‘tibor berishi, ya‘ni melodik ovozlar.
- Artikulyatsion jihatdan tovushlarni talaffuz qilishga o‘tish vaqtida bolaning holati.
- Yaqin insonlar bilan muloqatga kirishganda bolaning holati.
- Birinchi qo‘shimcha ovqatlanish vaqtida boladagi o‘zgarishlar.

**To‘rtinchi etap (6 – 9 oylikda)**

Logopedik tekshiruv

1) Bolaning gu-gulash davridan keyingi birinchi so‘zlarning xususiyatlari (lepit).
2) Bolaga qaratilgan nutqning tushunish xususiyatlari.
3) Muloqat shakllarning rivojlanishi.
4) Chaynash va yutinish jarayonining rivojlanishi.
5) Bolaning ona bilan munosabati.

## Beshinchi etap (9 – 12 oylikda)

Logopedik tekshiruv



- Katta inson bola bilan muloqat qilganda bolaning xarakter oʻzgarishlari.
- Toʻgʻri nutqiy muloqatning tushunish.
- Yangi soʻzlarni qoʻshib gapirishning (lepit) yakunlash bosqichi.
- Nutqiy muloqat jarayonida yangi soʻzlarning paydo boʻlishi.
- Chaynash va yutinish jarayonining rivojlanganligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni logopedik tekshirishda u bilan yaxshi munosabatda boʻlish, tekshirish vaqtida bolani kayfiyatini koʻtarib, uni maqtab yaxshi soʻzlarni aytish kerak. Logopedik tekshirishning asosiy metodi: hujjatlarni oʻrganish, bola bilan suhbatlashish, uning ota-onasi bilan suhbat oʻtkazish, bolani kuzatish va test oʻtkazishdan iborat.

Tajriba oʻtkazishdan avval bolaning anamnezi va boshqa hujjatlar: bolaning daftarlari, chizgan rasmlari, psixologik xarakteristikasi va boshqalar; tibbiy tekshirishlar: eshitish, koʻruv apparati, tayanch harakat apparati, bolaning nutqiy holatini yaxshi bilgan psixolog toʻgʻri tekshirish ishlarini olib boradi.

*Ota-onalar bilan suhbat* davomida logoped bir qancha maʼlumotlarga ega boʻladi. Ota ona bolasi bilan har kuni muloqatda boʻlganligi uchun, farzandini yaxshi bilishadi, shu bois birga suhbat davomida logoped ularning bolaga boʻlgan munosabatini bilib oladi.

Logoped bola bilan alohida suhbatlashayotganda savollarni uning yoshiga moslab, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda berishi kerak.

*Kuzatish* bolani tekshirish davomida olib boriladi. Bolani rivojlanishini chuqurroq oʻrganish uchun eksperiment tekshiruv metodini olib borish zarur. Eksperimental bola haqida toʻliq maʼlumot olish mumkin.

*Eksperimental tekshirishlarni* olib borishda quyida tamoyillarga tayanish lozim:

- Psixologik ta’limni modellashtirish, bola buni hayoti davomida amalga oshiriladi (o‘qish, o‘yin).
- Bolaga beriladigan vazifa uning yoshiga va bilimiga tayangan holda bo‘lishi kerak.
- Tahlili samarali bo‘lishi uchun bolaning barcha ruhiy holatini, uni bajarish va davomiylik sur’ati.

Eksperimentni o‘tkazishda bitta yo‘nalishdan emas, balki bir necha bir biriga yaqin bo‘lgan usullarni tanlash kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tekshirishda psixologik holat ham inobatga olinadi bunda:



- Diqqatni tekshirish;
- Xotirani tekshirish;
- Nutqni tekshirish;
- Idrokni tekshirish;
- Tafakkurni tekshirish;
- O‘z-o‘zini baholashni tekshirish;
- Oilada ichki munosabatlarni tekshirish;
- Tengdoshlari bilan munosabatlarini tekshirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirishda bir necha metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq bular:

- Matryoshkani yig‘ish va ajratish;
- Piramidani taxlash va ajratish;
- Segen taxtasi;
- Pochta qutisi;
- Kesma rasmlar;
- Qatoriga qo‘yish;
- Namunaga qarab qurish;
- Klassifikatsiya;

- Koos kubiklari.

***<u>Ushbu metodikalar bolaning yoshiga qarab o‘tkaziladi va tahlil etiladi.</u>***

## Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Turli rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar deganda nimani tushunasiz?
2. Turli rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar kimlar?
3. Logopedik tekshiruv nima?
4. Logopedik tekshiruvning obyekti, predmeti, subyekti nimadan iborat?
5. Logopedik tekshiruvning maqsad va vazifalari nimada iborat?
6. Logopedik tekshiruv bosqichlari nimadan iborat?
7. Logopedik tekshiruvning birinchi bosiqichi?
8. Logopedik tekshiruvning ikkinchi bosqichi?
9. Mimik mushaklarni tekshirishda nimalar hisobga olinadi?
10. Artikulyatsion apparat mushaklar holatini tekshirishda nimalar inobatga olinadi?
11. Barmoqlar harakatchanligi tekshirishda nimalar hisobga olinadi?
12. Umumiy motorikani tekshirishda qanday logopedik ishlar qilinadi?

## Mustahkamlash uchun testlar:

**1. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 3 – 7 yoshdagi bolalarning qanday toifalari qabul qilinadi:**

A) Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar; (alaliya, bolalar afaziyasi, rinolaliya, dizartriya, duduqlanish nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar); Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar; (1 – 4 guruh karlik va zaif eshituvchi bolalar);

B) Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar; (ko‘zi ojizlar, zaif ko‘ruvchi bolalar); Psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar; (psixik rivojlanishning orqada qolishi, psixik nutqiy rivojlanshining orqada qolishi, bolalar autizmi);

C) Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar; (aqliy rivojlanishida orqada qolishning yengil darajasi, aqliy rivojlanishida orqada qolishning o‘rta darajasi); Tayanch harakatlanish a‘zolarida nuqsonlari bo‘lgan bolalar (ortopedik jarohatlarning asoratlari, idiopatik o‘zgarishlar (bo‘yin, ko‘krak,umurtqa);

D) barchasi to‘g‘ri.

**2. Maxsus maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyati maxsus dastur asosida ishlab, dastur …… ta o‘quv yiliga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv yili boshidan …… hafta davomida olib borilgan tekshiruvdan so‘ng tanlab olinadi.**

A) 3 o‘quv yili, 4 hafta;

B) 4 o‘quv yili, 3 hafta;

C) 4 o‘quv yili, 2 hafta;

D) 3 o‘quv yili 2 hafta.

**3. Logopedik tekshiruvning obyekti nima?**

A) nutqiy va nutqiy bo‘lmagan jarayon;

B) nutqida nuqsoni bo‘gan shaxs;

C) kompleks nuqsoni shaxs;

D) turli nutq kamchiligidagi subyektlar.

**4. Logopedik tekshiruvning subyekti nima?**

A) nutqiy va nutqiy bo‘lmagan jarayon;

B) nutqida nuqsoni bo‘gan shaxs;

C) kompleks nuqsoni shaxs;

D) turli nutq kamchiligidagi subyektlar.

**5. Logopedik tekshiruvning maqsadi nima?**

A) Ta‘lim tarbiya jarayonini olib borishda aniq reja asosida nutq kamchililiklarini bartaraf etishda korreksion logopedik ishlarni tashkil etilishi;

B) bolada kuzatiladigan nutq kamchiliklarining rivojlanishini oldini olishda korreksion rivojlantiruvchi ishlarni aniqlash va bolaga to‘g‘ri ta‘lim tarbiya berish;

C) turli xil rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq shakllanishi xususiyatlariga va nutq kamchiliklarini aniqlashdan iborat;

D) barcha javob to‘g‘ri.

**6. Logopedik tekshiruvning predmeti nima?**

A) Ta‘lim tarbiya jarayonini olib borishda aniq reja asosida nutq kamchililiklarini bartaraf etishda korreksion logopedik ishlarni tashkil etilish;

B) bolada kuzatiladigan nutq kamchiliklarining rivojlanishi olidini olishda korreksion rivojlantiruvchi ishlarni aniqlash va bolaga to‘g‘ri ta‘lim tarbiya berish;

C) turli xil rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq shakllanishi xususiyatlariga va nutq kamchiliklarini aniqlash;

D) barcha javoblar to‘g‘ri.

**7. Logopedik tekshiruvning vazifalaridan biri berilgan qatorni toping?**

A) Ta‘lim tarbiya jarayonini olib borishda aniq reja asosida nutq kamchililiklarini bartaraf etishda korreksion logopedik ishlarni tashkil etilish;

B) bolada kuzatiladigan nutq kamchiliklarining rivojlanishi olidini olishda korreksion rivojlantiruvchi ishlarni aniqlash va bolaga to‘g‘ri ta‘lim tarbiya berish;

C) turli xil rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq shakllanishi xususiyatlariga va nutq kamchiliklarini aniqlash;

D) barcha javoblar to‘g‘ri.

**8. Maxsus maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida nutq nuqsoniga ega bo‘lgan maktabagacha yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi?**

A) 2;

B) 4;

C) 5;

D) 7.

**9. Tovushlar talaffuzini artikulyatsion holatda tekshirishda nimalar tekshiriladi?**

A) Nutqda tovushlarni hosil qilish holati va nutq jarayonida tovushlarni talaffuz etish;

B) Bola nutq tovushlarni farqlashni va turli xil fonematik jarayonda ularning holati;

C) Harakatlarni bajarishda o‘zini nazorat qilish, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish, harakatni eslab qolishlarni tekshirish;

D) Harakat koordinatsiyalarni statik mashqlar yordamida tekshirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Y.Ayupova “Logopediya”. Toshkent, 2007 yil, 463 b.

2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.

3. Qodirova F.U. “Texnologiya 4”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi. – Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.

4. Qodirova F.U. “Texnologiya 3”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘l-gan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi. – Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.

5. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya // O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2021, 140 b.

6. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.

7. Dehqanova M.G‘., Tag‘onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o‘ziga xos xatoliklarni paydo bo‘lish mexanizmi // “Yangi O‘zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar” mavzusidagi Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022. – 405 – 407 b.

8. Dehqanova M.G‘. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // NeuroQuantology, 2022. Vol. 20, pp. 1 – 9.



## Artikulyatsion apparat va mimik mushaklar holati va harakatchanligini tekshirish texnologiyasi

**Reja:**

1. Artikulyatsion apparat va yuz muskullariga tavsif.
2. «Yuz mimikasi (ifodasi)» va «Artikulyatsion motorika» tushunchalariga tavsif.
3. Mimik va artikulyatsion mashqlar, ularning tavsifi, namoyishi. Artikulyatsion apparat xolatini tekshirish texnologiyasi.
4. Artikulyatsion apparat harakatchanligini tekshirish texnologiyasi.

**Tayanch tushunchalar:**

**1. Battarizm** (grekcha "battarismos" – duduqlanish) – haddan ziyod tezlashtirilgan nutq. Battarizmda so'zlar juda tez sur'atda, noaniq talaffuz etiladi, gapdagi oxirgi so'zlar tushirib qoldiriladi.

**2. Balneologiya** mineral suvlar va loylardan davo sifatidu foydalanishni, shuningdek, turli kasalliklarni davolash va profilaktika metodlarini o'rganadigan fan.

**3. Bradilaliya** (grek. Bradys – sekin, lalia – nutq) – nutq tempining patologik sekinlashuvi.

**4. Detsentralizatsiya** – markaziy organlarning ba'zi vazifalarini mahalliy organlarga berish.

Bradilaliyani bartaraf etishda logopedik usullar qo'yidagilarga yo'naltiriladi:

— nutq jarayonida birmuncha tez va aniq nutqiy harakatlarni tarbiyalash;

— tezlashgan nutqiy reaksiyalarni tarbiyalash;

— ichki nutq tempini tarbiyalash;

— o‘qish va yozuv tempini tarbiyalash;

— sahnabop o‘qish va dramalashtirilgan nutqning ifodali shakllarini tarbiyalash va h.k.;

— nutqning to‘g‘ri prosodik tomonini tarbiyalash: temp, motorika, ohang, pauza, urg‘uni.

***Artikulyatsion nutq apparatini tekshirish***

1) Lablar: qalin, ingichka, yuqori labning o‘ta ingichkaligi, pastki labning o‘ta qalinligi.




2) Tishlar: prikuslarni noto‘g‘ri joylashuvi, tishlar tuzilishidagi kamchiliklar.



3) Qattiq tanglay: tor, o‘ta chuqur rivojlangan.




4) Yumshoq tanglay: yumshoq tanglay kaltaligi, tilchaning ikkiga bo‘linganligi, kichik tilchaning yo‘qligi.

***Artikulyatsion mashqlar o‘tkazish uchun kerakli bo‘lgan talablar:***

1. Talab qilingan vaziyatni egallay bilish, shu vaziyatda tura bilish (olish), shu vaziyatni sakrab turish, bir vaziyatdan ikkinchisiga o‘ta bilish.

2. Artikulyatsion motorikani rivojlantiruvchi mashqlar tizimiga statik mashqlar kabi nutq harakatining dinamik koordinatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ham kirgizishi lozim.

3. Lab va til harakat mashqlarini birga olib borish zarur, chunki bu organlar tovushlarni talaffuzida birgalikda ishtirok etishadi, bir-biriga moslashadi (bu ko‘rinishni koartikulyatsiya deyiladi).

4. Bola toliqib qolmasligi uchun mashg‘ulotlar qisqa, lekin ko‘p marta o‘tkazilishi lozim. Orada boshqa ish turi bilan shug‘ullanish lozim.

5. Kinestik sezgini, kinestik analiz va tasavvurni shakllantirishga katta e‘tibor berish kerak.

6. Harakatlarni o‘zlashtirish bilan birga, tovushlarni realizatsiya qilish uchun logoped boshqa tovushlarga kerak bo‘lgan harakatlar ustida ishlashga o‘tadi.

## Artikulyatsiya gimnastikasi



Dastlabki logopedik tekshirish jarayonida artikulyatsion apparat a‘zolari tuzilishida kamchiliklar borligi aniqlanadi. Bunday hollarda fonematik idrokni rivojlantirish ishlari bilan parallel ravishda artikulyatsiya gimnastikasi (tayyorgarlik mashqlari) olib boriladi. Artikulyatsiya gimnastikasining maqsadi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish uchun zarur bo‘lgan artikulyatsiya a’zolarini to‘liq, aniq keltirish va oddiy harakatlarni murakkab harakatlarga turli xil fonemalarning artikulyatsiya tartibiga birlashtirishdan iboratdir.

Hamma artikulyatsion mashqlari tizimini ikki turga bo‘lish mumkin: statik va dinamik. Statik mashqlarda artikulyatsiya a‘zolari turli holatlarga keltiriladi, lekin harakat bo‘lmaydi. Dinamik mashqlarda artikulyatsiya a’zolari turli holatlarga va shu bilan birga harakatga keltiriladi.

## “S”-tovushi uchun artikulyatsion mashqlar



## Sh, Ch, J-tovushlari uchun artikulyatsion mashqlar






## K, G, Q-tovushlari uchun



Yaqqol ifodalangan bradikineziyada birinchi navbatda umumiy motorikani normallashtirish muhim: birmuncha tezlashgan tempda umumiy harakatlarmotorikai, maqsad sari yo‘nalganligi, koordinatsiyasi; so‘ng qo‘l praksisini shakllantirish; eshituv, ko‘ruv diqqatini, bir obyektdan ikkinchisiga diqqatni ko‘chirish tempini birmuncha tezlashuvini, motorikalarni idrok qilish va amalga oshirish va hokazolarni rivojlantirish muhimdir. Motorikaninig normallashuviga ko‘ra nutqiy material kiritiladi. Korreksion ishning barcha ko‘rinishlari turli xil nutqiy mashqlarga asoslanadi. Asosiy mashqlar: turlicha murakkablikdagi nutqiy materialni talaftuz qilish (bo‘g‘inlami, so‘zlarni, qisqa jumlalarni, tez aytishlami va h.k.); O‘qish (logoped bilan birgalikdagi, so‘ng mustaqil), qo‘l bilan chertib maqomga solish ostida o‘qish, metronom ostida tempni sekin-asta tezlatish bilan gapirish va o‘qish; tezlashgan tempda magnitofon lentasiga yozib olingan nutqiy materialni eshitish va gapirib berish; logoped tomonidan berilayotgan takt ostida, oldindan aniq gapirib olish bilan bo‘g‘inlar, so‘zlar va shu kabilami yozish, so‘ng bolaning o‘ziga o‘zi berayotgan takti ostida yozish; ichki nutq tempining tezlashuvi uchun turli xil temp va motorikadagi tashqi ta’sirlovchilarning ta’siri jarayonida tasawur ustida ishlash; bemorni logoped bilan turli xil personajlaming nutqiy xususiyatlarini o‘rganib, dialog shaklida amalga oshirib berishi, so‘ng guruhdagi do‘sti bilan; dramalashtirish mazmuniga mos ravishda sahnaviy xatti-harakatni tarbiyalash.

Bradilaliyada nutq tempining normallashuviga logopedik motorikaika bo‘yicha mashg‘ulotlar yaxshi yordam beradi. Musiqaning o‘zgaruvchan xarakteri ostida to‘xtashlar, o‘tirib turishlar, sakrashlar almashinib ko‘tarinki musiqa ostida turli xil yo‘nalishlarda yurish va marsh qilib yurish amalga oshiriladi. Ko‘rsatilgan mashqlar sanash mashqlari bilan uyg‘unlashadi. Bu mashqlar bajarilayotgan harakatlar tempini nazorat qilishga yordam beradi va bolalarga nutqda kerakli tempni ushlashni osonlashtiradi. Diqqatni faollashtiruvchi mashqlar ko‘ruv,

eshituv ta’sirlovchilariga tez va aniq reaksiyani tarbiyalaydi, xotiraning barcha turlarini rivojlantiradi: ko‘ruv, eshituv, motor.

Motorikaik mashqlar forte – kuchli, mezzoforte – o‘rtacha kuchli singari musiqa asarining dinamik tavsifnomalari bilan bogliq. Qo‘l, oyoq, tana uchun motorikaik mashqlar tez, aniq bajariladi. Motorika qizg‘in qarsak, doiraga zarba berish, bayroqchalami silkitish, depsinish va shu kabilar bilan belgilanadi. Kuylar qisqa ohangdoshlik bilan kuylanadi, qo‘shiqlar tempi uzuq, Bo‘lingan xarakterdagi, o‘rtacha va tez bo‘ladi.

Harakatli o‘yinlar: sujetli va sujetsiz. Sujetsiz o‘yinlarga quvlash-machoq, berkinmachoq, estafeta-o‘yinlar, predmetlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar, sport musobaqalari elementlari bilan tashkil qilingan o‘yinlar va shu kabilar kiradi. Sujetli-harakatli o‘yinlar shartli ravishda hayotiy yoki ertak qahramonlarini aks ettiradi va dialoglarda, dramalashtirishlarda nutqni o‘zlashtirib, o‘rganib olishga yordam beradi. O‘quvchilarning musiqali mustaqil faoliyati: ko‘tarinki musiqa ostida harakatlarni qizg‘in bajaradilar – o‘tin yoradilar, otda chopadilar, bokslaydilar va hokazo. So‘ng logoped yordamida va mustaqil ravishda xalq o‘yinlari, xarakterli raqslar, bal raqslari (polka, sakrab chopish) kabi ijodiy kompozitsiyalami ijro etadilar. Torli va zarbli musiqa asboblarida o‘ynaydilar. Oddiy va murakkab motorikaik tuzilishlarni amalga oshiradilar. Olib borilgan mashg‘ulotlartufayli 6 – 12 oyda nutq ma’lum miqdorda aniqroq va tezroq bo‘lib qoladi. Biroq, mashg‘ulotlar kursidan so‘ng ham bolalar ustidan taqqoslovchi uzoq kuzatuv olib borish lozim. Shu maqsadda mustaqil mashg‘ulotlar, nutq tempi ustidan doimiy nazorat, logopedda konsultativ mashg‘ulotlar, katamnestik tekshiruvlaroiib borilish tavsiya qilinadi.

Taxilaliyani bartaraf etish quyidagilami tarbiyalashni ko‘zda tutadi:

a) sekin, osuda, ravon, qat’iy motorikaik nafas va ovoz hosil bo‘lishini;

b) shoshmasdan motorikaik o‘qishni;

d) xotirjam motorikaik tartibga solingan nutqni;

e) nutqiy va umumiy xatti-harakat jarayonida jamoaga sog‘lom qarashni;

f) nutqga qaratilgan umumiy va eshituv diqqatini.

Taxilaliyadan aziyat chekuvchi o‘smirlar va kattalar bilan olib boriladigan logopedik ishni bartaraf etishning murakkabligi va doimiy qaytalanishlar sababli bosqichma-bosqich o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Birinchi bosqich – sukut saqlash tartibi. Logoped jamoa bilan muloqot jarayonida har kimning nutq xususiyatlari bilan tanishadi, nutq tempini normaga keltirish uchun logopedik mashg‘ulotlar va jamoa ahamiyati haqida suhbat o‘tkazadi. Mashg‘ulotdan tashqari va uyda maksimum darajada sukut saqlash, eng muhim jumlalarbilangina chegaralanish tavsiya qilinadi. Sukut saqlash holati tashvishli qo‘zg‘aluvchanlikni yo‘qotadi, o‘quvchilami tinchlantiradi, ularni mashg‘ulot vazifalari va qoidalariga jalb etadi. Logoped bilan mashg‘ulotlar olib borilishi jarayonida, oddiy nutqiy materiallar ustida sekinlashgan tempni o‘zlashtirish boshlanadi (aks ettirilgan, birgalikdagi nutq, savollarga javoblar).

Ikkinchi bosqich – sekinlashgan tempni o‘zlashtirish bo‘yicha olib boriladigan ish baland o‘qish materialidan boshlanadi. Awal logoped o‘qish namunasini beradi, so‘ng bolalar navbatma-navbat har kimning o‘qishini tahlil qilgan holda bog‘langan, aks ettirilgan holatda o‘qiydilar. Har bir mashg‘ulot nutqiy mashqdan boshlanadi (30 yoki 50 gacha sanash), so‘ng shug‘ullanuvchilarning birining rahbarligi ostida yakka va guruhli mustaqil (4 – 5 kishi) nutqiy ish olib boriladi. Barcha harakatlarni sekinlashtirish, assotsiativqatorlaroqimi tezligini, tashqi muhitga bo‘lgan reaksiyani, barcha xatti-harakatlarni sekinlashtirish tavsiya qilinadi. 2-bosqich oxirida uyda va guruhdagi ishlar yakuni ko‘rib chiqiladi, bolalar o‘z ahvollari haqida hisobot beradilar.

Uchinchi bosqich – bayon qilinuvchi fikrlami tahrir qilish, ko‘zlangan mazmun bo‘yicha jumlalarning to‘g‘riligi ustida ish olib boriladi. Mashg‘ulotlar materiali: reja bo‘yicha va rejasiz o‘qilganni aniq

gapirib berish, u yoki bu uzunlikdagi ixtiyoriy yo‘nalish bilan gapirib berish, qayta gapirib berishni dctallashtirish; aynan bir jumlaning turlicha holatdagi talafiuzini mashq qildirish.

To‘rtinchi bosqich – guruhli hikoya ustida ishlash. O‘z do‘stini diqqat bilan eshita turib, har bir kishi hikoyaga (logoped yoki navbatchi signali bo‘yicha) kutilmaganda qo‘shiladi. Bu bosqichda, o‘ziga o‘zi sekin o‘qish qo‘shiladi, bu shug‘ullanuvchilarning og‘zaki nutqiga intizomlashgan va sekinlashgan ta’sir ko‘rsatadi. Nutq ustida yakka ishlashga ko‘p vaqt ajratiladi. Bu logopedik kurs tugaganidan so‘ng ham bir yildan kam bolmagan muddatda, kuniga 2 maitadan (ertalab va kechqurun 10 – 30 daqiqadan) davom etadi. Mashg‘ulotlarda qo‘llanuvchi usullar: taqlid, bog‘langan, birgalikda aks ettirilgan talafiuz, motorikaik olqish, takt ostida nutqiy mashqlar (qo‘l zarbi, oyoq depsinish, qarsak va shu kabilar bilan belgilanuvchi), tolg‘ri nutqni yozish va eshitish (magnitofon tasmasiga yozilgan) va boshqalar. Bu bosqichda logopedik kabinetdan tashqarida, individual va jamoa bilan funksional mashqlar oltkaziladi. Logopedik mashgkulotlarda sekinlashgan (va normal) tempda dialogik muloqotga imkon tug‘ilsa, funksional mashqlarga o‘tishga sharoit mavjud boladi. Funksional mashqlar ko‘chada, do‘konda, pochtada, transportda va h.k. lardagi dialoglar xarkteriga egadir. Bemorlar nutqiy materialni oldindan tayyorlaydilar, uni uyda va guruh mashg‘ulotlarida qayta ishlaydilar. Logopedik muassasalardan tashqaridagi funksional mashqlar o‘z nutqiga e’tibomi va suhbatdoshi javoblariga e’tibomi tarbiyalaydi; hissiy zo‘riqish vaqtida o‘z nutqi va xattiharakatini boshqarish uquvini tarbiyalaydi, nutqiy faollikni stimullaydi va shaxsiyatni qayta tarbiyalashga yordam beradi.

Beshinchi yakunlovchi bosqich – jamoat oldiga chiqishga tayyorgarlik. Buning uchun o‘quvchilaming individual xususiyatlarini hisobga olgan holda material tanlanadi. Xatti-harakatlar odati, nutq tempi mustaqil yakka va frontal mashg‘ulotlar jarayonida ishlanadi; o‘quvchilaming

chiqishlari magnitofon tasmasiga yoziladi, eshitib ko‘riladi, mazmuni va tashqi bezatiiishi bo‘yicha tahlil qilinadi.

Kurs davomiyligi 2,5 – 3 oy. Agarbu vaqt yetarli bo‘lmasa, tanaffusdan so‘ng mashg‘ulotlarni 4 – 6 oy mobaynida davom ettirish tavsiya qilinadi. Logopedik kursdan so‘ng, to‘gkri nutq malakalarini keyinchalik mustaqil mastahkamlashga yo‘nalish beriladi. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda taxilaliyani bartaraf etishda, taxilaliya mexanizmi va simptomatikasini o‘zgartirishlar bilan duduqlanish korreksiyasi bo‘yicha olib boriluvchi mctodikadan foydalanish tavsiya etiladi. Umuman olganda, duduqlanish va taxilaliyada bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish tamoyillari va mazmuni o‘xshashdir. Logopedik motorikaika, motorikaik mashg‘ulotlar va nutqiy yuklamalar murakkabligining har bir bosqichda o‘sishi bilan birga, ma’lum ketma-ketlikda logopedik korreksiyaga qo‘shiladi. Sekinlashgan temp, mashg‘ulotning asosi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagilar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan logopedik korreksiya kursi 6 oydan – 1 yilgacha. Qaytalanish holatlarida takroriy mashg‘ulotlar kursi muhimdir.

Battarizm va polternni bartaraf etish bo‘yicha logopedik ishda, aniq asosdagi tushunchalami shakllantirish va ulami grammatik to‘g‘ri ifodalash birinchi o‘rinda turadi.

1. Nutqi boshqa psixik jarayonlar bilan birgalikdagi tizim sifatida yondashuv. Nutq elementlari, nafas va artikulatsiyaning alohida funksiyalari singari oliy tartibdagi yaxlit nutqiy mahsulotlar ustida ishlash tavsiya qilinadi; mustaqil bayon qilish, qayta himoya qilish, dialogdeklamatsiya, tayyorlangan va erkin hikoya, doklad, ma’lumot, fikrlarni erkin ifoda etish ustida ishlash.

Asosiy usul – diqqatni ko‘chirish jarayonini fikrni ketma-ketlikda mantiqiy ochib berish jarayoniga muvofiq kelishi uchun nutqga bernor diqqatini qaratish, uni jumladagi har bir so‘zga to‘g‘ri taqsimlash hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagilardan foydalaniladi:

— jumla, matnlarni birgalikda – aks ettiruvchi talaffuz qilish;

— jumlada mantiqiy urg‘u berish ustida ishlash;

— boshqa so‘zlar bilan tushuntirish;

— logoped bilan dialoglar, kerakli obrazni yetkazish uchun sahnabop xatti-harakat va ifodali nutqni talab qiluvchi bolalar o‘rtasidagi dramatizatsiya.

— logoped bilan birgalikda, logoped ortidan aks ettirilgan o‘qish. So‘z, jumla bo‘yicha ketma-ket va har yerdan o‘qish, oldindan belgilab qo‘yilgan matn bo‘yicha o‘qish, karton chiziq o‘rtasidagi kesik joy orqali o‘qish, bunda karton qator bo‘yicha sekin surilib, aval bir, so‘ng ikkinchi so‘zni, so‘ngra sintagmani, va nihoyat yaxlit jumlani ochib beradi.

2. Nutqiy va nutqiy bo‘lmagan vazifalarda mantiqiy tafakkurni tarbiyalash. Masalan, seriyali rasmlarni kerakli ketma-ketlikda qo‘yib chiqish, berilgan predmetli rasmlar orasidan ortiqchasini olib tashlash yoki bayon qilishning umumiy rejasini tuzish; hikoyaning ma’lum qismidagi asosiy fikrni ochib berish; berilgan sujetlarning bir nechta "boshlanish" yoki "nihoya" variantlarini topish va xokazo.

3. Ichki nutq nuqsonlarini bartaraf etish. Shu maqsadda mazmunli bayon qilish sujetli rasmlar, matn yordamida amalga oshiriladi. Bunda aval logoped bilan birgalikda, so‘ng mustaqil savollar bo‘yicha sujetli rasmlar, matn o‘rganiladi. Hikoya qilib berish rejasi tuziladi. Matn yoziladi, o‘qiladi, xotiralash bo‘yicha qayta hikoya qilinadi.

4. Eshituv diqqati, jumlalar, matnlar materiali asosida nutqni eshitish uquvim rivojlantirish. Magnitofonli mashg‘ulotlar foydalidir. Bunda bola bir vaqtning o‘zida matnni eshitadi va ko‘radi (o‘qiydi). Matn magnitofon tasmasidan sekinlashgan tempda taraladi. O‘z nutqiga diqqatni jalb etish uchun, sekinlashgan va tezlashgan tempdagi nutq namunalari eshitish va keyin tahlil qilish uchun beriladi. Ohang ustida ishlash foydalidir.

5. Nutq tempini tartibga solish ustida ishlash: harakatlar bilan birgalikda sanash mashqlari, bo‘g‘in bo‘yicha yoki motorikalik tiqillatish hamkorligidagi nutq, qisqa matndan mazmunli qismlarni ajratish, jumladagi mazmunni (rasm asosida tuzilgan) ajratish va nutqiy materialni mazmuniga ko‘ra mos keluvchi ohang bilan talaffuz qilish; turli xil jumlalar motorikalini tiqillatib berib borish bilan bir vaqtning o‘zida uni motorikalik gapirib berish va h.k.

6. Sekinlashgan va aniq talaffuzni mustahkamlash, o‘z nutqiga e’tibor va xotirjam xatti-harakatni mustahkamlash uchun logopedik mashg‘ulotlardan tashqari ish.

Battarizm va polternni bartaraf etish, mashg‘ulotlarni erta boshlashni, tizimli uzoq davom etuvchi logopedik ta’sirni va tez-tez qaytalanish tufayli keyinchalik doimiy nazoratni talab qiladi. Bu kamchiliklami bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan ish ko‘p hollarda duduqlanishning oldini olishga xizmat qiladi. Nutq tempi buzilishlaridan aziyat chekuvchi shaxslarga kompleks ta’sir ko‘rsatish samaradorligi, yuqorida ko‘rib chiqilgan bir qator shart-sharoitlarga bo‘g‘liqdir.

## Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Nutq tempi buzilgan shaxs bilan o‘tkaziladigan logopedik tekshirishning asosiy bo‘limlarini tushuntirib bering.

2. Nutq tempi buzilgan shaxs bilan olib boriladigan kompleks davolovpedagogik ta’sirning asosiy tamoyillarini yoritib bering.

3. Bradilaliyada olib boriladigan metodik korreksion-pedagogik ishlarning asosiy bo‘limlari va mazmunini aytib bering.

4. Taxilaliya, battarizmda olib boriladigan metodik korreksion-pedagogik ishlarning asosiy bo‘limlari va mazmunini aytib bering.

5. Nutq tempi buzilgan shaxs bilan olib boriladigan mashg‘ulotning ishlanmasini tuzing.

**Mavzu yuzasidan takrorlash uchun test savollari:**

**1. Maxsus maktabgacha ta’lim muassasida o‘quv yilining boshida qancha mudatda logopedik tekshiruv amalga oshiriliadi?**

A) 2 hafta;

B) 3 hafta;

C) 1 hafta;

D) 1 oy.

**2. Logopedik tekshiruv davomida bolalr tafakkurini tekshirish uchun quyidagi qaysi usullardan foydalanilmaydi?**

A) “Baliq skeleti” metodi;

B) Segen doskasi;

C) “To‘rtinchisi ortiqcha” metodi;

D) Elementar mantematik tekshiruvlar.

**3. Logopedik tekshiruvning birinchi etapida logoped bolaning qaysi rivojlanish davrlarini ko‘zdan kechiradi?**

A) Yangi tug‘ilganadan boshlab chaqaloqlik davrigacha;

B) 1 – 3 oylik;

C) 3 – 6 oylik;

D) 6 – 9 oylik.

**4. Logopedik tekshiruvning birinchi etapida logoped bolaning qaysi rivojlanish davrlarini ko‘zdan kechiradi?**

A) 6 – 7 oylik;

B) 8 – 9 oylik;

C) 6 – 9 oylik;

D) 3 – 5 yosh.

**5. Mimik mushaklarni tekshirish qatorini aniqlang?**

A) Lunjlar mushak harakatini sifat va ko‘lamini tekshirish;

B) Pastki jag‘ harakatlarini tekshirish;

C) Til harakatchanligini tekshirish;

D) Harakatlar kordinatsiyasini o‘zgarishini tekshirish.

**6. Nutq apparati mushaklarining konsultiv holati tufayli nutqning tempo-ritmik tashkil etilishining buzilishi?**

A) Rinolaliya;

B) Agrafiya;

C) Duduqlanish;

D) Dizartriya.

**7. Logopedk tekshiruvning subyekti...**

A) Turli xil rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq shakllanishi xususiyatlariga va nutq kamchiliklarini aniqlashdan iborat;

B) nutqiy va nutqiy bo‘lmagan jarayondir;

C) nutqida nuqsoni bo‘lgan shaxs (bola);

D) o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida munosabat.

**8. Farqlash bosqichida nimalar tekshiriladi?**

A) Kognitiv jarayonlarning rivojlanishi;

B) Ko‘ruv va eshituv jarayonining saqlanib qolishi;

C) Nutq harakat jarayonining saqlanib qolishi;

D) Barchasi.

**9. Markaziy nutq apparati nimadan tashkil topadi?**

A) og‘iz, burun, halqum, kekirdak, o‘tkazuvchi yo‘llar, qobiq osti tugunlari, nafas, artikulyatsion muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi;

B) ko‘krak qafasi, traxeya, bronxlar, ovoz apparati, kekirdak, o‘tkazuvchi yo‘llar, qobiq osti tugunlari nafas, artikulyatsion muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi;

C) bosh miya qobig‘idan, qobiq osti tugunlaridan, o‘tkazuvchi yo‘llar, o‘zakdan, yadrolar va ovoz, nafas, artikulyatsion muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi;

D) nafas bo‘limi, ovoz bo‘limi, artikulyatsion bo‘lim, hiqildoq ovoz paychasi, kekirdak, o‘tkazuvchi yo‘llar, qobiq osti tugunlari nafas, artikulyatsion muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi.

**10. Artikulyatsion bo‘lim nimadan tashkil topgan?**

A) Katta va kichik til, lab, jag‘, alveolalar;

B) Til, lab, jag‘, alveolalar, qattiq va yumshoq tanglay;

C) Hiqildoq, ovoz paychalari;

D) Nafas bo‘limi, ovoz bo‘limi, artikulyatsion bo‘lim.



## Nutqning tovush tomonini, fonematik idrok va so‘zning tovush-bo‘g‘in tuzilishini tekshirish texnologiyasi

**Reja:**

1. Artikulyatsion nutq apparatini tekshirish.
2. Nutqiy nafasni tekshirish.
3. Ovoz funksiyasini tekshirish.
4. Nutqning prosodik tomonini tekshirish.
5. Fonematik idrokni tekshirish.

**Tayanch so‘zlar va iboralar:**

**Fonema** – yun. olingan bo‘lib, “tovush” degani.

**Fonematik idrok** – eshitgan tovushlarni to‘g‘ri anglash.

Tovushlar talaffuzini ikki bir biriga bog‘liq holatda tekshiriladi.

1. Artikulyatsion holat.

Nutqda tovushlarni hosil qilish holati va nutq jarayonida tovushlarni talaffuz etish holati aniqlanadi.

2. Fonologik holat.

Bola nutq tovushlarni farqlashni va turli xil fonematik jarayonda ularning holati aniqlanadi.

Tovushlar talaffuzini tekshirish

Nutq tovushlarni tekshirish bosqichma bosqich olib boriladi.

1. Nutqda tovushlar taalaffuzini tekshirish.
2. Nutqda tovushlar talaffuzini bo‘g‘inda tekshirish.
3. Nutqda tovushlar talaffuzini so‘zlarda tekshirish.
4. Nutqda tovushlar talaffuzini jumlalarda tekshirish.

Quyida tovushlar guruhi tekshiriladi.

1. Unli tovushlar (a, o, u, i, e);
2. Sirg‘aluvchi, shovqinli, affrikat tovushlar (s, z, sh, j, ch);
3. Sonor tovushlar (r, l, m, n);
4. Til orqa tovushlar (k, g, x);
5. Chuqur til orqa tovushlari (q, g‘, h);
6. Jarangli va jarangsiz tovushlar (b, v, d, z, j, s, g, g‘, y) (p, f, t, s, sh, ch, k, x, h, q).

## *TOVUSHLARNING NUTQ APPARATIDAGI ARTIKULEMA HOLATI:*

**Unli tovushlar** (a, o, u, i, e, o‘)

| Bosma ko‘rinishi | **A a** | **O o** | **U u** | **I i** | **E e** | **O‘ o‘** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Yozma ko‘rinishi | ***A a*** | ***O o*** | ***U u*** | ***I i*** | ***E e*** | ***O‘ o‘*** |
| Artiku-lema ko‘rinishi |   |   |  |  |  |   |

**Sirg‘aluvchi, shovqinli, affrikat tovushlar** (s, z, sh, j, ch)

| Bosma ko‘rinishi | **S s** | **Z z** | **Sh sh** | **J j** | **Ch ch** |
|---|---|---|---|---|---|
| Yozma ko‘rinishi | ***S s*** | ***Z z*** | ***Sh sh*** | ***J j*** | ***Ch ch*** |
| Artiku-lema ko‘rinishi |  |  |  |  |  |

**Sonor tovushlar** (r, l, m, n)

| Bosma ko‘rinishi | **R r** | **L l** | **M m** | **N n** |
|---|---|---|---|---|
| Yozma ko‘rinishi | ***R r*** | ***L l*** | ***M m*** | ***N n*** |
| Artiku-lema ko‘rinishi |  |  |  |  |

**Til orqa tovushlar** (k, g, x, h)

| Bosma ko‘rinishi | **K k** | **G g** | **X x** | **H h** |
|---|---|---|---|---|
| Yozma ko‘rinishi | ***K k*** | ***G g*** | ***X x*** | ***H h*** |
| Artiku-lema ko‘rinishi |  |  |  |  |

**Chuqur til orqa tovushlari** (q, g‘)

| Bosma ko‘rinishi | **Q q** | **G‘ g‘** |
|---|---|---|
| Yozma ko‘rinishi | ***Q q*** | ***G‘ g‘*** |
| Artiku-lema ko‘rinishi |  |  |

**Jarangli va jarangsiz tovushlar** (b, v, d, z, j, s, g, g‘, y)

(p, f, t, s, sh, ch, k, x, h, q)

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Bosma ko‘rinishi | **Bb/Pp** | **Vv/Ff** | **Dd/Tt** | **Zz/Ss** | **Jj/Sh** | **Gg/ Kk** | **G‘g‘/Hh** | **Yy/Qq** |
| Yozma ko‘rinishi | ***Bb/Pp*** | ***Vv/Ff*** | ***Dd/Tt*** | ***Zz/Ss*** | ***Jj/Shsh*** | ***Gg/Kk*** | ***G‘g‘/Hh*** | ***Yy/Qq*** |
| Artikulema ko‘rinishi |  |  |  |  |  |  |  |  |

Logopedik adabiyotlarda tovushlar talaffuzini buzilishi uchta guruhga bo‘linib aniqlanadi:

1.Tovushni nutqda yo‘qligi.

2. Tovushni noto‘g‘ri talaffuzi.

3.Tovushni boshqa tovush bilan almashtirish.

***Artikulyatsion nutq apparatini tekshirish***

1) Lablar: qalin, ingichka, yuqori labning o‘ta ingichkaligi, pastki labning o‘ta qalinligi.

2) Tishlar: prikuslarni noto‘g‘ri joylashuvi, tishlar tuzilishidagi kamchiliklar.

3) Qattiq tanglay: tor, o‘ta chuqur rivojlangan.

4) Yumshoq tanglay: yumshoq tanglay kaltaligi, tilchaning ikkiga bo‘linganligi, kichik tilchaning yo‘qligi.




***Nutqiy nafasni tekshirish***

1) Nutqsiz nafas turlari: ko‘krakdan nafas olish turi, diafragmal nafas turi, aralash nafas turi.

2) Nutqiy nafas tavsifi: bitta jumlani talaffuz etishda 3 – 4 so‘zlarni ishtirok etishi (5 yoshli bolalarda) 6 va 7 yoshli bolalarda 4 yoki 6 so‘zlarni talaffuz etishi.

3) Nutqiy nafas ko‘lami (normada, yetarli rivojlanmagan).

4) Nutqiy nafas chastotasi (normada, tezlashgan, sekinlashgan).

5) Nutqiy nafas davomiyligi (normada, qisqa).

***Ovoz funksiyasini tekshirish***

1) Ovoz balandligi:(normada, past, juda baland).

2) Ovoz tembri (buzilmagan, bo‘g‘ilgan, manqalangan holda kuzatilishi).

3) Ovoz atakasi (yumshoq, qattiq, nafasli).

4) Ovoz modulyatsiyasi (monoton ovozning borligi yoki monoton ovozning yo‘qligi).

*Nutqning prosodik tomonini tekshirish*

1) Temp (normada, sekinlashgan, tezlashgan).

2) Motorika (normada, amotorikaiya, dismotorikaiya)

3) Pauzalar (to‘g‘ri holatda bo‘lishi, kamchilikl kuzatilish – so‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi, bo‘g‘inlarni tovushlarga bo‘linishi)

4) Asosiy inntonatsiyalarni qo‘llanilishi (so‘roqli, undovli).

*Fonematik idrokni tekshirish*

Bolalarda fonematik idrokni tekshirishdan avvl uning fiziologik eshituv holati aniqlanadi. Ko‘p hollarda fiziologik eshituv normada bo‘lgan bolalarda fonemalarni kichik ko‘rinishlarini farqlay olmaydilar. Buning natijasida bolalarda fonematik idrok kamchiliklari kuzatiladi.

Fonematik idrokni tekshirish maqsadida bir necha vazifalardan foydalaniladi:

1) Oddiy jumlalarni solishtirish, farqlash, tanish.

2) Bir qator so‘zlar ichidan kerakli so‘zni eslab qolish.

3) Bir qator tovushlar ichidan kerakli tovushni ajratish, so‘ngra – bo‘g‘inlarda, so‘zlarda.

4) 2 va 4 elementdan iborat bo‘g‘inlar qatorini eslab qolish (unli tovushlar o‘zgarishi bilan: RA-RE-RU, undosh tovushlar o‘zgarishi bilan: VA-SA-RA.

5) Tovushlar qatorini eslab qolish.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Artikulyatsion nutq apparatiga nimalar kiradi?
2. Artikulyatsion nutq apparatini tekshirish nimalardar iborat?
3. Nutqiy nafasni tekshirish qanday olib bloiladi?
4. Ovoz fnuksiyasini tekshirish nimalardan iborat?
5. Nutqning prosodik tomonini tekshirishda qanyda logopedik ishlar olib boriladi?

6. Fonematik idrokni tekshirishda logopedik ishlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

7. Logopedik adabiyotlarda tovushlar talaffuzini tuzilishi uchta guruhga bo‘lib aniqlangan.Ular qaysilar?

8. Affrikat tovushlarni sanang?

9. Nutq tushunchalarini tekshirish bosqichlarini sanang…

10. Chuqur til orqa tovushlarini sanang…

## Mustahkamlash uchun test topshiriqlari

**1. S, z, sh, j, ch ushbu tovushlar qanday tovushlar qatoriga kirmaydi**

A) Sonor;

B) Shovqinli;

C) Sirg‘aluvchi;

D) Affrikat.

**2. Tovushlar talaffuzining buzilishi nechta guruhga bo‘linib aniqlanadi?**

A) 3 ta guruhga bo‘linadi;

B) 4 ta guruhga bo‘linadi;

C) 5 ta guruhga bo‘linadi;

D) 2 ta guruhga bo‘linadi.

**3. Yumshoq tanglayni tekshirishda uning qaysi belgilariga ahamiyat berilmaydi?**

A) Yumshoq tanglay qalinligi;

B) Yumshoq tanglay kaltaligi;

C) Tilchaning ikkiga bo‘linganligi;

D) Kichik tilning yo‘qligi.

**4. Nutqsiz nafas turlari nechta?**

A) 3 ta;

B) 4 ta;

C) 7 ta;

D) 2 ta.

**5. Ovoz modulyatsiyasi nima?**

A) Monoton ovozning borligi yoku yo‘qligi;

B) Yumshoq, qattiq nafasli;

C) Buzilmagan bo‘g‘ilgan yoki manqalangan holdagi ovoz;

D) Normada past yoku juda baland ovozga ega bo‘lish.

**6. Nafas yo‘lining burun bo‘shlig‘idan keyingi qismi nima deb nomlanadi?**

A) ovoz bo‘limi;

B) ovoz paychasi;

C) hiqildoq;

D) traxeya.

**7. ……… havoning traxeyaga o‘tishini ta’minlaydi va unga qattiq, suyuq moddalar tushishiga to‘sqinlik qiladi. Nuqtalar o‘rnidagi so‘zni toping?**

A) ovoz bo‘limi;

B) ovoz paychasi;

C) hiqildoq;

D) traxeya.

**8. Artikulyatsion bo‘limning asosiy a’zosi nima?**

A) Jag‘;

B) Til;

C) Tanglay;

D) Lab.

**9. Maxsus pedagogik yo‘llar bilan ovozni to‘g‘rilash bilan shug‘ullanadigan bo‘lim nima deb ataladi?**

A) Fonopediya;

B) Foniatriya;

C) Fonotsiya;

D) Duduqlanish.

**10. Hiqildoq qanday tog‘aylardan iborat?**

A) silindrsimon, voronkasimon;

B) do‘nglik va kekirdak olmasi;

C) toq uzuksimon, shohsimon, juft cho‘michsimon;

D) uchburchak, tuynuksimon, juft cho‘michsimon.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

### Asosiy adabiyotlar

1. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 35 с.

2. Козырева О.А. «Логопедические технологии» Издательство: Феникс, 2017. 28 с.

3. Козырева О.А. «Логопедические технологии» Издательство: Феникс, 2018. 31 с.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

1. M.Y.Ayupova “Logopediya”. Toshkent 2007 yil, 463 b.




# Nutqni tushunishni, lug‘at boyligi va nutqning grammatik qurilishini tekshirish texnologiyasi

**Reja:**

1. Bolalarda lug‘at boyligi tekshirish texnologiyasi.
2. Bolalarda nutqning grammatik qurilishi tekshirish texnologiyasi.
3. Bog‘langan nutqni tekshirish texnologiyasi.

**Tayanch so‘zlar va iboralar:**

1. **Assomilyatsiya** – bu lotin tilidan olingan bo‘lib, “birkish, o‘zlashtirish, o‘xshatish” degani.

2. **Frontal tekshirish** – bir necha bolalar ishtirok etgan, guruhli tekshirish.

3. **Fonematik analiz** – eshitib tahlil qilish.

***Bolalarda lug‘at boyligi tekshirish texnologiyasi***

*Bolalarda to‘g‘ri muloqat jarayonini qisman yoki to‘liq tekshirish ishlari*

Tekshirishdan avval logoped bola bilan to‘g‘ri muloqatni o‘rnatib, bolaning kayfiyatini ko‘targan holda tekshiriuv ishlari o‘yin tarzida olib borilishi lozim. Va quyidagi ishlar olib boriladi:

1) Bola o‘yinchoqlarni nomlash, ular bilan qanday harakatlarni bajarishni aytib berish.

2) Bola rasmlarni nomlash.

To‘g‘ri muloqatga kirishuvchi bolalarni tekshirish

1) Maxsus tanlangan rasmlarda predmetlarni harakatini, sifatini nomlash;

2) Mavxum tushunchalarga ega bo‘lgan, antonim, sinonim, so‘zlarning umumiy ma‘nosi, so‘zlardan kerakli so‘zni mo‘ljal olishni tekshirish;

3) Bir guruhga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish;

4) Turli xil muloqat faoliyatida qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘rganish.

A) berilgan so‘zga mustaqil holda gap tuzish;

B) Tugallanmagan gapga 1 yoki 2 ta so‘z qo‘shish;

V) Gapda qo‘llanilgan xatosi bor so‘zni to‘g‘rilash.

1) Assomiliyatsiyaga yo‘llanilgan metod.

So‘zlarni xususiyatiga to‘g‘ri keladigan mazmun qo‘llaniladi. Bolaga so‘zlar bir biriga mos keladigan topshiriqlarni bajarish vazifasi beriladi.

2) So‘zning bir qancha ma‘nosini anglashini aniqlash maqsadida, shu so‘zlarga yaqin so‘zlar taqdim etiladi.

3) Gaplarda yetishmaydigan so‘zlarni to‘ldirish.

***Bolalarda nutqning grammatik qurilishi tekshirish texnologiyasi. Gaplarni tuza olish ko‘nikmalari tekshirish***

1) Yordamchi so‘zlar yordamida gap tuzish.

2) Alohida tartibsiz bo‘lgan so‘zlarda gap tuzish.

3) Rasmlar asosida oddiy gaplar tuzish orqali, berkitib qo‘yilgan topshiriqlarni topish.

A) oddiy ko‘p qo‘llanilmadiygan gaplar tuzish.

B) 3 yoki 4 so‘zlardan iborat bo‘lgan gaplarni tuza olish ko‘nikmasi.

V) bir ma‘noga ega bo‘lgan gaplarni tuza olish ko‘nikmasi.

G) bir nechta ma‘noga ega bo‘lgan gaplarni tuza olish ko‘nikmasi.

4) Murakkab gaplarni tuzish.

A) bir nechta harakatdan tashkil topgan rasmlar asosida gap tuzish.

B) bitta asosiy gapning mazmunini tugatish.

V) 2 ta oddiy gapdan murkaab mazmun tuzish

**Grammatik munosabatlarni qo‘llay olishin tekshirish.**

**Rasm asosida gaplarni tuzishda sifat va kelishik**

1) qo‘shimlardan foydalanish.
2) gaplarda tushib qolgan so‘zlarni to‘ldirish.
3) gaplarda yetishmaydigan so‘zlarni bir nechta so‘zlar qatoridan tanlash.

Bolalarda nutqni grammatik tomonini tekshirishda ot, sifat, kelishik, fe‘llarga e‘tibor qaratiladi.

***Bog‘langan nutqni tekshirish texnologiyasi***

1) Gapirib berish;
2) Seriyali yoki syujetli rasmlar asosida gapirib berish;
3) O‘zi haqida yoki biror bir hodisani gapirib berish;
4) Gapirib bera olishni tekshirishda natijalar tahlil etiladi:

1. Gapirilgan matnni tushunish.
2. Mustaqil gapririb berish.
3. Matnni ma‘nosini to‘liq yetkazib berish.
4. Jumlalarni ketma-ketliligi.
5. Berilgan fikrni to‘g‘riligi.
6. Gapirib berishni to‘g‘ri qo‘llash.

Grammatik shakllarni tushunishni tekshirish

Tekshirishdan avval logoped tomonidan eksperimntni o‘tkazish uchun sharoit yaratish kerak. Chunki eksperimentda logoped topshiriqlarni og‘zaki ravishda berilganda barcha lozim bo‘lgan predmetlar tayyor turgan bo‘lishi lozim.

Tekshirish yo‘li:

1. Bir necha predmetlar tasvirlangan rasmlarda bir va ko‘plik ma‘nodagi ot, sifat, fe‘llarni tushunishni tekshirish.

2. Gaplar ma‘nosiini tushunishni tekshirish.

**Gaplarda so‘zlarni grammatik tomonini o‘zgartira olshini tekshirish**

1. Grammatik munosabatlarni boshqara olishini tekshirish.

1) ma‘lum bir kelishik qo‘shimchalarni so‘zda qo‘llash.

2) rasm asosida harakatlarni bajarishni ot va fe‘lda tuzish.

3) matnda yetishmaydigan so‘zlarni qo‘llash.

## Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolalarda lug‘at boyligi tekshirishda nimalarga ahamiyat beriladi.
2. Bolalarda nutqning grammatik qurilishi tekshirishda nima inobatga olinadi.
3. Bog‘langan nutqni tekshirish texnologiyasi ayting.
4. Bog‘langan nutqni tekshirish texnologiyasi ketma-ketligini qanday?
5. To‘g‘ri muloqatga kirishuvchi bolalarni tekshirish ketma-ketligini qanday?

## Mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Quidagi berilgan murakkab o‘zakli so‘zlarni yozing.

***murakkabguldoshlar, mexanizatsiyalash, prezident, korreksiya, kompensator, kalkulyator, kompressor, impravizatsiya, rekvilidatsiya, konstitutsiya.***

2. Grammatik diktant yozing.
3. Amaliyotda kuzatilgan grammatik kamchiliklar misol keltiring.

## Mustahkamlash uchun test topshiriqlari:

**1. Frontal tekshiruv qanday tekshiruv usuli?**

A) Bir necha bolalar ishtirok etgan, guruhli tekshiruv;

B) Faqat 1 ta bolani yakka holda tekshirish;

C) Eshitib tahlil qilishni tekshirish;

D) Nutq tovushlarini tekshirish.

**2. Tovushlar talaffuzining buzilishlariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?**

A) Tovushlarni baland ovozda talaffuz qilish;

B) Tovushni nutqda yo‘qligi;

C) Tovushni noto‘g‘ri talaffuz qilish;

D) Tovushni boshqa tovushga almashtirib talaffuz qilish.

**3. Bradilaliya qanday kasallik?**

A) Nutq tempining potologik sekinlashuvi

B) Nutq tempining patologik tezlashuvi

C) Tovushni noto‘g‘ri talaffuz qilish

D) Tovushni boshqa tovushga almashtirib talaffuz qilish

**4. 5-yoshli bolalarda 1 ta jumlani talaffuz etishda nechta so‘z ishtirok etadi?**

A) 3 – 4 ta;

B) 4 – 7 ta;

C) 7 – 8 ta;

D) 1 – 2 ta.

**5. Battarizm kasalligining ikkinchi nomi nima?**

A) Logonevroz;

B) Bradilaliya;

C) Taxilaliya;

D) Sigmatizm.

**6. So‘zlarni yoki iboralarni ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan bir vaqtning o‘zida birgalikda takrorlash?**

A) mustaqil nutq;

B) uyg‘unlashgan nutq;

C) konjugat nutq;
D) aralash nutq.

**7. "K" tovushlarini talaffuz qilishning yetishmasligi?**
A) parakappatizm;
B) gammatizm;
C) kappatizm;
D) paragammatizm.

**8. So'zning tovush tarkibini tahlil qilish va sintez qilish uchun aqliy harakatlar nima?**
A) fonemik idrok;
B) fonemik sintez;
C) fonemik analiz va sintez;
D) fonemik analiz.

**9. Nutqiy diqqatni alohida buzulishi, nutq tempining buzilishi oqibati sifatida jumlalar noto'g'ri shakllanishi bu ...?**
A) Florenskaya;
B) Getsman;
C) Battarizm;
D) Silash.

**10. Qaysi holatlarda logopedik massajni qo'llab bo'lmaydi?**
A) Teri kasalliklarida;
B) Bolalar yuqimli kasalliklarida;
C) Barchasida;
D) Stomatologik kasalliklarida.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Y.Ayupova “Logopediya”. Toshkent, 2007 yil, 463 b.
2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.
3. Qodirova F.U. “Texnologiya 4”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
4. Qodirova F.U. “Texnologiya 3”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
5. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya // O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2021, 140 b.
6. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.
7. Dehqanova M.G‘., Tag‘onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o‘ziga xos xatoliklarni paydo bo‘lish mexanizmi // “Yangi O‘zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar” mavzusidagi Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022., 405 – 407 b.
8. Dehqanova M.G‘. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // NeuroQuantology, 2022. Vol. 20, pp. 1 – 9.



## Bog‘lanishli nutq tekshirish texnologiyasi

**Reja:**

1. Bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlanish me’yorlari.
2. Qayta hikoyalash va hikoya tuzish ko‘nikma va malakalarini tekshirish.
3. Logopedik xulosa.

Bog‘lanishli nutq va uni maktabda egallash

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o‘zaro bog‘langan ma’noli qismlarga bo‘linadigan nutq bog‘lanishli nutq deyiladi.

Bog‘lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilari, maktab sharoitida esa o‘qituvchi bergan savolga o‘quvchilaring keng, mukammal og‘zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin.

***Bog‘langan nutqni tekshirish texnologiyasi***

1) Gapirib berish;
2) Seriyali yoki syujetli rasmlar asosida gapirib berish;
3) O‘zi haqida yoki biror bir hodisani gapirib berish;
4) Gapirib bera olishni tekshirishda natijalar tahlil etiladi:

1. Gapirilgan matnni tushunish.
2. Mustaqil gapririb berish.
3. Matnni ma‘nosini to‘liq yetkazib berish.

4. Jumlalarni ketma-ketliligi.
5. Berilgan fikrni to‘g‘riligi.
6. Gapirib berishni to‘g‘ri qo‘llash.

***Grammatik shakllarni tushunishni tekshirish***

Tekshirishdan avval logoped tomonidan eksperimntni o‘tkazish uchun sharoit yaratish kerak. Chunki eksperimentda logoped topshiriq-larni og‘zaki ravishda berilganda barcha lozim bo‘lgan predmetlar tayyor turgan bo‘lishi lozim.

Tekshirish yo‘li:

1. Bir necha predmetlar tasvirlangan rasmlarda bir va ko‘plik ma‘nodagi ot, sifat, fe‘llarni tushunishni tekshirish.
2. Gaplar ma‘nosiini tushunishni tekshirish.

Boshlang‘ich sinflar metodikasida bog‘lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) berilgan savolga keng, mukammal javob;

2) o‘gilgan asarni tahill gilish, grammatik materialni o‘rganish; o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish bilan bog‘liq holda har xil matnli mashqlar;

3) muntazam o‘tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;

4) o‘qilgan matnni turli variantda og‘zaki qayta hikoyalash;

5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o‘quvchilaring og‘zaki hikoyasi.

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takrorly ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlamning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog‘lanishli nutqdan mashqlaming turli xil bo‘lishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, Janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

Bog‘lanishli nutqqa oid asosiy ko‘nikmalar

O‘quvchilar nutqini o‘stirish ularga aniq ko‘nikmalarni singdirish dem akdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mustaqil mashq sifatida bog‘lanishli nutqni o‘stirishdan quyidagi ko‘nikmalarni bilib oladi lar:

- Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to‘liq yoritish ko‘nikmasi. Masalan, «Biz uy ishlarida ota-onamizga qanday yordamlashamiz?» mavzusi berilsa, o‘quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

- Inshoni asosiy fikrga bo‘ysundirish ko‘nikmasi. Bolalar ishi ma’lum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o‘zlarining baxtli hayotidan g‘ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni) ifodalaydi.

- Hikoya, insho uchun mavzuga talluqli, uni yoritishga zarur bo‘lgan materialni yig‘ish. Bu bayonga ham taalluqli bolib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to‘g‘ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.

O‘qituvchidan o‘quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini, o‘quvchilarni nimaga o‘rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchilligida shu inshoning tutgan o‘mini aniq ko‘z oldiga keltirish talab etiladi. Shuning uchun o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o‘quchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur.

Metodik an’anaga ko‘ra matnli mashqlar tasvirlash, hikoya qilish va muhokamaga bo‘linadi. Boshlang‘ich sinflarda bular, asosan, tasvir yoki muhokama elementlari bo‘lgan hikoya tarzida uchraydi.

Har uchala janr uchun foydalaniladigan material xarakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o‘z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o‘qituvchi (yoki o‘quychi) matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi.

Hikoya boshlang‘ich sinf o‘quychilari uchun mos janr hisoblanadi, chunki u jo‘shqin, jonli, ta’sirchan bo‘ladi. «O‘qish kitobi»da bunday hikoyalar ko‘plab berilgan.

Tasvirda syujet, qatnashuvchi shaxslar bo‘lmaydi; unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi. O‘quvchilar «O‘qish kitobi»da berilgan ko‘pgina tasviriy manlarni o‘qiydilar, ularni qayta hikoya qiladilar, bayon, ayrim narsa yoki hodisalami tasvirlab insho ham yozadilar. Masalan, «Bizning sinfimiz», «Bahor keldi» kabi. Tasvirga xos xususiyatlar shundan iboratki, unda sifatlash, taqqoslash, metaforalar ko‘p bo‘ladi. Tasvir o‘quchilar uchun hikoyaga nisbatan qiyin Janr hisoblanadi, shuning uchun boshlang‘ich sinflarda ko‘proq tasvir elementlari bo‘lgan hikoya tarzidagi bayon va insho yozdiriladi.

Muhokama bog‘lanishli manning anchagina qiyin shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang‘ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi; o‘quvchilar inshodamuhokama elementlaridangina foydalanadilar. Masalan, «Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas», «Paxta – bizning milliy boyligimiz» mavzularida og‘zaki hikoya tuzdirilsa yoki insho yozdirilsa, muhokama elem enti, albatta, bo‘ladi.



O‘qituvchi bog‘lanishli nutqni rejalashtirganda, turli Janrda mashq qilishni ko‘zda tutadi va o‘quchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o‘rgata boradi. Bunda ko‘prog hikoya tarzidagi matn tuzdirishga ahamlyat beradi.

Bolalarning bog‘lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari kiritib boriladi.

## Mustahkamlash uchun savol va topshhiriqlar:

1. Bog‘lanishli nutq nima?
2. Logopedik xulosa qanday tashkil etiladi?
3. Metodik an’anaga ko‘ra matnli mashqlar necha turga bo‘linadi?
4. Muhokama qanday metodik usul?
5. Nutqning grammatik qurilishini tekshirish?
6. Bog‘langan nutqning asosiy turlari qaysilar?

## Mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Quidagi berilgan murakkab o‘zakli so‘zlarni yozing.

***murakkabguldoshlar, mexanizatsiyalash, prezident, korreksiya, kompensator, kalkulyator, kompressor, impravizatsiya, rekvilidatsiya, konstitutsiya.***

2. Grammatik diktant yozing.
3. Amaliyotda kuzatilgan grammatik kamchiliklar misol keltiring.

**Mustahkamlash uchun uchun test topshiriqlari:**

**1. 2-sinf o‘quvchilari uchun tuzilayotgan bayon nechta so‘zdan iborat bo‘lishi kerak?**

A) 30 – 40 ta;

B) 40 – 60 ta;

C) 70 – 90 ta;

D) 15 – 35 ta.

**2. Maktab o‘quvchilari uchun eng mos bog‘lanishli nutq ko‘rinishi qaysi?**

A) Hikoya;

B) Doklad;

C) Monolog;

D) Maqola.

**3. Qisqartirib qayta hikoyalash elementlari nechanchi sinfdan kiritiladi?**

A) 1-sinf;

B) 2-sinf;

C) 3-sinf;

D) 4-sinf.

**4. Chuqur til orqa tovushlari qaysilar?**

A) Q, G‘, X;

B) H, G;

C) K, G, NG;

D) L, M, N, R.

**5. Logopedik kurs davomiyligu qancha davom etadi?**

A) 2,5 – 3 oy;

B) 4 – 6 oy;

C) 5 – 7 oy;

D) 2 – 4 oy.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:


1. M.Y.Ayupova “Logopediya”. Toshkent, 2007 yil, 463 b.
2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.
3. Qodirova F.U. “Texnologiya 4”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128.
4. Qodirova F.U. “Texnologiya 3”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
5. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya // O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2021, 140 b.
6. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.
7. Dehqanova M.G‘., Tag‘onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o‘ziga xos xatoliklarni paydo bo‘lish mexanizmi // “Yangi O‘zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar” mavzusidagi Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022. 405 – 407 b.
8. Dehqanova M.G‘. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // NeuroQuantology, 2022. Vol. 20, pp. 1 – 9.



## Yozma nutq holatini tekshirish texnologiyasi

**Reja:**

1. Yozma nutqning nazariy asoslari.
2. Yozma nutqni oʻzlashtirishda taʻsir etuvchi omillar.
3. Yozma nutq kamchiliklarining turlari.
4. Yozma nutqni tekshirish ishlari.

**Tayanch iboralar:**

❖ **Disleksiya** – oʻqish jarayonining qisman buzilishi.
❖ **Disgrafiya** – yozuv jarayonining qisman buzilishi.
❖ **Agrafiya** – yozma nutqning yoʻqligi.
❖ **Diksiya** – oʻqish tezligi, nutq bayon qilish shakli.
❖ **Diktant** – yozma nutqni tekshirish turi.

Nutq – kishilararo aloqa quroli, milliy boylik hamda tarbiya, maorif va ijodiyot uchun qudratli vositadir. Fikrini savodli bayon etish, ogʻzaki va yozma nutqdan muloqot vositasi sifatida foydalanish hozirda nafaqat ona tili, balki umumiy oʻrta taʻlim maktablari shuningdek maxsus (korreksion) maktablardagi umumtaʻlim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda oʻquvchilardagi orfografik savodxonlikning keskin pasayib ketgani kuzatilmoqda. Yozma nutqi turgʻun buzilgan oʻquvchilar umumiy oʻrta taʻlim va maxsus korreksion maktablardagi muayyan fanlar boʻyicha qoloq oʻquvchilarning kattagina qismini tashkil qiladi.

Ona tilidan o‘zlashtirishning pastligi esa bola shaxsining emotsional, kognitiv va xulq-atvor jihatdan rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Korreksion pedagogikada va logopediyada bolalarning yozma nutqidagi buzilishlarni aniqlash, ularning oldini olish va korreksiya qilish muammosi o‘z dolzarbligini hamon saqlab kelmoqda.

Differensial yondashuv asosida maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik yordamning yo‘qligi orfografik xatolarning ko‘payishiga va mustahkamlanishiga olib keladi.

Hozirgi sharoitda til ko‘nikmalarini shakllantirishning yangi, yanada samaraliroq texnologiyasiga zaruriyat sezilmoqda. Nutqiy kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilarning yozma nutqidagi orfografik xatolarning oldini olish va ularni bartaraf etishning eng faol yo‘llarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish zamonaviy logopediyaning nazariy va amaliy jihatdan muhim masaladir.

Sifatli ta‘lim berish va o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimini yangilashga qo‘yiladigan talablar hamda maxsus ta‘limga ehtiyoj sezgan bolalarni o‘qitish va ularga korreksion yordam berishda differensiallashgan yondashuvni amalga oshirish usullarini belgilaydi.

O‘zbekistonda ona tili metodikasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan M.Asqarova, K.Qosimova [11], Q.Abdullayeva [7], O.Roziqov, A.G‘ulomov, R.Ikromova [51], S.Fuzailov [144], X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, D.Shodmonqulovalarning [165], darsliklari va ilmiy-metodik ishlari umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ona tilini o‘qitishda, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishda ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nutq kamchiliklarida tilning lug‘at tarkibi va grammatik tuzilishining o‘ziga xosligi V.K.Vorobyova, V.K.Orfinskaya, A.V.Yastrebova, N.A.Nikashina, G.V.Chirkina, Ye.F.Sobotovich, V.A.Kovshikov, L.R.Mo‘minova, M.Y.Ayupova va X.M.Po‘latovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritilgan [29, 107, 163, 103, 152, 129, 58, 98, 117].

Mazkur ishlarda nutqning talaffuz tomoni, lug‘at boyligi, grammatik tuzilishi, mantiqiy va tovush tomonlarini o‘zlashtirish yuzasidan ko‘rsatmalar, tavsiyalar berilgan. Bolalardagi nutq kamchiliklarini va ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganish masalasining dolzarbligi shundaki, korreksiya qilinmay qolgan nutqiy kamchiliklar bolalarning rivojlanishiga, o‘zaro munosabatlariga va ularning aqliy taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Rus, ukrain, gruzin, qirg‘iz, qozoq, eston, litva olimlari tomonidan o‘quvchilarda yozma nutq kamchiliklari va ularning sababi aniqlanib, korreksion-logopedik ishlar tizimi ishlab chiqilgan. O‘zbekistonda boshlang‘ich o‘quvchilarda yozuv kamchiliklarini o‘rganish bo‘yicha p.f.n. dots Z.M.Axmedova tomonidan «Umumta‘lim maktablari o‘quvchilarida disgrafiyani bartaraf etishda logopedik ish tizimi (2 – 4 sinflar misolida)» mavzusida ilmiy ish olib borilgan.

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning ona tilidan ta‘lim standartini o‘zlashtirish yo‘lida turgan jiddiy to‘siqlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘qish va yozish malakalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- bilimlarni muvaffaqiyatli egallashga bo‘lgan asoslarning zaifligi;
- bolada individual psixik (ruhiy) chekinishlarning mavjudligi;
- zaiflashgan somatik sog‘liq.

Fan bo‘yicha muntazam orqada qolish bilan bog‘liq bolaning ruhiy kechinmalari, navbatdagi nazorat ishi yoki diktant uchun qoniqarsiz baho olishdan qo‘rqish, depressiyalarga, o‘qishning zaiflashishiga olib keladi, o‘quvchida ta‘lim jarayonining faol qatnashchisi bo‘lish ishtiyoqini so‘ndiradi.

Bularning barchasi bir zanjirning halqalari bo‘lib, muayyan rag‘batlantiruvchi asoslar, har bir ta‘lim oluvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan ta‘lim texnologiyalarining joriy qilinishi ushbu kamchiliklarni bartaraf etishi mumkin.

Savodli o‘quvchi boshqa o‘quv fanlarini ham kengroq, chuqurroq, ildamroq egallaydi, atrofimizdagi olam haqida bilimlari kengayadi, bu esa o‘quvchining ruhiy va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etadi. Aksincha, yozma nutqida kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilarning o‘quv malakalarini egallay olmasliklari ularda o‘qishga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin.

Ma‘lumki, bola nutqni ijtimoiy va biologik omillar asosida egallaydi. Ayni shu omillarning buzilishi yoki yetishmay qolishi nutq buzilishiga olib keladi. U yoki bu darajada nutqi buzilgan bola tevarak-atrofdagi voqealarni sust qabul qiladi.

Rus olimlari nutq kamchiliklari muammosini har tomonlama tadqiq etdilar: psixologik-pedagogik jihatlari R.Ye.Levina psixologik-lingvistik jihatlari V.K.Orfinskaya, Ye.F.Sobotovich, V.A.Kovshikov tibbiy-pedagogik jihatlari S.S.Lyapidevskiy, Ye.M.Mastyukova tomonidan o‘rganildi.

Nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bola shaxsining rivojlanish jarayonida lug‘at boyligini rivojlantirish, so‘zning ma‘nosi va mazmunini idrok etish, nutqning leksik tomonining shakllanishi bola bilish jarayonining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Chunki so‘z nafaqat muomala va shaxslararo munosabat vositasi, balki shaxs, tafakkur rivojlanishning negizidir.

Yozma nutqida kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘z vaqtida logopedik yordam ko‘rsatilmasa, ularning yozuvidagi xatolar (bo‘g‘inlarni tashlab ketish, so‘zlarni qo‘shib yozish, eshitilishi jihatidan o‘xshash harflarni almashtirish) yuqori sinflarda ham saqlanib qoladi. Bularning barchasi kamchilikni barvaqt aniqlash va korreksion logopedik ishlarni o‘z vaqtida olib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Maktabda ona tilini o‘qitishning muhim muammolaridan biri o‘quvchilarning xatosiz yozish malakasini shakllantirishdan iboratdir. Bu

esa yozma nutq shakllanishining moddiy asosini tashkil etadi. Usiz maktabdagi o‘quv jarayoni muvaffaqqiyatli kechishi mumkin emas.

Ba‘zi mualliflar yozuvdagi fonetik xatolarning sabablarini analizatorlar faoliyatining buzilishi, bilish faoliyati darajasining pasayishida deb ko‘rsatishadi. Buning natijasida eshitish va kinestetik analizatorlar buziladi. Aynan shu omillar mualliflarning fikriga ko‘ra yozuvning fonetik tizimida to‘g‘ri yozish asosi bo‘lgan so‘zni fonematik tahlil qilishga salbiy ta‘sir qiladi. Agar bola yozuvda harflarni aralashtirib yuborish bilan birga talaffuzda ularga mos keladigan tovushlarni ham ajrata olmasa (differensiatsiya qilmasa) bu qo‘pol nutq buzilishlariga olib keladi. Chunki eshitish kinestetik analizatorlarning yetishmovchiligi eng avvalo talaffuz holatida aks etadi.

Nutqni o‘zlashtirishda bolaning eshitish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Eshitish qobiliyati ikkiga bo‘lib o‘rganiladi: fiziologik eshitish va fonematik eshitish. Fiziologik eshitish – nutqdan tashqaridagi barcha tovushlarni eshita olish, ma‘lum bo‘g‘in va so‘z ichidan aniqlay olish, bir-biridan ularni sifat belgilariga (unli, undosh, jarangli, jarangsiz) ko‘ra farqlay olishdir. A.R.Luriya nutq tovushlari va fonemalar tilning fonematik tuzilishiga bog‘langanda tashkil topgan bo‘lib, bu nutq tovushlarini bir-biridan farqlash uchun, ularni shu tizimga mos ravishda kodlashtirish, ya‘ni fonematik belgilarni haqqoniy bo‘lmagan variantlardan ajrata olish kerak degan fikrni ilgari surgan.

L.K.Nazarovaning fikricha, fonematik tasavvurlar bolada fonemalarning turli variantlarini kuzatishi natijasida shakllanadi. Bunda har bir nutq tovushining turli xil talaffuz variantlarini yagona tovushga birlashtira olish ko‘nikmasi ko‘zda tutiladi. Muallif bu ko‘nikmalarni so‘zning tovush tahlilini shakllantirishda asos deb hisoblaydi.

L.K.Nazarova va V.G.Ananyev fonematik tasavvur deganda, nutq jarayonida ifodalangan fonemalarni farqlay olish qobiliyatini tushunadilar.

M.Y.Ayupova, L.R.Mo‘minovalar eshituvni perseptiv funksiya deb, faqat nutq tovushlarini idrok etishni nazarda tutadi, qolgan qobiliyatlar tovushlarni farqlash, ularni tovush guruhchalariga birlashtirish, tovush tahlili ko‘nikmasi rivojlangan fonematik eshituv oqibati bo‘lib, maqsadga qaratilgan talim jarayonida shakllanadi degan fikrni ilgari suradilar.

Nutq buzilishlarini o‘rganish bo‘yicha korreksion-logopedik ishlar-ni tashkil etishda ona tilining o‘ziga xosligini inobatga olish zarur.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarida nutqning fonetik-fonematik rivojlanmaganligi va yozma nutqida kamchiliklari bo‘lgan o‘quvchilarni o‘rganish bo‘yicha maxsus adabiyotlar va metodik tavsiyanomalarning yetishmasligi, o‘quvchilar bilan o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda korreksion ishlarni olib borish orqali yozma nutqdagi buzilishlarni bartaraf etishning ilmiy-metodik asoslarini yaratish o‘zbek defektologiyasi oldidagi dolzarb muammolardandir.

Har bir bola alohida rivojlanish xususiyatiga ega. O‘qish va yozuvida kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilar umumiy tekshirilganda, ularning ko‘pchiligida nerv sistemasining buzilishi kuzatilgan. Keyingi yillarda asab kasalligi bilan tug‘ilayotgan bolalar soni ko‘payib bormoqda.

Nevrologik simptomlarga quyidagilarni kiritish mumkin:



Shuni inobatga olish lozimki, yuqorida ko‘rsatilgan belgilar rivojlanishning meyoridan chetlashuviga to‘liq sabab bo‘lmaydi. Bunday belgilar miyaning sust rivojlanishi sifatida ma‘lum. Bu belgilar bola ta‘lim olishni boshlaganda, uning nerv sistemasiga katta hajmda yuklama tushganda namoyon bo‘ladi.

Yozma nutqni egallash nutq-eshituv, nutq-harakat, umumiy harakat analizatorlari hamda fazoviy qabul qilish, ko‘rish xotirasi kabi psixik funksiyalar bilan bog‘liq. Odatda ushbu funksiyalarning o‘zaro bog‘lanishi 7 yoshga kelib shakllanadi.

Maktab dasturini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar sababini bilish, aniqlash, farqlash uchun bolaning maktabga tayyorligi nimalardan iborat ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘lish kerak. Tibbiyot va psixolog olimlar quyidagi tayyorgarlik darajalarini ko‘rsatadilar:



***Bolaning jismonan tayyorligi:*** vazni, bo‘yi, jismonan baquvvatligi, muskullar tonusi, ko‘rish, eshitish, umumiy harakat, ayniqsa mayda qo‘l motorikasi, ya‘ni barmoqlar harakati (qalam – ruchkalarni to‘g‘ri ushlash uchun) bilan ko‘rishning bog‘liqligi, nerv sistemasi holati, qo‘zg‘aluvchanlik va tormozlanishning meyordaligi, diqqatni jamlay olishi, aqliy ish faoliyatining meyorida rivojlanganligi;



Intellektual tayyorligi: lug‘at boyligining kengligi, bilish jarayonlarning rivojlanish darajasi (diqqati, xotirasi, ko‘rish-fazoviy qabul qilish, tasavvuri, nutqi), berilgan vazifani mustaqil bajara olishi, bajaradigan ishni rejalashtira olishi, vazifani talab darajasida bajarishi hamda o‘z kamchiliklarini topa bilishi;

Ijtimoiy-shaxsiy tayyorligi: o‘z xatti-harakatini boshqara olishi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va kattalar talabini bajarishga intilishi, ijtimoiy holatni, nima uchun o‘qish kerakligini tushuna bilishi;






Emotsional-irodaviy tayyorligi: bolaning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun o‘zini tayyorlab borishi, maqsadga yetish uchun harakat qilishi, to‘siqlarni yenga olishi, faoliyat davomida yutuq va kamchiliklarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi, kamchilik va mag‘lubiyatlardan tushkunlikka tushmasligi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar meyorida bo‘lgan bolalar maktabga qabul qilinganda qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Maktab hayotiga tez moslashadilar, ma‘lum qiyinchiliklarga duch kelganda ham ularni oson hal qiladilar.

Logopediya fanida yozma nutq buzilishi «disgrafiya» atamasi bilan belgilanib, yozuv jarayonining qisman buzilishidir. Yozuv jarayonining umuman buzilishi “agrafiya” deyiladi.

M.Ye.Xvatsev, R.Ye.Levina, R.I.Lalayeva, L.F.Sadovnikova disgrafiyani 5 turga bo‘ladilar:



**1. Artikulyator-akustik disgrafiya.** Bola tovushlarni qanday talaffuz etsa, shunday yozadi. Artikulyator-akustik disgrafiyaning asosida noto‘g‘ri talaffuz etish yotadi. Disgrafiyaning bu turida harflarni almashtirish, tashlab ketish, talaffuzi jihatidan o‘xshash tovushlarni yozuvda noto‘g‘ri yozish hollari kuzatiladi.



**2. Akustik disgrafiya.** Bu tovushlarni farqlashning buzilishi asosida kelib chiqadigan disgrafiya. Fonematik, yani talaffuzi jihatidan yaqin tovushlarni yozuvda almashtirish kuzatiladi. Bunday holatlarda og‘zaki nutqda tovushlar to‘g‘ri talaffuz etiladi. Ko‘p hollarda tovushlarni bildiruvchi harflar almashtiriladi: sirg‘aluvchi va shovqinli, jarangli va jarangsiz, affrikat tovushlar va ular tarkibiga kiradigan komponentlar (ch-t, ch-sh, sh-c). To‘g‘ri yozish uchun fonemalarni o‘zlashtirish va farqlash bo‘yicha barcha operatsiyalar (eshitish, idrok etish, tahlil qilish va umumlashtirish) yetarlicha shakllangan bo‘lishi zarur. Ma‘lum bir analizatorlarning (eshitish, kinestetik tahlil, mayda qo‘l motorikasi) buzilishi yozuvda harflarni ajrata olmaslikka olib keladi.



**3. Analiz va sintezning (tahlil umumlashtirishning) turli shakldagi buzilishi natijasida kelib chiqqan disgrafiya.** Disgrafiyaning bu turida analiz va sintezning turli xil buzilishlari yotadi: yani gaplarni so‘zlarga bo‘lish, bo‘g‘in va tovushlarni tahlil qilishdagi kamchiliklar kuzatiladi. Til tahlili murakkab shakli fonematik tahlil hisoblanadi. Disgrafiyaning bu turida so‘z tarkibining tovush-harf buzilishi ko‘p kuzatiladi. Quyidagi xatolar ushbu disgrafiya uchun xosdir: ketma-ket kelgan undoshlarda bitta undoshni tushirib qoldirish (maktab-matab); unlilarni tushirib qoldirish (uzum-uzm); harflarning o‘rnini almashtirish (olma-omla); bo‘g‘inlarni tashlab ketish (jo‘xori-jo‘ri). Gaplarni so‘zlarga ajratib yozishda quyidagi xatolar kuzatiladi: so‘zlarni qo‘shib yozish (kuz keldi-kuzkeldi); so‘zda o‘zak va qo‘shimchalarni alohida yozish (yoshlar-yosh-lar).

**4. Agrammatik disgrafiya.** Agrammatik disgrafiya nutqning grammatik qurilishidagi buzilishlarni bildiradi. Bunda morfologik, sintak-




tik umumlashtirishlarda yozma nutq buzilishlari kuzatiladi va ular agrammatizmlar deb ataladi. Bu turdagi disgrafiyada xatolar so‘z darajasida, gaplarda, lug‘at va grammatik buzilishlarda kuzatiladi. Ushbu disgrafiya dizartriya, alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan o‘quvchilarda uchraydi. O‘quvchilarning bog‘langan yozma nutqida matn mazmunidagi ketma-ketlik bilan yozuvdagi ketma-ketlik buzilgan bo‘ladi. Yozuvda agrammatizmlar quyidagi holatlarda kuzatiladi: kelishik qo‘shimchalarini o‘zgartirish (mening kitobim – “meni kitobim”), so‘zda qo‘shimchalarni noto‘g‘ri ishlatish (stol ustida turibdi – “stol ustiga turibdi”), ko‘plik qo‘shimchalarini noto‘g‘ri ishlatish (bolalar – “biz bola”), gapda so‘zlarning ketma-ketligining buzilishi (bolalar bog‘da sayr qildilar – “bolalar sayr bog‘da qildilar”).




**5. Optik disgrafiya** ko‘rish gnozisi, analiz va sintezining rivojlanmaganligi, fazoviy tasavvurlarning yetishmasligi hamda yozuvda harflarni buzib va almashtirib yozishda namoyon bo‘ladi. Ko‘p hollarda yozma harfdagi grafik jihatidan o‘xshash harflar almashtiriladi (b-d, g-g‘, m-n, sh-ch) harflarni oynali yozish. (c-o y-v), harflarni qo‘shib yozishda elementlarni tashlab ketish (*ay-aj*; *mi-ni*), qo‘shimcha elementlarni yozish. Optik disgrafiyada oynali yozish ham kuzatiladi. Oynali yozish chapaqaylarda, shuningdek, miyaning organik buzilishlari paytida kuzatiladi.

Nutq kamchiligi tuzilmasida yozuvida kamchiliklari bo‘lgan o‘quvchilarning aqliy xatti-harakatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini amalda qo‘llash yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tilga oid bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini tashqi predmetli xatti-harakatlarni ichki, aqliy, psixik xatti-harakatlarga bosqichma-

bosqich aylantirish jarayoni sifatida boshqarish lozim, xatti-harakatlar esa har qanday faoliyatning asosiy elementlaridir.

2. Ta'lim olayotgan shaxsning tashqi xatti-harakatlari uning o'qish faoliyatining elementlari sifatida shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchi uchun o'z-o'zini nazorat qilishda ham, o'qituvchi (logoped) uchun jarayonni nazorat qilish va boshqarishda (monitoring tashkil etishda) ham ularni qadamba-qadam, bosqichma-bosqich kuzatib borish imkonini bersin.

3. Korreksion ta'lim jarayonida til sohasidagi bilimlar o'quvchi tomonidan uning o'z faoliyati tufayli o'zlashtiriladi. Bunda so'z borayotgan faoliyat pedagog tomonidan shunday tashkil etilishi va boshqarilishi kerakki, o'quvchi o'ziga barcha xatti-harakatlarni to'g'ri amalga oshirish va bir paytning o'zida o'zining har bir xatti-harakatini yo'l-yo'riq ko'rsatadigan dastur bilan solishtirgan holda nazorat qilishga imkon beradigan aniq tushunchaga ega bo'lsin. Har qanday ta'limning, shu jumladan, korreksion ta'limning maqsadi muayyan faoliyatni o'rganish bo'lmog'i lozim.

Bilimlar esa mana shu maqsadga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bizning misolimizda bu maqsad orfografik jihatdan savodli yozish malakasini egallashdan iborat bo'lib, tegishli qoidalarni bilish esa bu maqsadga erishish vositasidir, **yozuv bir qator maxsus operatsiyalarni o'z ichiga oladi.**

1. Yozilishi lozim bo'lgan so'zning tovush tuzilishini tahlil qilish. Bunda dastlabki shart – tovushlar ketma-ketligini aniqlash, ikkinchisi – tovushlarni aniqlashtirish, ya'ni eshitilayotgan tovush variantlarini aniq umumlashtirilgan nutq tovushlari – fonemalarga aylantirish. Ushbu akustik tahlil va umumlashtirish operatsiyalari artikulyatsiya yordamida kechadi.

2. Fonemalar – eshitilayotgan tovushlarni grafemalar – yozuv belgilariga o‘tkazish. Bunda grafemalar elementlarining fazoviy joylashuvi hisobga olinadi.

3. Ko‘rish sxemalarini yozish uchun zarur bo‘lgan izchil xatti-harakatlar kinetik tizimiga “qayta shifrlash”.

Yuqorida sanab o‘tilgan operatsiyalar orfografiyaning fonetik tamoyilining amalga oshirilishiga taalluqlidir.

Ma‘lumki, orfografik qoidalarda so‘zlarning fonetik, grammatik va leksik belgilari umumlashtiriladi. Orfogramma xususiyatini hisobga olgan holda orfografik malakalar quyidagicha tasniflanadi:

a) so‘z hosil qilish asosida shakllanadigan malakalar (so‘z o‘zaklari, qo‘shimchalar);

b) morfologik-sintaktik asosda shakllanadigan malakalar (qo‘shimchalar imlosi).

Har ikki holda ham to‘g‘ri yozishni o‘zlashtirishda fonetik, leksik va grammatik bilimlar, ko‘nikmalar o‘rtasida yaqin aloqa bo‘lishi zarur. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, bu borada bilimlarning o‘zi yetarli emas, balki muayyan til masalasini hal qilishda bir sohadagi bilimlarning kerakli miqdorini boshqa sohadagi tasavvurlar bilan bog‘lay olish qobiliyati ham muhimdir.

Shunday qilib, orfografik ko‘nikma (malaka) ko‘plab mashqlar jarayonida shakllanadigan hamda oddiy ko‘nikmalarga asoslangan murakkab nutqiy malaka sifatida ishlab chiqilishi lozim. Oddiy ko‘nikmalar deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- harflarni fikrni jamlamay, avtomatik tarzda yozish;
- so‘zni fonetik jihatdan tahlil qila olish (maqsadga yo‘naltirilgan tovush-harf va bo‘g‘in tahlili);
- so‘zning morfem tarkibini aniqlab, undan orfogrammani (ya‘ni tekshirishni yoki lug‘atga murojaat qilishni) ajratib ola bilish;
- orfogrammaga tegishli qoidani topa bilish.

Orfografik qoidalarni qo‘llashda o‘quvchi amalga oshiradigan aqliy faoliyatning ketma-ketligi nuqtai nazaridan orfogrammaning barcha belgilari uchta guruhga bo‘linadi:

a) aniqlash belgilari. Unga ko‘ra o‘quvchi kerakli orfogrammani ajratib oladi;

b) saylanma belgilar. Ularni aniqlab olgach, o‘quvchi ushbu holatga qanday orfografik qoida to‘g‘ri kelishini aniqlaydi;

v) yakuniy belgilar. Ularning yordamida o‘quvchi tegishli orfografik qoidani berilgan so‘zga tatbiq etadi.

O‘quvchilarning ona tili ta‘limi sohasi bo‘yicha tayyorlik darajasiga qo‘yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezon orqali aks ettiriladi:

a) o‘qish texnikasi;

b) o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash;

v) fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

4. Ma‘lumki, yozma nutqida kamchiliklari bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishning muvaffaqiyati bola yozuvi va boshqa funksiyalari qanchalik to‘liq tekshirib chiqilganiga, tekshirish paytida olingan ma‘lumotlar qanchalik malakali sharhlanganiga bog‘liq. Og‘zaki – nutqiy tayyorlik o‘quvchilarning tovush talaffuzlari, lug‘ati va nutqining grammatik tuzilishi, shuningdek, o‘qish va yozish jarayonlarini tekshirish bayonnomalaridan iborat nutq kartalar bo‘yicha o‘rganildi.

Bunda quyidagi ko‘rsatmalar beriladi:

O‘ng qo‘lingni ko‘tar.

Chap qo‘ling bilan o‘ng qulog‘ingni ushla.

O‘ng qo‘ling bilan chap ko‘zingni berkit.

O‘ng qo‘lingni chap oyog‘ingga tekkiz.

Chap oyog‘ingni oldinga chiqar.

O‘ng oyog‘ingni orqaga sur.

Chap tomoningda turgan narsalarning nomini ayt.

O‘quvchilarning logopedik tekshiruvi A.V.Yastrebova, O.V.Gribova, L.R.Mo‘minovalarning umumiy o‘rta ta‘lim va maxsus maktablarda keng qo‘llanadigan metodikalari asosida olib borildi. Nutq kartalarida esa har bir bola nutqiga oid xulosalar o‘z aksini topdi. Orfografiyani va umuman yozuvni o‘zlashtirishda duch kelinadigan qiyinchiliklarning sababi xotira va diqqat ko‘rsatkichlarining pastligidadir. Optik-fazoviy gnozis va praksisni tekshirishda Xed sinovlari va fazoviy tasavvurlarning rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan vazifalardan foydalanildi.

Fazoviy gnozis va praksisning rivojlanish darajasini baholash uchun yo‘l qo‘yilgan xatolar miqdorini sanab chiqish va sinovlarning bajarilish sifatini hisobga olish lozim.

Faoliyat turi bo‘lgan savodli yozuv funksional bazisining yana bir tarkibiy qismi bu eshitish-motorika koordinatsiyasidir (tovush motorikalarini qaytadan tiklash qobiliyati). Motorikaik ketma-ketlikni qaytadan tiklay olmaslik yoki noto‘g‘ri tiklash orfografik yozuvdagi buzilishlarga moyillikning belgisi hisoblanadi. Bu ko‘proq unli tovushlarni to‘g‘ri yozishda namoyon bo‘ladi.

Eshitish-motor koordinatsiyalari darajasini aniqlashda Ozeretskiy metodikasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

**O‘quvchiga beriladigan vazifalar:**

1) **berilgan motorikaik namunani qaytarish;**

2) **ketma-ket eshittirilgan 2 ta zarblarni qiyoslash.**

Agar bola birinchi vazifani eplay olmasa-yu, ikkinchisini to‘g‘ri bajarsa, bu hol uning eshitish qobiliyati saqlangan holda motorikani qayta tiklash jarayonining o‘zi buzilganidan darak beradi (premotor buzilish turi).

Agar bola ikkala vazifani ham bajara olmagan bo‘lsa, bu holda unda, chakka buzilish turi, ya‘ni motorikalarni eshitib farqlamaslik kuzatiladi.

O‘quvchilarning orfografik yozuvni o‘zlashtirishda operatsional tayyorligi ikki omilga ko‘ra o‘rganildi: “fonetik yozuv” va “morfologik yozuv”. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, shakllangan fonetik yozuv orfografik ko‘nikmalarni egallashda asosiy shart-sharoit yaratib beruvchi vosita hisoblanadi.

Orfografik qoidalarni bilishga emas, balki so‘zlar qanday jaranglasa, ularni yozuvda xuddi shunday ifodalanishiga asoslangan fonetik tamoyilni o‘zlashtirish uchun ham bir qator shart-sharoitlarning bo‘lishi talab qilinadi. Ularning asosiysi so‘zlarning tovush-harf tahlilini olib borishning mustahkamlangan malakasiga ega bo‘lishdir. Bu malakaning yo‘qligi yoki yetarli darajada shakllanmaganligi disgrafik xatolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Buni A.R.Luriya va M.Ye.Xvatsev ham ko‘rsatib o‘tgan edilar.

So‘zlarni ona tili orfografiyasining fonetik tamoyillariga muvofiq yozish sifati o‘quvchilarning fonetik-fonematik ko‘nikmalari darajasi bilan belgilanadi. Garchi yuqorida aytib o‘tilgan holatlar rus tili grammatikasiga asoslangan bo‘lsa-da, biroq tajriba shuni ko‘rsatdiki, ushbu disgrafik xatolar o‘zbek tili orfografiyasiga ham xos bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning orfografik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida ko‘p kuzatiladi.

“Fonetik yozuv” omili bo‘yicha operatsional tayyorlikni aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tekshiruv diktanti o‘quvchilarga dasturda ko‘zda tutilgan talablarga muvofiq yozdirildi.

**Tekshiruv diktanti:**

Maqsad: orfografiyaning fonetik tamoyiliga mos holda o‘quvchilarning so‘zlarni eshitib yozish malakalarini aniqlash.

Diktant avvaldan tayyorgarliksiz, aniq artikulyatsiya mashqlarisiz, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy murakkabliklar tahlil qilinmay turib o‘tkazildi. Har bir o‘quvchi diktant matnini to‘liq hajmda yozib olish imkoniga ega bo‘lishi uchun matn sal sekinroq sur‘atlarda o‘qildi. Bilimlar darslarda o‘tilgan va ishlangan materiallarga nisbatangina tekshirildi. Har bir o‘quvchining umumiy tayyorlik darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha olinandi:




Bu borada diktantlarda aniqlangan quyidagi xatolar eng ko‘p tarqalgandir.




Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining orfografik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda “morfologik yozuv” omili bo‘yicha operatsional tayyorligini o‘rganishda tilga oid materialni amalda qo‘llashga oid bilimlar va malakalarni tasniflash, umumlashtirish, ona tili kursi bo‘yicha nazariy materialni o‘zlashtirish jarayoni operatsional tayyorlik tarkibiga kiradi.

Boshlang‘ich sinfda turg‘un disgrafiyaga ega bo‘lmagan o‘quvchilarida fonetik-grafik xatolar kuzatilmaganiga qaramay, orfografik ko‘nikmalar shakllanishida va ulardan amalda foydalanishda qiyinchiliklar kuzatildi.



O‘quvchilarda disgrafiyaning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarining maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Kognitiv-amaliy funksiyalarni shakllantirish. Kognitiv funksiyalar korreksiyasi va ularning muvofiqlashtirilishi (ko‘rish gnozisi, tahlil, optik-fazoviy gnozis va praksis, nutqiy-ko‘rish, nutqni idrok etish va qayta tiklash funksiyalari, ko‘rish va eshitish xotirasini rivojlantirish).

2. Nutqni sensor-perseptiv darajada idrok etishni, eshitib idrok etishni rivojlantirish. Fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan ish qachon olib borilishi kerak? Bunday ish bola talaffuzida buzilishlar va tovush almashtirishlar kuzatilganda olib boriladi. Bunday hollarda logopedik ish avvalambor nutqni idrok etishda sensor-perseptiv darajani rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

3. Til tahlili. Kuzatuvchi eksperiment natijalarini hisobga olgan holda gapdagi so‘zlar tahlili va sintezi, bo‘g‘inlar tahlili va sintezi, fonematik tahlil va sintezini shakllantirish zarurligi haqida xulosa qilish mumkin. Bu ish ham bosqichma-bosqich olib borilishi kerak.

4. Grammatik tuzilishdagi buzilishlarni korreksiyalash. Bu ishning mundarijasini ham nutqida kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilar yozma nutqining grammatik tuzilishiga oid tajriba-sinov ishlari davomida olingan ma‘lumotlar belgilaydi. So‘z o‘zgarishi paradigmatik tizimining rivojlanishi quyidagilarni ko‘zda tutadi: so‘zning grammatik ma‘nosini aniqlash; grammatik ma‘noning morfema vositasida shakllantirilishi; eshitish va kinestik obrazlar, so‘z shakllarining morfologik tarkibini faollashtirish.

5. Lug‘atni rivojlantirish. Korreksion-logopedik ta‘sir ko‘rsatish jarayoni bu o‘rinda o‘quvchilarning so‘z ma‘nolarini tushunish qobiliyatini takomillashtirish, so‘z ma‘nolarini aniqlashtirish, so‘zlarning to‘g‘ri va ko‘chma ma‘nolari to‘g‘risida turli tasavvurlarni shakllantirish, so‘zning leksik tuzilishini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

6. Orfografik qoidalarni qo‘llash jarayonida shakllantirilgan psixologik shart-sharoitlar integratsiyasi: u orfografik xatti-harakatlar algomotorikai asosida tuzilishi ko‘zda tutiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi tekshirish ishlari olib boriladi:




Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutq kamchiliklarini tekshirishda ona tili fani talab qilinadigan qonun qoidalar inoabtga olinadi. Tekshirish ishlari bosqichma bosqich olib boriladi. Bolallardagi yozuv kamliklarini tekshirishda bolaning bilish darajalari inobatga olinadi. Agar bola diktant yozishni bilsa u holda logoped diktant yozish orqali yozuv kamchiliklari aniqlanadi. Diktant yozish malakasiga ega bo‘lmasa, unda harf, bo‘g‘in, so‘z va gaplarni yozdirish orqali tekshirish mumkin bo‘ladi.

***Mavzu yuzasidan savollar:***

1. Yozma nutqning nazariy asoslari haqida gapiring.

2. Yozma nutqni o‘zlashtirishda ta‘sir etuvchi omillar nimalardan iborat.

3.Yozma nutq kamchiliklarining turlariga misollar keltiring.

4. Yozma nutqni tekshirish ishlari haqida gapiring.

***Mustahkamlash uchun topshiriqlar:***

1. O‘zingiz qiziqqan soha bo‘yicha esse yozing.
2. Yozma nutq kamchiliklari turlari bo‘yicha logopedik klaster tuzing.
3. Yozma nutq buzulishini boshqa nutq kamchiliklarida qanday namoyon bo‘lishi to‘g‘risida ma‘lumotnoma yozing.
4. Logopedik nutq nuqsonlari haqida yozma piramida tuzing.
5. Yoshi kattalarda uchraydigan orfografik xatolar haqida gapiring va misol keltiring.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**


1. M.Y.Ayupova “Logopediya”. Toshkent, 2007 yil, 463 b.
2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.
3. Qodirova F.U. “Texnologiya 4”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
4. Qodirova F.U. “Texnologiya 3”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
5. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya // O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2021, 140 b.
6. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.
7. Dehqanova M.G‘., Tag‘onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o‘ziga xos xatoliklarni paydo bo‘lish mexanizmi // “Yangi O‘zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar” mavzusidagi

Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022. 405 – 407 b.

8. Dehqanova M.G‘. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // NeuroQuantology, 2022. Vol. 20, pp. 1 – 9.



## Nutqning prosodika tomoni tekshirish texnologiyasi

**Reja:**

1. Prosodika tarkibi.
2. Ovoz va ovozni tekshirish ishlari.
3. Nutqiy nafas va tekshirish ishlari.

**Tayanch iboralar**

❖ **Diksiya** – (lotin. Talaffuz.) – So‘zlarni aniq, ravshan talaffuz etish, so‘zlash usuli.

❖ **Intonatsiya** – (lot. Baland talaffuz qilaman) – nutqning ohangi, kuy manbai, tovushning navbatma navbat ko‘tarilishi.

❖ **Pauza** – (yunoncha. to‘xtash, tugash) musiqa asari ijrosida bir necha, ba‘zan barcha ovozlarning muayyan vaqt to‘xtalishiga sabab bo‘ladi.

**Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning prosodik tomonini tekshirishda quyidagi tarkiblardan foydalangan holda ishlar olib boriladi:**

- Nutqiy nafas
- Diksiya
- Intonatsiya
- Urg‘u berish
- Ovoz

1) Ovoz kuchi

2) Ovoz balandligi
3) Ovoz tembri
4) Ovoz toni
5) Ovozning ko‘tarlish, o‘sishi
6) Ovoz modulyatsiyasi

- Pauza
- Nutq motorikai
- Nutq tempi
- Nutq melodikasi

***Prosodikaning asosini intonatsiya tashkil qiladi.***

Maktabgacha yoshdagi bolalarda prosodikani tekshirishda quyidagi dastur asosida ish tashkil qilinadi:

✓ Motorikani qabul qilishni tekshirish;
✓ Motorikani ijro qila olishni tekshirish;
✓ Intonatsiyani qabul qilishni tekshirish;
✓ Mantiqiy urg‘u berishni tekshirish;
✓ Ovoz balandligi modulyatsiyasini tekshirish;
✓ Tembrni qabul qilishni tekshirish;
✓ Nutqiy nafasni tekshirish;
✓ Nutqning temp motorikaik tomondan tekshirish;
✓ O‘zini nazorat qilish orqali eshitish holatini tekshirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab yoshidagi bolalar ovozini rivojlantirish, chuqur nafas olish, uzoq nafas olish, qisqa nafas olish, ovoz kuchi, undan to‘g‘ri foydalanish, rivojlantirilgan nafas va ovozni so‘z va iboralarda mustahkamlash ishlari olib boriladi:

❖ Ma‘lum bir ovoz turlarining buzilishini bartaraf etish uchun davolash ishlari bilan birga logopedik mashg‘ulotlarni olib borish;

❖ Artikulyatsion organ va nafas ustida to‘g‘ri va aniq ish olib borish, ovoz un paychalarining rivojlanishiga zamin hisoblanadi;

❖ Butun nutq apparatini mashq qilib bo‘lgach, ehtiyotkorlik bilan ovoz fonatsiyasiga o‘tiladi;

❖ Ovoz gigiyenasi haqida to‘g‘ri targ‘ibot ishlarini olib borish lozim;

❖ Mutaxassislar prafilaktika qilish jarayonida bolalar ovozini saqlashni ham inobatga olish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish uchun quyidagi ishlardan foydalaniladi:

❖ Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo‘yicha tekshirish;

❖ Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo‘yicha tekshirish;

❖ Ovozning dimog‘ (burun) tembrini aniqlash;

❖ Ovoz tembrni idrok etishni tekshirish;

❖ Ovoz tembrini qaytarishni tekshirish;

❖ Nutqiy nafasni tekshirish.

Ovoz – bu insonning ovoz apparati hosil qiluvchi turli tovushlar yig‘indisidir. Ovoz nutqiy, kuylovchi va shivirlovchi bo‘ladi. Inson baqirishi, ingrashi, turli tovushlarda taqlid qilishi mumkin.

Ovoz nutqning ifodaliligi, emotsianalligi va mazmuni ahamiyatini ta‘minlovchi vositalardan biri bo‘lib, u nutqning eshitilishini ta‘minlaydi. Shu sababli, ovoz buzilishlari natijasida bolaning nutqida kamchilik kuzatiladi va atrofdagilarga o‘z fikrini to‘liq bayon etishga to‘sqinlik qiladi.

Ovoz tebranishini baland-pastligi bo‘yicha tekshirishda bola o‘z ovozini qanchalar boshqara olishini, uni baland-pastligi bo‘yicha o‘zgartira olishni, ovoz diapazoni qanchalik keng ekanligini aniqlash uchun muhim.

Ovoz tembri og‘iz – burun – hiqildoq rezonatorining faoliyatiga, tuzilishiga va funksiyasiga bog‘liq.



Fonatsiya jarayonida hiqildoq va bo‘g‘iz o‘rtasida, yumshoq tanglay va bo‘g‘iz o‘rtasida yaqin funksional aloqa mavjud bo‘ladi. Yumshoq tanglay holatining bir ozgina o‘zgarishi ham reflektor ravishda un paychalari holatining o‘zgarishiga olib keladi. Yumshoq tanglay retseptorlari boshlang‘ich maydon bo‘lib, ovoz apparatining qo‘zg‘ash va fonatsiya jarayonida shu retseptorlardan boshlanadi.

Og‘iz – burun – hiqildoq rezonatrining barcha qismlari o‘zaro muvofiq holda ishlaganida ovoz jarangli, tekis, aniq, mustahkam, egiluvchan va chidamli bo‘ladi.

Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo‘yicha tekshiriladi.

Buning maqsadi – bola ovoz balandligi kuchini o‘zgartira olish ko‘nikmasini aniqlash hisoblanadi. Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo‘yicha tekshirish, bola ovoz kuchini, balandligini qanday o‘zgartira olishini aniqlash uchun muhimdir.

Ovoz tembrini dastlabki subyektiv baholash bola bilan muloqat o‘rnatish maqsadida ilk bor muloqat o‘rnatish chog‘ida amalga oshiriladi. Ovoz tembrini tadqiq qilish va baholash uchun Ye.S.Almazova tomonidan ishlab chiqilgan tembrini baholash shkalasidan foydalaniladi.

Giponazalizatsiyani aniqlash. (Giponazalizatsiya – havo oqimining dimoqdan chiqishning kamayishi). Giponazalizatsiya chog‘ida <m>, <n> tovushlari bola nutqida <b> <d> tarzida jaranglaydi. Gipernazalizatsiya chog‘ida dimoqlashuv, <m> va <n> undosh tovushlaridan tashqari yana unli tovushlarda ham uchraydi.

Ovoz tembrini idrok etilishini tadqiq qilishda ovoz toni jaranginin xarakterini eshitish orqali aniqlay olish ko‘nikmasi baholanadi.

Nutqiy nafasni tadqiq etish nafas olish va nafas chiqarishni baholashdan boshlanadi. Bola nafasining xarakteri tinch holatda va nutqiy

holatda aniqlanadi. Bola tinch turganda ko‘rish orqali nafas xarakteri aniqlanadi: bola burun bilan nafas olyaptimi yoki og‘iz bilanmi.

**3 turdagi nafas ajratiladi**:

- yuzak nafas;
- ko‘krak bilan nafas olish;
- qovurg‘alardan pastda nafas olish (qorin bilan nafas olishi).




Yuzaki (o‘mrovli) nafasda nafas olganda qorin ichga tortiladi, yelkalar esa yuqoriga ko‘tariladi. Ko‘krak nafasida – nafas olish chog‘ida ko‘krak kengayadi. Qovurg‘alararo (diafragmal), nafasda – nafas olish chiqarish chog‘ida esa qorin torayib, ichkariga kiradi. Qovurg‘alar osti nafasi – diafragmal nafas nisbatan fiziologik hisoblanadi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqiy nafasni tekshirishda quyidagilar inobatga olinadi:

✓ Nafas turini aniqlash.

✓ Burun va og‘izdan nafas olishni ajrata olish malakasini tadqiq etish.

✓ Havo oqimining yo‘naltira olinishini tadqiq etish.

✓ Hova oqimi kuchini tadqiq etish.

✓ Talaffuz nafasi xususiyatlarini tadqiq etish.

**Mustahkamlash uchun testlar:**

**1. Eshitish-motor koordinatsiyalari darajasini aniqlashda qaysi olimning metodikasini qo‘llash maqsadga muvofiq boladi?**

A) Xvatsev;

B) Ayupova;

C) Livina;

D) Ozeretskiy.

**2. Nutqning porosodik tomonini tekshirishda nimalarga ahamiyat qaratiladi?**

A) Prosodika tarkibi;

B) Ovoz va ovozni tekshirish ishlari;

C) Nutqiy nafas va tekshirish ishlari;

D) To‘gri javob berilmagan.

**3. Prosodikaning asosini nima tashkil qiladi?**

A) intanatsiya;

B) pauza;

C) tembr;

D) ohang.

**4. Ovoz tembrini tadqiq qilish va baholash uchun qaysi olim tomonidan ishlab chiqilgan tembrini baholash shkalasidan foydalaniladi?**

A) Avezova;

B) Almazova;

C) Livina;

D) Kulakova.

**5. Duduqlanish bu –**

A) nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishi natijasida sur‘at ohangining buzilishidir;

B) nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog‘liq holdagi buzulishdir;

C) tovush tembri va talaffuzning nutq apparatidagi anatomik fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzulishdir;

D) nutqning to‘liq rivojlanmaganligi.

**6. Dizartriya bu –**

A) nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog‘liq holdagi buzulishdir;

B) nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishi natijasida sur‘at ohangining buzilishidir;

C) tovush tembri va talaffuzning nutq apparatidagi anatomik fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzulishdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. M.Y.Ayupova “Logopediya”. Toshkent, 2007 yil, 463 b.

2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.

3. Qodirova F.U. “Texnologiya 4”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.

## Turli nutq buzilishlarida umumiy, mayda motorikani tekshirish texnologiyasi

Psixomotor rivojlanishi nisbatan me'yorda bo‘lgan bola bir necha bosqichni o‘taydi. Psixomotor rivojlanish predmetlar bilan maxsus bo‘lmagan manipulyatsiyadan boshlanadi va maqsadli yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan anglash hamda harakat yordamida haqqoniylikning bunyodga kelishi deb tushuniluvchi aqlli, anglangan faoliyatgacha davom etadi. Anglangan faoliyat shaxsiy tajribada bilib olgan predmetlar va ko‘rinishlarning muayyan miqdoriga, motorikani takomillashtirmaydigan va atrofdagi borliq ko‘rinishlariaro sabab-oqibatli aloqalarni bilishga tayanadi. Shaxsning psixomotor rivojlanishi jarayonida ongli faoliyatga bola rivojlanishi va faoliyatini takomillashtiruvchi ikkinchi signal tizimi qo‘shiladi.

Har bir harakat ma’lum bir motorikada sodir etiladi. Motorika (ohang) tushunchasi keng qamrovga ega va she'rga, proza, yurak nafas olish, tabiat, ish va h.k. larga nisbatan qo‘llaniladi. Motorika universal kosmik kategoriya sifatida ham yuzaga chiqadi. «Makon va vaqt mangu motorika qonuniga bo‘ysunuvchi materiya bilan to‘ldirilgan”, – deb yozgandi E.Jak-Dalkroz.

Motorikaning barcha ko‘rinishlariga mos tushadigan ta’rifini topish mushkul. “Motorika” tushunchasi ko‘pincha ko‘rinishlarning vaqtda almashinishi xususiyatlari bilan bog‘liq, biroq makon san’ati – balet, rassomlik, qaykaltaroshlik, arxitekturaga nisbatan “makon motorikai” qaqida qam gapirish mumkin.

Motorikaning asosiy belgisini birmuncha kamroq yoki ko‘proq takrorlashning qat'iy davriyligida ko‘rish qabul qilingan. Biroq vaqtinchalik san’atlarda, ya’ni “motorika” tushunchasi birmuncha yuqori rol o‘ynaydigan joyda bu belgi yo‘q bo‘lishi mumkin, masalan, spektakl,

proza motorikai, ba’zida musiqa motorikai takrorlanishning davriyligi bilan xarakterlanmaydi.

Motorika ko‘p narsani o‘z ichiga oladigan tushuncha sifatida faqat bitta, noaniq belgisi bilan farqlanadi: bu predmetlar, ko‘rinishlar, jarayonlarning vaqtinchalik yoki makoniy tartibi. Psixolog B.M.Teplov motorika ba’zi bir muayyan jarayonni vaqtda tashkil etish deb qisoblaydi. Motorika bir-birining ketidan keluvchi u yoki bu guruh vaqt qatorining ba’zi bo‘linishlarini zaruriy shart sifatida ko‘zda tutadi. Motorika haqida faqatgina bir tekisda ketma-ket keluvchi qo‘zqatuvchilarning ma’lum bir guruhlarga bo‘linganidagina gapirishimiz mumkin, shu bilan birga, guruhlar bir xil (2 – 3 a’zodan va h.k.) yoki bir xil bo‘lmasligi qam mumkin. Biroq har qanday guruh va vaqt qatorining bo‘linish ham motorikani hosil qilmaydi. Motorika guruhning, albatta, umuman motorikaning majburiy sharti urg‘uning mavjudligi, ya’ni birmuncha kuchli va qandaydir ajralib turadigan qo‘zqatuvchiga munosabat hisoblanadi. Urg‘usiz motorika yo‘q. Shunday qilib, motorika urg‘u atrofida birlashuvchi guruhlarda qo‘zqatuvchining vaqtinchali ketma-ketligidagi qonuniy bo‘linmasidir.

Motorikani psixologik va pedagogik fanlar nuqtai nazaridan aniqlash mumkin. Psixologik aspektda motorika – bu metromotorika yoki shu so‘zni keng olganda motorika. Masalan, metronomni tinglab odam bir xil ovozlar ketma-ketligini guruhlarga bo‘ladi, bunda u alohida tovushlarga urg‘u beradi, ya’ni ularni birmuncha baland ovozlarga ajratadi.

O‘ziga xos “motorikani boshdan kechirish” yoki sub’ektiv motorikaikalashtirish tuqiladi. Sub’ekti motorikaikalashtirishni sekinla-tishning chegarasi Bolton bo‘yicha (1894) – bir daqiqada 38 ta udar, Setson bo‘yicha – daqiqasiga 40 – 20 udar, sub’ektiv motorika ikalashtirishning tezligi chegarasi Bolton bo‘yicha – bir daqiqada 520 ta udar, Setson bo‘yicha – daqiqasiga 240 – 280 udar. Sub’ekti motori-

kaikalashtirish uchun birmuncha qulay tezlik daqiqasiga 100 udardan 200 udargachani tashkil etadi. Sub'ektiv motorikaikalashtirish agar tezlik 30 dan kam va daqiqasiga 500 udardan koʻp boʻlsa boshlanmaydi.

Bu raqamlar pedagogik qiziqish uygʻotadi, chunki ular motorikaik jihatdan oxirgi harakatlar qaysi tezlikda oson qabul qilinishini koʻrsatadi.

Pedagogik aspektda motorikaika (grekcha rhythmikos soʻzi motorikaga taalluqli, ravon, bir me’yordagi kabi ma’nolarni beradi) – bu harakatning musiqa bilan bogʻliqlikda qurilgan jismoniy mashqlar tizimi. Motorika, ayniqsa, bola yoshida jismoniy va badiiy tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. U bolalarning uygʻunlashgan jismoniy rivojlanishiga, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, harakat aniqligining rivojlanishiga yordamlashadi, bolalarni musiqa, raqs, qoʻshiq bilan tanishtiradi, harakatda musiqiy asarning xarakteri va jadalligini aks ettirishga oʻrgatadi. Motorika mashgʻulotlarida sakrash, oʻyinli mashqlar, yugurish, badiiy gimnastika elementlari, raqsli va imitatsiyali harakatlardan foydalaniladi.

Motorika qissi oʻz asosida motorli, faol tabiatga ega va motorli reaktsiya bilan olib boriladi. Bu reaktsiyalarning mohiyati motorikani qis qilishda koʻp obrazli kinestetik qislarni uygʻotishdan iborat. Bu til, miya, jaq, oyoq barmoqlari muskullarining qisqarishi, qiqildoq, miya, koʻkrak qafasi va qoʻl-oyoqda vujudga keladigan kuchlanish, bosh va nafas muskulaturasining boshlangʻich qisqarishi va nihoyat, organning makoniy holatini oʻzgarishsiz kuchlanish va boʻshashish fazalarining almashinuvini chaqiruvchi bir-biriga qarama-qarshi (bukuvchi va rostlovchi) muskullarning bir vaqtni oʻzida ragʻbatlantirilishidir.

Birmuncha faol motor reaktsiyalari urgʻuni anglashda koʻzga tashlanadi. Bunda harakat haqqoniy va faraz qilingan boʻlishi mumkin. haqqoniy harakatlar boshlangʻich va toʻliq sifatida namoyon boʻladi. Boshlanqich harakatlar tovush burmasidagi va tovush apparatining yordamchi qismlari, shuningdek, barmoq muskullari, lab va boshqa muskullar innervatsiyasi oqibatida yuzaga keladi.



Boshlang‘ichda bo‘lgani kabi to‘liq harakat ham anglanmagan bo‘ladi: odam o‘zi sezmagan qolda oyoqi yoki qo‘li bilan chertib maqomga soladi. Faraz qilingan harakat tashqi tomondan ko‘rinmaydi, eshituvchi uni xayolan tasavvur qiladi.

E.Jak-Dalkrozning tasdiqlashicha, qar qanday motorika harakat demakdir va motorika hissining vujudga kelishi hamda rivojlanishida bizning butun vujudimiz ishtirok etadi. U motorikani badanda his qilmay turib musiqiy motorikani qabul qilish mumkin emas, deb hisoblaydi. Musiqa doimo hissiy mazmunni ifodalaydi, motorika esa musiqaning ta’sirli vositalaridan biri qisoblanadi. Albatta, musiqiy motorika qam ba’zi bir hissiy mazmunni ifodalash hisoblanadi va motorli qamda hissiy tabiatga ega. Musiqasiz musiqiy motorika tuyg‘si tuyilishi ham, rivojlanishi ham mumkin emas.

Motorikali tuyg‘u musiqiy-motorikali deb nomlanuvchi musiqiy motorikani tushunish bilan bog‘liq musiqani faol boshdan kechirish va vaqtinchalik musiqiy harakatni hissiy ifodalashni nozik his qilish qobiliyati sifatida xarakterlanadi.

Musiqiy-motorikaik tuyquni rivojlantirish asosida shaxsni musiqa va motorika ta’sir etishi yo‘li bilan shakllanishiga ko‘maklashuvchi musiqiy-motorika tarbiya quriladi.

Shunday qilib, musiqiy asarlar mavzulari, musiqiy o‘yinlar, harakatlarning turli-tumanligi natijasida bolalarning bilim qobiliyati, iroda sifatlari, hissiy muhitlari rivojlanadi. Musiqiy-motorikaik tarbiyaning mazmuni qo‘shiq, o‘yin, motorika mehnatli jarayon, bayramlar hisoblanadi.

Musiqiy-motorika mashg‘ulotlarda ko‘pincha mashg‘ulotdan tashqarida ham o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan harakatli o‘yinlardan foydalaniladi.

**1.** Nutq harakat jarayonlar tekshirish quyidagicha:

1) Mimik mushaklarni tekshirish.
2) Artikulyatsion apparat mushaklar holatini tekshirish.
3) Barmoqlar harakatchanligi tekshirish.
4) Umumiy motorikani tekshirish.

## Mimik mushaklarni tekshirish

1. Peshona mushaklar harakatini sifat va ko‘lamini tekshirish.
2. Ko‘z mushaklar harakatini sifat va ko‘lamini tekshirish.
3. Lunjlar mushak harakatini sifat va ko‘lamini tekshirish.
4. Yuz mimik holatlarni aniqlash.

## Artikulyatsion apparat mushaklar holatini tekshirish

Barcha topshiriqlar bir necha marta takrorlash orqali harakat yordamida bajariladi.

1. Og‘zaki ko‘rsatma orqali lablar harakatchanlgini tekshirish.
2. Pastki jag‘ harakatchanligini tekshirish.
3. Til harakatchanligini tekshirish. Avval ko‘rsatib berish orqali so‘ng og‘zaki so‘rash orqali.
4. Yumshoq tanglay harakatchanligini tekshirish.
5. Nafas olish kuchini davomiyligini tekshirish.



## Barmoqlar harakatchanligi tekshirish

1. Harakat koordinatsiyalarni statik mashqlar yordamida tekshirish (sanoq yordamida barmoqlarni turli holatda ushlab turish);
2. Harakatlar koordinatsiyasini o‘zgarishini tekshirish.

### Umumiy motorikani tekshirish

1. Harakatlarni bajarishda o‘zini nazorat qilish, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish, harakatni eslab qolishlarni tekshirish.
2. To‘xtab qolish (tormozlanish) harakatlarni tekshirish.
3. Harakatlar koordinatsiyasini statik holatda tekshirish.
4. Harakatlar koordinatsiyasini o‘zgarishini tekshirish.
5. Mo‘ljal olishni tekshirish.
6. Harakat tempini tekshirish.

### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mimik mushaklarni tekshirish usullari qaysilar?
2. Mayda matorika harakatlari nima deb ataladi?
3. E.Jak-Dalkrozn umumiy motorika haqida qanday fikrlar bildirib o‘tgan?
4. Motorika tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
5. Barmoqlar matorikasini rivojlanishiga yordam beruvchi mashqlarni ajratib ko‘rsating.

### Mustahkamlash uchun test topshiriqlari:

**1. Quyidagilaridan qaysi birlari ummiy matorikani tekshirish usullari qatoriga kirmaydi?**

A) Yumshoq tanglay harakatchanligini tekshirish;

B) Mo‘ljal olishni tekshirish;

C) Harakatlar koordinatsiyasini statik holatda tekshirish;

D) Harakat tempini tekshirish.

**2. Quyidagilar orasidan mimic mushaklarni tekshirish usulini ajrating.**

A) Lunjlar mushak harakatini sifat va ko‘lamini tekshirish;

B) Nafas olish kuchini davomiyligini tekshirish;

C) Yumshoq tanglay harakatchanligini tekshirish;

D) Harakat tempini tekshirish.

**3. Quyidagilar orasida qaysi qatorda artikulatsion organlar harakatini tekshirish usuli keltirilgan?**

A) Til harakatchanligini tekshirish. Avval koʻrsatib berish orqali soʻng ogʻzaki soʻrash orqali;

B) Harakat tempini tekshirish;

C) Lunjlar mushak harakatini sifat va koʻlamini tekshirish;

D) Nafas olish kuchini davomiyligini tekshirish.

**4. Nutq harakati jarayonlarini tekshirish nechta turga boʻlinadi?**

A) 4 ta;

B) 6 ta;

C) 3 ta;

D) 7 ta.

**5. Motorika soʻzi qanday ma’noni anglatadi?**

A) Ravon, bir me’yorda;

B) Boshqa-boshqa;

C) Harakatlar;

D) Raqs.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya // Oʻquv qoʻllanma, Toshkent, 2021, 140 b.

2. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yoʻnalishida taʻlim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.

3. Dehqanova M.G‘., Tag‘onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o‘ziga xos xatoliklarni paydo bo‘lish mexanizmi // “Yangi O‘zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar” mavzusidagi Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022. 405 – 407 b.

4. Dehqanova M.G‘. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // NeuroQuantology, 2022. Vol. 20, pp. 1 – 9 b.




## Nutqni tekshirishda neyropsixologik yondashuv

**Reja:**

1. Bolalarni neyropsixologik tekshirish ahamiyati.
2. Logopedik tekshiruvda neyropsixologik bilimlarni qo‘llash tamoyillari.
3. Sindromologik yondashuv va ta’limdagi (o‘zlashtirishdagi) qiyinchiliklarni neyropsixologik tahlil qilish.

Logoped uchun neyropsikologik usul bilan tanishish nutq etishmov-chiligi va nutqning buzilishi bo‘lgan bolalarning aqliy faoliyatining boshqa shakllarini tahlil qilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu usul quyidagilarga imkon beradi:

1. ularning asosidagi psixofiziologik xususiyatlarni aniqlash yoki boshqa qoidabuzarliklar;

2. bolalarning aqliy faoliyatining birlamchi saqlanib qolgan bo‘g‘inlari tizimini ajratish;

3. tuzatish ta’limi jarayonida bolalarga dividend yondashuvining maqbul (ya’ni nuqson tuzilishiga mos) usullarini aniqlang.

Ushbu usuldan foydalanish "murakkab funktsional tizim sifatida insonning har qanday psi-XIK faoliyatini" tushunishga asoslangan, uning amalga oshirilishi ushbu funkni sionlash tizimi bilan ta’minlashga hissa qo‘shadigan miya eritadigan apparatlarning butun majmuasi bilan ta’minlanadi" (A.R.Luriya).

Ushbu usul yordamida strukturaviy sindrom amalga oshiriladi:

- asosiy bo‘lgan buzilgan aqliy jarayonlarni tahlil qilish;

- neyropsikologik tekshirish usuli.

Ushbu usulda A.R.Luriya asosiy rolni bitta alomatni ajratish bilan emas, balki miyaning mahalliy shikastlanishlari bilan yuzaga kelgan ruhiy buzilishlarning butun simptom kompleksini tavsiflash va bunda ajratish bilan bog‘liq sifat jihatidan bir hil (umumiy) belgilarning simptom kompleksi, men ma’lum bir mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan sifat omilini tashkil qilaman:

1) "nutq-eshitish omili" (akustik gnosis, nutqni tushunish, eshitish-nutq xotirasi, eshitish nazorati, eshitish diqqat) – uning etishmovchiligi chap temporal mintaqaning (o‘ng qo‘llarda) tuzilmalariga zarar etkazilganligini ko‘rsatadi;

2) "dinamik omil" (turli xil kinestetik tashkilot aqliy operatsiyalar: vosita, nutq, aqliy) – uning zaiflashishi oldingi premotor (frontal) miya loblari etishmovchiligi, miya mintaqalarining frontotemporal shikastlanishi bilan bog‘liq;

3) dinamik praksis kasalliklariga olib keladi;

4) "fazoviy omil" (kosmosga yo‘naltirish, qurilish TIV-vizual faoliyat, hisoblash, murakkab mantiqni tushunish-grammatik tuzilmalar, vizual-fazoviy xotira) – uning qulashi parietal (harakatlarning statik bo‘lmagan tashkil etilishining buzilishi) va boshning oksipital qismlarining noqulay holati haqida gapiradi miya (fazoviy praxisning buzilishi).

"Assestiv texnologiya" – kattalar va nogiron bolalarga ularning kundalik hayotida yordam berish uchun ishlatiladigan ko‘plab yordam vositalariga murojaat qilish uchun keng qo‘llanilgan. Yordamchi texnologiyalar yuqori texnologiyalarga ega bo‘lishga hojat yo‘q. Yordamchi texnologiya juda ko‘p "texnologiyalar"ni ishlatmaydigan narsa bo‘lishi mumkin. Qalam va qog‘oz gapirishda qiyinchilikka duch kelgan odam uchun muqobil usul sifatida xizmat qilishi mumkin. Spektrning boshqa uchida assistiv texnologiya eksperimental ekzoskeletonlar va koklear implantlar kabi juda murakkab qurilmalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ushbu maqola nogiron bo‘lib yashamaydigan shaxslarga yordamchi texnologiyaga asosiy kirish sifatida qaraladi, shuning uchun biz har qanday vaziyatda ishlatiladigan har qanday yordamchi texnologiyalarni qamrab olmaymiz.

Umumjahon dizayni – nogiron va nogiron bo‘lmaganlar uchun foydali va qulay bo‘lgan narsalarni yaratish kontseptsiyasi. Veb-saytlar, ommaviy joylar va telefonlarning barchasi universal dizayn tamoyillari asosida yaratilishi mumkin. Umumjahon dizayni misolida ko‘plab shahar jabhalarida uchraydi. Rampalar odamlar yurishlarini va nogironlar aravachasini kesib o‘tishga imkon berish uchun o‘tish joyidagi chekkalarga kesiladi. Ko‘cha signallari ko‘pincha vizual signallarga qo‘shimcha ravishda, tovushlarni ishlatish, odamlar o‘zaro ko‘rishning buzilishlarini bilish uchun xavfsiz o‘tish vaqtini bilishlariga imkon beradi. Universal dizayni nafaqat nogiron kishilarga yordam beradi. Crosswalk rampalar sayohatchilarni yoki sayohatchilarni g‘ildirakli yuklarni sudrab chopayotgan oilalar uchun foydalidir.

Vizual buzilishlar juda keng tarqalgan. Darhaqiqat, 14 million amerikaliklar bir darajaga qadar vizual ziyonni boshdan kechirishadi, garchi ko‘pchilik odamlar faqat ko‘zoynaklarning yordamchi texnologiyasiga muhtoj. Uch million amerikalik ko‘zoynak bilan tuzatib bo‘lmaydigan ko‘rish qobiliyatiga ega. Ba‘zi odamlar uchun bu ularning ko‘zlari bilan jismoniy muammo emas. Disleksiya kabi ta‘lim farqlari matnni o‘qish qiyinlashtiradi. Telefonlar va planshetlar kabi kompyuterlar va mobil qurilmalar ham, ingl. Buzuqlik va nogironlik bo‘yicha nogironlar bilan yordam berish uchun ortib borayotgan innovatsion echimlar taqdim etdi.

**Displeyni o‘qiydiganlar** ekrandagi matnni o‘qigan ilovalar yoki dasturlar, odatda, kompyuter tomonidan yaratilgan ovoz bilan (bu kabi) eshitiladi. Ba‘zi ingl. Nogiron kishilar ham **brauzer ekranini yangilaydi**, bu esa kompyuterni (yoki planshet) ekranini tinch braille readoutga

aylantiradi. Hech qanday ekran o‘quvchi, na braille ekranlar panacea emas. O‘quvchilar va muqobil ekranlarda to‘g‘ri o‘qish uchun veb-saytlar va ilovalarni joylashtirish kerak.

Har ikkala Android va iOS telefonlari va planshetlarida o‘rnatilgan ekranli o‘quvchi mavjud. IOSda bu **VoiceOver** deb nomlanadi va Androidda **TalkBack** deb nomlanadi. Siz mos keladigan qurilmalarda mavjudlik sozlamalari orqali ham foydalanishingiz mumkin. (Agar bu qiziqishni yoqsangiz, uni o‘chirishga urinib ko‘rishingiz mumkin.) Kindle Firening ichki ekranli o‘quvchilariga **"Touch to Explore"** deb nom **berishadi.**

Sensorli ekranli smartfonlar va planshetlar ko‘rish nogironlari uchun qiziqarli tanlov bo‘lib tuyulishi mumkin, ammo ko‘pchilik odamlar turar joy sozlamalari bilan foydalanishni osonlashtiradi. Umuman, ekrandagi sobit joylarda bir xil intervalgacha dasturlarga ega bo‘lish uchun ikkala iOS va Androidda asosiy ekranni o‘rnatishingiz mumkin. Bu shuni anglatadiki, barmog‘ingizni ekranning to‘g‘ri joyiga tegizishingiz mumkin. Talkback yoki VoiceOver yoqilganda, ekrandagi tugmachani bosib o‘tgan narsangiz atrofida odatiy maydon hosil qiladi (bu kontrast rangda ko‘rsatilgan). Telefon yoki planshet kompyuterning ovozi "OK tugmasini" bosgan narsangizni qayta o‘qiydi va siz tanlaganingizni tasdiqlash uchun yana bir marta bosasiz yoki uni bekor qilish uchun boshqa joyga teging.

Ish stoli va noutbuklar uchun keng ekranli o‘quvchi mavjud. Apple VoiceOver‘ni barcha brauzerlarda yaratdi va Brayl displeylariga chiqdi. Uni maxsus imkoniyat menyusi orqali yoqing yoki F5 buyrug‘ini bosib o‘chirib qo‘yishingiz mumkin. TalkBack va VoiceOver telefonlaridan farqli o‘laroq, bu xususiyatni yoqish va o‘chirish juda oson. Windows-ning so‘nggi versiyalari, shuningdek, Narrator-dagi o‘rnatilgan mavjudlik xususiyatlari bilan ta‘minlaydi, biroq ko‘plab Windows foydalanuvchilari

bepul NVDA (onVisual Desktop Access) va mashhur, ammo qimmat JAWS (Job Access With Speech) Ilmiy.

Linux foydalanuvchilari ekran o‘qish uchun ORCA yoki Braille ekranlari uchun BRLTTY dan foydalanishi mumkin.

Ekran o‘quvchilari ko‘pincha sichqoncha o‘rniga klaviatura yorliqlari bilan birgalikda ishlatiladi.

**Ovozli buyruqlar va Diktasiya**

Ovozli buyruqlar universal dizaynning ajoyib namunasidir, chunki ular aniq gapira oladigan har qanday shaxs tomonidan qo‘llanilishi mumkin. Foydalanuvchilar Mac, Windows, Android va iOS-ning so‘nggi versiyalarida ovozli buyruqlarni topa oladi. Uzoq muddatli so‘zlashuv uchun Dragon nutqni aniqlash dasturi ham mavjud. Ko‘rinishdagi nuqsonlari ko‘p odamlar odatdagi kompyuter ekranidagi matnni o‘qish yoki narsalarni ko‘rish uchun etarli darajada yaxshi emas. Bu bizning yoshimiz va ko‘zlarimiz o‘zgarib turganidek, biz ham shunday bo‘lishi mumkin. Büyütme va matn kontrasti bu bilan yordam beradi. Windows foydalanuvchilari ZoomText-ni o‘rnatishni afzal ko‘rayotganda Apple foydalanuvchilari, odatda, MacOS-ning mavjudlik xususiyatlari va klaviatura yorliqlariga ekranning ba‘zi qismlariga yaqinlashishga tayanadilar. Chrome, Firefox, Microsoft Edge va Safari-dagi matnni kengaytirish yoki brauzeringiz uchun alohida mavjudlik vositalari o‘rnatish uchun brauzer sozlamalarini alohida-alohida o‘zgartirishingiz mumkin.

Matnni kengaytirish (yoki almashtirish) o‘rniga, ba‘zi odamlar kontrastni kuchaytirish, ranglarni teskari aylantirish, hamma narsani kulrang rangga aylantirish yoki kursorning kattaligini oshirish uchun ko‘proq foydalidir. Agar Apple sizni "silkitib" qo‘ysangiz, kursorni oldinga va orqaga surib qo‘yishni anglatadi, agar sichqoncha kursorini yanada kengroq qilish imkoniyati bo‘lsa. Android va iOS telefonlari matnni kattalashtirishi yoki ekran kontrastini o‘zgartirishi mumkin, ammo bu ba‘zi ilovalar bilan yaxshi ishlamasligi mumkin.

Chop etish imkoniyatlari cheklangan kishilar uchun e-kitobxonlar matnni matnga qo‘shib yoki ekranni o‘zgartirib, o‘qishni osonlashtirishi mumkin.

**Ovoz tavsifi**

Har bir video ularni taklif qilmaydi, biroq ba‘zi videolar videoning audio tasvirlarini taqdim etadi, bu videoda ko‘rmaydigan odamlar uchun amalda tasvirlangan ovozni tasvirlaydi. Bu so‘zlar so‘zlarning matnli ta‘rifi bo‘lgan taglavhalardan farq qiladi.

**O‘z-o‘zini boshqaruvchi avtomashinalar**

Bu bugungi kunda o‘rtacha odam uchun mavjud bo‘lgan texnologiya emas, lekin Google o‘zboshimchalik bilan yo‘lovchilar bilan birga avtoulovlarni sinovdan o‘tkazmoqda.

**Eshitish qobiliyati**

Eshitish qobiliyati juda keng tarqalgan. Ko‘pchilik eshitish qobiliyatlari qisman eshitish qobiliyatini "eshitish qobiliyati" va to‘liq eshitish qobiliyatini "kar" deb bilishlariga qaramay, ta‘rif juda mo‘tadildir. Qulog‘i deb tan olingan odamlarning aksariyati hali eshitish darajasiga ega (nutqni tushunish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin). Shuning uchun amplifikatsiya umumiy yordamchi texnologiya (asosan, eshitish asboblari nima qilish kerak).

**Telefon**

Kar va eshitish qobiliyati o‘rtasidagi telefon aloqasi AQShda efir xizmati orqali amalga oshirilishi mumkin. O‘rnimizni xizmatlar odatda suhbatda ikki kishi o‘rtasida inson tarjimoni qo‘shadi. Bir usul matn (TTY)dan foydalanadi, ikkinchisi esa video va signali tilidan oqim ishlatadi. Har ikki holatda ham inson tarjimoni TTY mashinasidagi matnni o‘qiydi yoki gapirishni ingliz tiliga tarjima qiladi. Bu sekin va noqulay jarayon bo‘lib, ko‘plab oldinga va orqaga ketadi va aksariyat hollarda boshqa birovning suhbatga imkon berishini talab qiladi. Istisno, vositachi sifatida nutqni aniqlash dasturidan foydalanadigan TTY suhbati.

Agar har ikkala foydalanuvchi TTY qurilmasi bo‘lsa, suhbat butunlay matn bilan o‘tkazilishi mumkin. Shu bilan birga, ba‘zi TTY qurilmalari tezkor xabarlar va matnli ilovalarni oldindan belgilab olishadi va tinish belgisiz hamma qatorli matnlar bilan cheklangan bo‘lishi kabi ayrim kamchiliklarga duch kelishadi. Biroq, tintuv dispetcherlari uchun hali ham muhimdir, chunki kar odam favqulodda ma‘lumotni oldinga va orqaga o‘tkazish uchun o‘z o‘rni xizmati uchun kutish kerak bo‘lmasdan TTY chaqiruvini amalga oshirishi mumkin.

## Taglavhalar

Videolar matn yordamida gapirish nutqini aks ettirish uchun taglavhalardan foydalanishlari mumkin. **Taglavhalar** videolarning bir qismi sifatida doimiy ravishda yaratilgan taglavhalar bo‘lib, ular ko‘chirilmaydi yoki o‘zgartirilmaydi. Ko‘p odamlar **yopiq taglavhalarni** afzal ko‘radi, ularni yoqish yoki o‘chirish va o‘zgartirish mumkin. Misol uchun, Youtube-da, taglavhalar aksiya haqidagi fikringizni blokirovka qilsa, ekranning boshqa joyiga yopiq yozuvlarni sudrab olib tashlashingiz mumkin. Shuningdek, sarlavhalar uchun shrift va kontrastni o‘zgartirishingiz mumkin.

1. Yopiq sarlavhalar bilan YouTube videosiga o‘ting.
2. Sozlamalar-ni bosing
3. Subtitrlar / CC-ni bosing
4. Bu yerdan siz avtomatik ravishda tarjima qilishni ham tanlashingiz mumkin, ammo hozircha buni e‘tiborsiz qoldirmoqdamiz, Options ni bosing
5. Shrift oilasi, matn o‘lchami, matn rangi, shriftning shaffofligi, fon rangi, fon shaffofligi, oyna rangi va opakligi va belgilarning chetgi uslubi kabi bir qator sozlamalarni o‘zgartirishingiz mumkin.
6. Barcha variantlarni ko‘rish uchun o‘tishingiz kerak bo‘lishi mumkin.
7. Siz ushbu menyudan ko‘rsatmalarga qayta tiklashingiz mumkin.

Deyarli barcha video formatlari yopiq sarlavhalarni qo‘llab-quvvatlaydi, lekin yopiq taglavhalar to‘g‘ri ishlashi uchun, kimdir taglavhani kiritish kerak. YouTube Google Now ovozli buyruqlarni kuchaytirgan bir xil ovozni aniqlash texnologiyasidan foydalangan holda avtomatik tarjimani sinab ko‘rmoqda, ammo natijalar har doim xayoliy yoki aniq emas.

Gapirishga qodir bo‘lmaganlar uchun imo-ishoralarni matnga tarjima qiladigan bir qator ovozli sintezatorlar va yordamchi texnologiyalar mavjud. Stefen Xoking so‘zlash uchun yordamchi texnologiyadan foydalanadigan insonning eng mashhur namunasi bo‘lishi mumkin.

Kengaytirilgan va muqobil kommunikatsiyalarning boshqa shakllari (AAC) lazer ko‘rsatkichlari va kommunikatsion taxtalar (masalan, Speechless teleko‘rsatuvidagi kabi), maxsus qurilmalar yoki Proloquo2Go kabi ilovalar kabi past texnologik yechimlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

**Mavzu mustahkamlash uchun testlar:**

**1. Tovushlar talaffuzini fonologik holatda tekshirishda nimalar tekshiriladi?**

A) Nutqda tovushlarni hosil qilish holati va nutq jarayonida tovushlarni talaffuz etish;

B) Bola nutq tovushlarni farqlashni va turli xil fonematik jarayonda ularning holati;

C) Harakatlarni bajarishda o‘zini nazorat qilish, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish, harakatni eslab qolishlarni tekshirish;

D) Harakat koordinatsiyalarni statik mashqlar yordamida tekshirish.

**2. Predmetning umumiy nomidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos xusiyatni aytishga misol berilgan qatorni belgilang.**

A) pichoq bu o‘tkir predmet;

B) pichoq u kesadi;

C) pichoq, qoshiq;

D) to‘g‘ri javob berilmagan.

**3. Bog‘langan nutqni tekshirish texnologiyasi ketma ketligi tog‘ri berilgan qatorni belgilang**

1) Gapirib berish.
2) Seriyali yoki syujetli rasmlar asosida gapirib berish.
3) O‘zi haqida yoki biror bir hodasini gapirib berish.
4) Gapirilgan matnni tushunish.
5) Mustaqil gapririb berish.
6) Matnni ma‘nosini to‘liq yetkazib berish.
7) Jumlallarni ketma-ketliligi.
8) Berilgan fikrni to‘g‘riligi.
9) Gapirib berishni to‘g‘ri qo‘llash.

A) 1 2 3 4 5 6 7 8 9;

B) 3 2 5 4 1 6 7 8 9;

C) 2 1 3 5 6 4 7 8 9;

D) 4 2 3 1 5 6 7 8 9.

**4. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning ona tilidan ta‘lim standartini o‘zlashtirish yo‘lida turgan jiddiy to‘siqlar berilgan qatorni belgilang.**

A) o‘qish va yozish malakalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;

B) bilimlarni muvaffaqiyatli egallashga bo‘lgan asoslarning zaifligi;

C) bolada individual psixik (ruhiy) chekinishlarning mavjudligi;

D) barchasi to‘g‘ri.

**5. Yozma nutqni egallash nutq-eshituv, nutq-harakat, umumiy harakat analizatorlari hamda fazoviy qabul qilish, ko‘rish xotirasi kabi psixik funksiyalar bilan bog‘liq. Odatda ushbu funksiyalarning o‘zaro bog‘lanishi 7 yoshga kelib shakllanadi**

A) 5 yosh;

B) 6 yosh;

C) 3 yosh;

D) 7 yosh.

**6. M.Ye.Xvatsev, R.Ye.Levina, R.I.Lalayeva, L.F.Sadovnikova disgrafiyani necha turga bo‘lgan?**

A) 5;

B) 4;

C) 6;

D) 3.

**7. Ushbu tarif disgrafiyani qaysi turiga mos? “Bola tovushlarni qanday talaffuz etsa, shunday yozadi. Artikulyator-akustik disgrafiyaning asosida noto‘g‘ri talaffuz etish yotadi. Disgrafiyaning bu turida harflarni almashtirish, tashlab ketish, talaffuzi jihatidan o‘xshash tovushlarni yozuvda noto‘g‘ri yozish hollari kuzatiladi.”**

A) artikulyator-akustik disgrafiya;

B) akustik disgrafiya;

C) optic disgrafiya;

D) agramattik disgrafiya.

**8. Ushbu tarif disgrafiyani qaysi turiga mos? Fonematik, yani talaffuzi jihatidan yaqin tovushlarni yozuvda almashtirish kuzatiladi. Bunday holatlarda og'zaki nutqda tovushlar to'g'ri talaffuz etiladi. Ko'p hollarda tovushlarni bildiruvchi harflar almashtiriladi: sirg'aluvchi va shovqinli, jarangli va jarangsiz, affrikat tovushlar va ular tarkibiga kiradigan komponentlar (ch-t, ch-sh, sh-c)**

A) artikulyator-akustik disgrafiya;

B) akustik disgrafiya;

C) optic disgrafiya;

D) agramattik disgrafiya.

**9. Ushbu tarif disgrafiyani qaysi turiga mos ko'rish gnozisi, analiz va sintezining rivojlanmaganligi, fazoviy tasavvurlarning yetishmasligi hamda yozuvda harflarni buzib va almashtirib yozishda namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda yozma harfdagi grafik jihatidan o'xshash harflar almashtiriladi**

A) artikulyator-akustik disgrafiya;

B) akustik disgrafiya;

C) optik disgrafiya;

D) agramattik disgrafiya.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:


1. M.Y.Ayupova "Logopediya". Toshkent, 2007 yil, 463 b.
2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.
3. Qodirova F.U. "Texnologiya 4". Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.

4. Qodirova F.U. “Texnologiya 3”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internat-larning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.

5. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya // O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2021, 140 b.

6. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.

7. Dehqanova M.G‘., Tag‘onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o‘ziga xos xatoliklarni paydo bo‘lish mexanizmi // “Yangi O‘zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar” mavzusidagi Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022. 405 – 407 b.

8. Dehqanova M.G‘. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // NeuroQuantology, 2022. Vol. 20, pp. 1 – 9.

**Logopedik tekshiruvga turlicha yondoshuv. Erta yoshda davrda bollarni logopedik tekshirish texnologiyasi**

**Reja:**

1. Bir yoshgacha bolalarni logopedik tekshirish ishlari.
2. Maktabagacha yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish ishlari.

So‘nggi yillarda bolalar logopediyasida bolalarning erta yosh davrni o‘rganish muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Zamonaviy logopediyada nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va bartaraf etish ishlari bolaning ilk kunlaridan boshlab, amalga oshirish lozim bo‘lib kelmoqda. Bolada qancha erta nutq kimchiliklarni aniqlansa, olib borilayotgan ishlar samarasi ham yuqori bo‘ladi. Logopedik ishlarni tashkil qilishda logoped ota onalar bilan hamkorlikda olib boriladi. Logopedik tekshirishda bolaning uyda yoki mehribonlik uyida tarbiya olganligi ham inobtga olinib, turli xil metodlardan foydalangan holda, shuningdek bolaning anamnez ma’lumotlari olinadi. Hamda tabiiy sharoitda bolalar kuzatiladi, erta tekshirish ishlarini olib borishda xomiladorlikni to‘liq davrida rivojlangan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar olinadi.

Birinchi etap (yangi tug‘ilgan chaqaloq).

Logopedik tekshirish.

Anamnez ma’lumotlarni yig‘ishda logoped quyidgi ma’umotlarga tayanadi:

- Yangi tug‘ilgan chaqaloqing birinchi qichqirishi holatlari (baland, bo‘g‘ilgan, zaif, past, dumbasiga urgandan so‘ng yig‘lagan, baqirmagan, yig‘lmagan);
- Fiziologik nafas funksiyasi (chaqaloq o‘zi mustaqil nafas olgan, nafas olish uchun maxsus apparatga ulangan);
- Neonatal jarayonida intensiv terapiya (antibiotiklar, qon quyish, kapelnitsaga ulanish);

- Neonatal jarayonda xirurgik amaliyot (tug‘ilish jarayonidagi nuqsonlar tufayli nafas organlari, qon aylanishi, ovoz tuzilishidagi kamchiliklar);

- Bolani ko‘krakdan birinchi bo emganligi;
- Sun’iy ovqatlanishning sabablari;
- Ovkatlanishning davomiyligi;
- Emgan vaqtida ko‘krakni emish jarayoni, ovqatlanish vaqtida to‘g‘ri yutinish holati.

Ikkinchi etap (1 – 3 oylikda)

Logopedik tekshiruv

Ushbu etapda logoped ota onalar bilan savol javob asosida bola haqidagi ma’lumotarni hamda bolani tabiiy sharoitda kuzatish orqali ma’lumot yig‘adi. Tabiiy sharoitda tekshirish orqali quyidagilarga e’tibor beriladi:

- Och qolganda bolaning holati, cho‘milganda sovuq qotishi yoki isib ketishi;
- Turli tamga ega bo‘lgan narsalarni iste’mol qilishda mimikaning qay holatda o‘zgarishi;
- Eshitish va ko‘rish vaqtida diqqat bilan tinglashning il kunlari;
- Turli asabga ta’sir etuvchi shovqinlarga munosabati;
- Onaning bolaga murrojaat etganda bolaning javob reaksiyasi;
- Yaxshi, qulay sharoitda bolaning ijobiy emotsiyalarni namoyon qilish.

Bundan tashqari alohida e’tiborga olinadi:

- Bolaning birinchi gu-gulash davri;
- Tabiiy gu-gulash;
- Kattalar intonatsiyasiga birinchi reaksiyasi;

Maktabgacha yoshdagi bolalarni logopedik tekshirishda u bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, tekshirish vaqtida bolani kayfiyatini ko‘tarib, uni maqtab yaxshi so‘zlarni aytish kerak. Logopedik tekshirishning asosiy metodi: hujjatlarni o‘rganish, bola bilan suhbatlashish, uning ota-onasi bilan suhbat o‘tkazish, bolani kuzatish va test o‘tkazishdan iborat.

Tajriba o‘tkazishdan avval bolaning anamnezi va boshqa hujjatlar: bolaning daftarlari, chizgan rasmlari, psixologik xarakteristikasi va boshqalar; tibbiy tekshirishlar: eshitish, ko‘ruv apparati, tayanch harakat apparati, bolaning nutqiy holatini yaxshi bilgan psixolog to‘g‘ri tekshirish ishlarini olib boradi.

*Ota-onalar bilan suhbat* davomida logoped bir qancha ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Ota ona bolasi bilan har kuni muloqatda bo‘lganligi uchun, farzandini yaxshi bilishadi, shu bois birga suhbat davomida logoped ularning bolaga bo‘lgan munosabatini bilib oladi.

Logoped bola bilan alohida suhbatlashayotganda savollarni uning yoshiga moslab, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda berishi kerak.

*Kuzatish* bolani tekshirish davomida olib boriladi. Blani rivojlanishini chuqurroq o‘rganish uchun eksperiment tekshiruv metodini oli borish zarur. Eksperimenta bola haqida to‘li ma’lumot olish mumkin.

*Eksperimental tekshirishlarni* olib borishda quyida tamoyillarga tayanish lozim:

- Psixologik ta’limni modellashtirish, bola buni hayoti davomida amalga oshiriladi(o‘qish, o‘yin).
- Bolaga beriladigan vazifa uning yoshiga va bilimiga tayangan holda bo‘lishi kerak.
- Tahlili samarali bo‘lishi uchun bolaning barcha ruhiy holatini, uni bajarish va davomiylik sur’ati.

Eksperimentni o‘tkazishda bitta yo‘nalishdan emas, balki bir necha bir biriga yaqin bo‘lgan usullarni tanlash kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tekshirishda psixologik holat ham inobatga olinadi bunda:

- Diqqatni tekshirish;
- Xotirani tekshirish;
- Nutqni tekshirish;
- Idrokni tekshirish;
- Tafakkurni tekshirish;
- O‘z o‘zini baholashni tekshirish;
- Oilada ichki munosabatlarni tekshirish;
- Tengdoshlari bilan munosabatlarini tekshirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirishda bir necha metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq bular:

- Matryoshkani yig‘ish va ajratish;
- Piramidani taxlash va ajratish;
- Segen taxtasi;
- Pochta qutisi;
- Kesma rasmlar;
- Qatoriga qo‘yish;
- Namunaga qarab qurish;
- Klassifikatsiya;
- Koos kubiklari.

Ushub metodikalar bolaning yoshiga qarab o‘tkaziladi va tahlil etiladi.

### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Turli rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar deganda nimani tushunasiz?
2. Turli rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar kimlar?
3. Logopedik tekshiruv nima?
4. Logopedik tekshiruvning obyekti, predmeti, subyekti nimadan iborat?

5. Logopedik tekshiruvning maqsad va vazifalari nimada iborat?
6. Logopedik tekshiruv bosqichlari nimadan iborat?
7. Logopedik tekshiruvning birinchi bosiqichi?
8. Logopedik tekshiruvning ikkinchi bosqichi?
9. Mimik mushaklarni tekshirishda nimalar hisobga olinadi?
10. Artikulyatsion apparat mushaklar holatini tekshirishda nimalar inobatga olinadi?

## Mustahkamlash uchun testlar:

**1. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan 3 – 7 yoshdagi bolalarning qanday toifalari qabul qilinadi.**

A) Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar; (alaliya, bolalar afaziyasi, rinolaliya, dizartriya, duduqlanish nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar); Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar; (1 – 4 guruh karlik va zaif eshituvchi bolalar);

B) Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar; (ko'zi ojizlar, zaif ko'ruvchi bolalar); Psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar; (psixik rivojlanishning orqada qolishi, psixik nutqiy rivojlanshining orqada qolishi, bolalar autizmi);

C) Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar; (aqliy rivojlanishida orqada qolishning yengil darajasi, aqliy rivojlanishida orqada qolishning o'rta darajasi); Tayanch harakatlanish a'zolarida nuqsonlari bo'lgan bolalar (ortopedik jarohatlarning asoratlari, idiopatik o'zgarishlar A. (bo'yin, ko'krak, umurtqa);

D) barchasi to'g'ri.

**2. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati maxsus dastur asosida ishlab, dastur …… ta o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, o'quv yili boshidan …… hafta davomida olib borilgan tekshiruvdan so'ng tanlab olinadi.**

A) 3 o'quv yili, 4 hafta;

B) 4 o'quv yili, 3 hafta;

C) 4 o'quv yili, 2 hafta;

D) 3 o'quv yili 2 hafta.

**3. Logopedik tekshiruvning obyekti nima?**

A) nutqiy va nutqiy bo'lmagan jarayon;

B) nutqida nuqsoni bo'gan shaxs;

C) kompleks nuqsoni shaxs;

D) turli nutq kamchiligidagi subyektlar.

**4. Logopedik tekshiruvning subyekti nima?**

A) nutqiy va nutqiy bo'lmagan jarayon;

B) nutqida nuqsoni bo'gan shaxs;

C) kompleks nuqsoni shaxs;

D) turli nutq kamchiligidagi subyektlar.

**5. Logopedik tekshiruvning maqsadi nima?**

A) ta'lim tarbiya jarayonini olib borishda aniq reja asosida nutq kamchililiklarini bartaraf etishda korreksion logopedik ishlarni tashkil etilishi;

B) bolada kuzatiladigan nutq kamchiliklarining rivojlanishini oldini olishda korreksion rivojlantiruvchi ishlarni aniqlash va bolaga to'g'ri ta'lim tarbiya berish;

C) turli xil rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq shakllanishi xususiyatlariga va nutq kamchiliklarini aniqlashdan iborat;

D) barcha javob to'g'ri.

**6. Logopedik tekshiruvning predmeti nima?**

A) ta‘lim tarbiya jarayonini olib borishda aniq reja asosida nutq kamchililiklarini bartaraf etishda korreksion logopedik ishlarni tashkil etilish;

B) bolada kuzatiladigan nutq kamchiliklarining rivojlanishi olidini olishda korreksion rivojlantiruvchi ishlarni aniqlash va bolaga to‘g‘ri ta‘lim tarbiya berish;

C) turli xil rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq shakllanishi xususiyatlariga va nutq kamchiliklarini aniqlash;

D) barcha javoblar to‘g‘ri.

**7. Logopedik tekshiruvning vazifalaridan biri berilgan qatorni toping?**

A) ta‘lim tarbiya jarayonini olib borishda aniq reja asosida nutq kamchililiklarini bartaraf etishda korreksion logopedik ishlarni tashkil etilish;

B) bolada kuzatiladigan nutq kamchiliklarining rivojlanishi olidini olishda korreksion rivojlantiruvchi ishlarni aniqlash va bolaga to‘g‘ri ta‘lim tarbiya berish;

C) turli xil rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq shakllanishi xususiyatlariga va nutq kamchiliklarini aniqlash;

D) barcha javoblar to‘g‘ri.

**8. Maxsus maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida nutq nuqsoniga ega bo‘lgan maktabagacha yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi?**

A) 2;

B) 4;

C) 5;

D) 7.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. M.Y.Ayupova “Logopediya”. Toshkent, 2007 yil, 463 b.
2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.
3. Qodirova F.U. “Texnologiya 4”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
4. Qodirova F.U. “Texnologiya 3”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
5. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya // O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2021, 140 b.
6. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.
7. D.A.Nurkeldiyeva, Y.Ye.Chicherina “Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopedik tekshirish”. Toshkent 2007 y, 46 bet.



## Turli nutq buzilishlarida logopedik tekshirish texnologiyasi

**Reja:**

1. Duduqlanish nutq kamchiligida logopedik tekshiruv.
2. Dizartriya nutq kamchiligida logopedik tekshiruv.
3. Rinolaliya nutq kamchiligida logopedik tekshiruv.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishda komleks ravishda tekshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi hamda quyidagilar inobatga olinadi.

1. Duduqlanuvchi bolaning psixologik pedagogik holati.
2. Duduqlanuvchi bolani logopedik jihatdan o‘rganish (nutq kamchiliklari, nutq harakati, tovushlar talaffuzidagi buzilishlar).
3. Tibbiy tomondan tekshirish tahlili.

Anamnez ma’lumotlarni yig‘ishda quyidagilar inobatga olinadi:

- Kimning gapi bilan anamnez m’lumotlar yig‘ildi: ota ona yoki bolaning gapi bilan.
- Yaqin qarindoshlar yoki ota onadan duduqlanish alomatlari bo‘lganligi.
- Ko‘rsatkich qo‘lini ishlatgan vaqti.
- Ijtimoiy hayoti (bolalar bog‘chasi, oilasi, bolalar uyi).
- Nutq xususiyatlarining holati: duduqlanuvchi bilan muloqatga bo‘lganligi, oilada ikki tillilik.
- Duduqlanishni rivojlanishi.

Duduqlanuvchidagi ruhiy ko‘rinishlar xususiyati logopeddan unga ta’sir ko‘rsatishning quyidagi rejasini ham ko‘rib chiqishni talab qiladi: o‘zining nuqsoniga nisbatan diqqatini chalg‘itish, uning o‘ziga, o‘z nutqiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, uni o‘zining to‘g‘ri nutqini eshita bilishga o‘rgatish.

Bola haqidagi, unda duduqlanishning paydo bo‘lish va o‘tib borish tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlar aniqlangandan so‘ng, duduqlanuvchining nutqi va uning nutqiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan nutqsiz jarayonlar tekshiriladi.

Uning kirishimliligi, harakatlari (motorikasi), taqlidchanligi, sust va tezkor nutqi, o‘yin, o‘qish, ishlab chiqarishdagi faoliyati, duduqlanuvchining shaxsiy xususiyatlari tekshirib ko‘riladi. Duduqlanuvchini unga tuzatish-tarbiyalash orqali ta’sir qilish jarayonida birlamchi (bolaning maktabgacha tarbiya yoshida nutqni tarbiyalash muassasasiga kelgandagi dastlabki oy yoki maktab logopediya bo‘limida, duduqlanuvchi bolalar sanatoriysiga kelgandagi dastlabki ikki hafta davomida) yoki dinamik o‘rganish farq qilinadi.

Bolalar nutqini tekshirish uchun rasmlar, she’r, ertak kitobchalaridan foydalaniladi, o‘yinchoqlar (qo‘g‘irchoq, mashinacha, o‘yinchoq hayvonlar, jajji qurilish materiallari) tanlanadi.

Nutqni tekshirishdagi aniq vazifalar quyidagilarni aniqlashdan iborat bo‘ladi:

— nutq a’zolari tortishishining paydo bo‘lish o‘rni va shakllari;

— ularning paydo bo‘lish sur’ati va duduqlanuvchining saqlangan nutq imkoniyatlari;

— nutq buzilishlari bilan birga sodir bo‘ladigan buzilishlar; harakatlardagi buzilishlar;

— duduqlanuvchining o‘z nutqiy nuqsoniga munosabati; ruhiy xususiyatlarining borligi.

Tomir tortishishlarning paydo bo‘lish o‘rinlari (nafas olishdagi, tovushdagi, artikulyatsiyadagi, aralash) va ularning shakllari (klonik, tonik, aralash) ko‘rish yoki eshitish orqali belgilanadi.

Duduqlanuvchidagi tortishishning qaytalanish tezligi logoped uchun alohida qiziqish o‘yg‘otadi. U nutqning saqlangan qismlari haqida fikr yuritishga imkon yaratadi, bola bilan dastlabki nutqiy mashg‘ulotning qanchalik to‘g‘ri va samarali boshlanishi bevosita unga bog‘liq bo‘ladi. Erkin nutq darajasini o‘rganish uning nutqiy mustaqilligidagi turli darajalardan duduqlanishning paydo bo‘lishidagi bog‘liqlikni aniqlash bilan boshlanadi. Uning ota-onalari, do‘stlari, qiziqishlari va hokazolar haqidagi suhbatda bolaning nutqiy harakati, nutqiy tortishishning alohida jihatlari aniqlanadi.

Bolaga ertak to‘qish yoki rasm mazmunini so‘zlab berish, tanish ertakni bayon qilish taklif etiladi; logoped hikoyani o‘qiydi hamda undan buni so‘zlab berishni so‘raydi va hokazo. Keyin ifodalangan va mavhum qolgan nutq holatini takrorlash yoki murakkab hamda jun iboralarni birgalikda talaffuz etish orqali tekshiradi.

Duduqlanuvchining erkin nutq darajasi uning faqat turli darajadagi mustaqilligiga emas, balki uning tayyorgarligiga ham bog‘liqdir.

Nutqiy a’zolari tortishishi bolaning murakkab yoki jun iborani, alohida so‘z yoki tovushlarni talaffuz etishi bilan borliq holda paydo bo‘lishini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Matn mazmunini qayta bayon qilish materialida nutq a’zolari tortishishining qanday hollarda: hikoya qilib berishning boshlanishida, ibora boshida, ayrim so‘z yoki tovushlarda paydo bo‘lishi qayd qilinadi. Nutq a’zolari tortishishi nutq balandligi darajasi bilan bog‘liq ekanligi haqida tushuncha hosil qilinadi. Shu maqsadda ko‘riqdan o‘tkazilayotgan shaxsga sekin, qattiq, shivirlab gapirish taklif etiladi.

Turlicha ohanglanish darajasining duduqlanuvchi nutqiga ta’siri quyidagicha tekshirilishi mumkin: u suratda nima tasvirlanganini bayon

qiladi, ertak mazmunini so‘zlaydi (bu ohanglashgan nasr hisoblanadi), she’rni yoddan aytadi.

Nutqni birlamchi ko‘rikdan o‘tkazish paytida logoped nutq bilan birga kechadigan va harakat buzilishlariga: nafas olishda aytiladigan ortiqcha so‘z yoki tovushlar alohida tovush, so‘z va hatto gaplarni talaffuz qilish, nutq tovushlarini noto‘g‘ri talaffuz qilish, nutq surati va grammatik qurilishidagi, sur’atidagi yetishmovchiliklar, chiqillashlar, mioklonuslar (g‘ayritabiiy harakatlar), turli yordamchi (yorqin, tabiiy) harakatlar va nutq harakatidagi ayrim xususiyatlar: umumiy harakatlardagi siqiqlik va zo‘riqish yoki, aksincha, ularning shiddatkorligi, jo‘shqinligi, shivirlashi, «ezmalik»larga alohida e’tibor beradi.

Bolalarning o‘yin faoliyatini kuzatish jarayonida ularning o‘yin xususiyati, o‘zaro munosabati, o‘yindagi faollik darajasi, hissiyotli holati haqida tushuncha hosil qilinadi.

O‘quv faoliyatini ko‘rikdan o‘tkazish jarayonida duduqlanadigan o‘quvchilarning o‘qish davrida turli xil nutq shakllarini qanday qo‘llanayotganlariga e’tibor beriladi.

Ulardagi ruhiy xususiyatlarning bor yoki yo‘qligiga, jumladan ularning o‘z nutq nuqsoniga diqqatini jalb qilish darajasiga e’tibor qaratiladi.

Duduqlanuvchining ruhiy jihatlari haqidagi ma’lumotlar uning ota-onasi bilan o‘tkazilgan suhbatda ma’lum bo‘ladi. Logoped uning atrofdagilar (uyda, maktabda, tengdoshlari va kattalar bilan, tanish va notanish odamlar) bilan bo‘ladigan munosabatini aniqlaydi, Duduqlanuvchining o‘z nutqiga qanday baho berishiga (o‘z nutqining mukammal emasligini biladimi yoki yo‘qmi, bu unga qanday ta’sir qiladi), himoya reaksiyalarining (achchiqlanish, tortinish, niqoblash, nutqli muomala qilishdan chetlanish) bor-yo‘qligiga, ko‘rikdan o‘tkazish paytidagi nutq holatiga (yordamga ko‘z tikadi, o‘z nuqsonini tuzatishga faol kirishadi yoki nutqiy mashg‘ulotlarning nega kerakligini tushunmaydi) e’tiborni qaratadi. Duduqlanuvchini o‘rganish tuzatish ishlari jarayonida ham davom etadi.

Duduqlanuvchi va uning ota-onalari bilan suhbatdan, ruhiy-pedagogik va tibbiy hujjatlarni o‘rganishdan tashqari, tajriba-sinov o‘yinlari, o‘quv vaziyatini yaratish metodlari, psixo-diagnostik metodlar qo‘llaniladi. Keltirilgan metodlar aniqlash vazifalarini yakunlash uchun, duduqlanuvchining ruhiy xususiyatlarini yanada teran his etish uchun, qimmatli ma’lumotlar omili sifatida qo‘llaniladi. Ular yordamida olingan mikdoriy va sifatli ma’lumotlar sinovdan o‘tkazilayotgan shaxsni atroflicha ruhiy-pedagogik o‘rganish asosida sharhlash lozimligini taqozo qiladi.

Logopedik nuqtai nazaridan xulosa chiqarish jarayonida quyidagilar hisobga olinadi: duduqlanish shakli (tonik, klonik, aralash), tortishish turlari (nafas olish va chiqarishdagi, tovushli, talaffuzli, aralash), duduqlanish darajasi (yengil, o‘rtacha, og‘ir), nutq sur’ati (sekinlashgan, jadallashgan, tez gapirish, taxilaliyaning borligi), duduqlanish bilan birga keladigan dislaliya, dizartriyaning yengil shakli, nutqning umumiy rivojlanmay qolishi, harakatlantiruvchi vositalar faoliyatining holati, duduqlanish ruhiy alomatlarinint bor-yo‘qligi va ifodaliligi: nutqdan chuchish (logofobiya), harakatlantiruvchi kuch va nutqdagi xiylalar, embolofraziya, nutq uslubining o‘zgarishi va boshqalar, duduqlanish jarayonidagi hayajonlanishning bor-yo‘qligi, hayajonlanishga nisbatan munosabat. Nutq jarayoniga e’tiborni jalb etish va uning duduqlanishga ta’siri, murakkab nutq jarayonining duduqlanishga ta’siri, duduqlanuvchining xususiy-ruxiy jihatlari, o‘yinli faoliyatning xususiyati, o‘quv faoliyatiga munosabat, duduqlanishini keltirib chiqaradigan vaziyatlar doirasi.

Logopedik xulosa tabaqalashtirib aniqlashni amalga oshirishga va duduqlanishni boshqa nutqiy zaiflashuvlardan (taxilaliya, dizartriya, fiziologii xarakterdagi nuqsondan) ajratib olishga, shuningdek duduqlanishning turli shakllarini bir-biridan farqlashga imkoniyat yaratadi. Duduqlanuvchiniat atroflicha o‘rganish ma’lumotlari uning tabiatini aniqlashga imkon beradi.

Duduqlanishning turlicha ko‘rinishlari, uning ruhiy xususiyatlarining mavjudligi va har bir duduqlanuvchining xulq-atvori barcha guruh bilan bosqichma-bosqich logopedni ish olib borish sharoitida har bir duduqlanuvchi bilan alohida logopedik ish olib borishning vositalari, usullari va yo‘nalishlaridagi muhim jihatlarni ham belgilaydi.

Duduqlanishni bartaraf qilishni oldindan aytish ko‘pgina shart-sharoitlarga, birinchi navbatda uning mexanizmlariga, atroflicha ta’sir ko‘rsatishning boshlanish muddati va undan to‘liq qo‘llanilishiga, yosh xususiyati va hokazolarga borliqdir.

Yosh qanchalik kichik bo‘lsa, umumiy xatti-harakat qanchalik faol va dadil bo‘lsa, nutq a’zolarining qanchalik ham bo‘limlari tortishgan va tortishishning o‘zi ham nechog‘li zaif bo‘lsa, ruhiy buzilishlar qanchalik kam bo‘lsa, oldindan aniqlash shunchalik ijobiy bo‘ladi. Tug‘ma xastalik yoki neyropatiya oqibatida rivojlanadigan, shuningdek tashqi ta’sirlarsiz paydo bo‘lgan duduqlanishni oldindan aytish yaxshi samara beravermaydi. Bu yerda aksariyat hollarda qaytalanish bo‘ladi. Tovush tortishishlaridan ko‘ra nafas olishdagi tortishishlar tezroq o‘tib ketadi, tonik shaklga nisbatan klonik shakl yengil bartaraf bo‘ladi chunki klonik tortishishlar miya qobig‘ini qo‘zg‘atish uchun xosdir. Binobarin, tonik tortishishga nisbatan ularga II signal sistemasi orqali ta’sir etish yengil kechadi, tonik tortishishlarda ham miya kobig‘ini qo‘zg‘atuvchilari bo‘ladi, ularga ta’sir ko‘rsatish qiyin kechadi. Oldindan aytish ma’lum miqdorda bolaning shaxsiga, logopedning shaxsi va uning mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

2 – 4 yosh juda qulay hisoblanadi (qulay shart-sharoitlarni yaratish oson ketadi, bunda duduqlanishning hosil bo‘lgan muddati ham kam bo‘ladi). 10 – 16 yosh, pubertat bosqichi eng qulay muddat hisoblanadi (ruhiy jihatdan ko‘ngilning nozikligi, erkinlikka, mustaqillikka intilish, odamovilik va shaxsning boshqa salbiy xususiyatlari). Yo‘qolib ketgan

duduqlanishlar ko‘pincha yashirin holda saqlanadi va noxush shart-sharoitlarning yuzaga kelish paytida qaytalanishga tayyor turadi.

Ko‘p hollarda duduqlanuvchilarning yaxshi sotsial sharoitdagi nuqsonlarini oldindan aytish mumkin bo‘ladi.

Bizning mamlakatimizda duduqlanishning oldini olish yuzasidan keng va har tomonlama ishlar olib boriladi. Dastlab bunday ish bola tug‘ilishidan oldin ota-onalar bilan olib boriladi. Bunda bola tug‘ilganidan so‘ng unga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillardan ogohlantirishni (boshni lat yeyishidan saqlash, burun-halqumni tartibli saqlash og‘iz bo‘shlig‘iga zarar yetkazmaslik, surunkali kasalliklarga yo‘l qo‘ymaslik, o‘z vaqtida davolanish, adenoidlar ko‘payishini bartaraf etishni) maqsad qilib qo‘yiladi. Og‘zaki nutq taqlid qilish orqali rivojlanishi sababli bola uchun duduqlanuvchi, taxilaliyali, gap orasida tug‘iladigan va boshqa nutqiy nuksonli shaxslar yomon ta’syr ko‘rsatishi mumkin. Bolalarning muloqotga bo‘lgan o‘rinishlarini rag‘batlantirish, lekin haddan ortiq og‘ir nutqdan saqlash tavsiya etiladi. Asabiylanishga moyil bo‘lgan bolalar uchun juda tinch sharoig yaratish: nutqiy muloqot va shovqinln o‘yinlarni cheklash, yangi o‘yinchoqlar berib o‘rgatmaslik, ular atrofida ko‘pchilikning to‘planishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Bola maktabga borgan paytda duduqlanish paydo bo‘lishi yoki uning yangidan qaytalanishi mumkin. Shuning uchun maktabda o‘qish yillarida ham duduqlanishni oldini olish zarur. Bolalarni to‘satdan chaqirmaslik va ularni tezda javob qaytarishga majbur qilmaslik sinfda, duduqlanuvchi atrofida yaxshi muhitni tashkil etish; ota-onalar, muallimlar va boshqalarga logopedik bilimlar berish tavsiya etiladi.

Pubertat davrida o‘smirning asab sistemasi holatiga, uning atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatiga; o‘zini shaxs sifatida namoyon etishdagi o‘xshash usullar va hokazolarga e’tibor beriladi. O‘smirning asab-ruhiy holatidagi turli xil chetga chiqishlar, asab faoliyatidagi, hisobiy-irodaviy sohada zo‘riqish, o‘ziga noto‘g‘ri baho berish, shaxsda salbiy

xususiyatlarning ko‘payib ketishi duduqlanish paydo bo‘lishi yoki uning qaytalanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ana shu sabablardan kelib chiqib, duduqlanishning qaytalanishini oldini olishga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Duduqlanishning qaytalanishida quyidagi sabablarni ko‘rsatish mumkin: yomon sotsial-maishiy shart-sharoitlar (asabiylashish holati, bola bilan qo‘pol muomalada bo‘lish, o‘qish, qo‘shimcha mashg‘ulot va ish bilan asab sistemasini haddan ortiq charchatib qo‘yish, ruhiy zo‘riqish); logopedik mashg‘ulotlar jarayonida muvaffaqiyatlarni yetarlicha puxta mustahkamlamaslik, shifoxonaga joylab davolashning yo‘lga qo‘yilmagani, duduqlanuvchining shaxsi qayta tarbiyalanmasligi; duduqlanish paydo bo‘lgan zaminni yetarlicha to‘liq bartaraf etmaslik, bunga misol qilib asabiylashish, his-hayajonlarni bostirish, atrofdagilar bilan asabiy munosabatda bo‘lish, sekin o‘tib ketadigan surunkali kasalliklar va boshqalarni keltirish mumkin; asab sistemasini ishdan chiqaradigan kasalliklar; ruhiy shikastlanish, duduqlanishi yo‘qolgan bolaga atrofdagilarning befarq munosabatda bo‘lishi; faoliyat tartibining, shuningdek uxlash, ovqatlanish, dam olish tartiblarining buzilishi; bartaraf etilmagan, jarohatlantiruvchi, doimiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil, masalan, ota yoki onaning duduqlanishi va hokazolar.

Duduqlanish qaytalanishining yuqoridagi va boshqa sabablarini bilgan holda, logoped logopedik mashg‘ulotlar jarayonida ham, ular tugaganidan keyin ham doimiy profilaktik ishlarni olib boradi.

2. Dizartriya nutq kamchiligini logopedik tekshirish texnologiyasini olib borishad bolalar haqida to‘liq anamnez ma’lumotlariga tayaniladi. Bolaning ilk tug‘ilgan vaqtidan boshlab onani qanday emganligi ya’ni emgan vaqtida kuzatiladigan nuqsonlar, asosan dizartriyani bulbar turida boladagi nuqsonlar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

*Nutqsiz nuqsonlar analizi*

- Chaqaloq qichqirig‘iniing zaifligi yoki yo‘qligi (afoniya).
- Emish jarayonining buzilishi, yutinish.
- Yuzaki nafas olish turining kuzatilishi.
- Nutqsiz reflekslarning kuzatilmasligi.
- Yuzdagi assimetriyalar.
- Pastki labning osilishi. Buning natijasida bola ko‘krakni olib ema olmaydi.
- Ovoz reaksiyalarning yaxshi rivojlanmaganligi.
- Ilk so‘zlarning( lepit) kechikib rivojlanishi.
- Bola uzoq vaqt chaynay olmaydi, tishlay olmaydi, idishdan icha olmaydi, bola yutinish vaqtida ko‘p tiqiladi.
- Tug‘ma nuqsonlarning bo‘lishi, artikulyatsion nutqga ta’siri.

*Nutq kamchiliklar analizi*

A) artikulyatsion motorikani holati:

- Tinch holatda.
- Mimik harakatlar holatida.
- Umumiy harakatlarda, asosan artikulyatsion harakatda.

Harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi:

- Temp.
- Bir holatdan ikkinchi holatga to‘ri o‘tishi.
- Charchash holati.
- Aniqlik.
- Harakatlarni bajarilishi.
- Nutq mushaklari va mushaklar tonusining holati.

B) bolaning umumiy motorika holatidagi harakatlar va unda kuzatiladigan kamchiliklar.

V) talaffuzdagi nuqsonlar

- Kommunikativ material xarakteri.

- Talaffuzning tezligi.

- Muloqat holati.

- Tovushlar talaffuzi va boshqalarning tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga aniqlik kiritish.

- Bolalarda turli xil tovushlarga eshitib farqlash.

Tovushlar talaffuzini o‘rganishda tovush analizi va eshitish idrokiga alohida e’tibor beriladi.

3. Logoped rinolaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarni tekshirish vaqtida quyidagilar inobatga olinadi:

1) yumshoq tanglayning yutinish holati.

2) yumshoq va qattiq tanglayning holati.

3) tanglayning uzunligi.

4) orqa tomoq devorining holati (aktiv, passiv, funksional).

5) jag‘larda nuqsonlarning kuzatilish.

6) artikulyatsion nutq apparati xususiyatlari.

7) mimik harakatlarning xususiyatlari.

Ushbu logopedik tekshirishlar operatsiyadan oldin yoki operatsiyadan so‘ng ham inobatga olinadi.

Rinolaliyada nutq kechikib rivojlanadi, ya’ni birinchi so‘zlar ikki yoshda va undan keyin paydo bo‘ladi. Nutq o‘ziga xos sifatli xususiyatlarga ega bo‘ladi. Impressiv nutq nisbatan normal rivojlanadi, ekspressiv nutqda ahamiyatli o‘zgarishlar bo‘ladi. Birinchi navbatda bemorlar nutqini kam tushunarliligini ta’kidlash zarur. Og‘iz bo‘shlig‘ida tilning nuqsonli holati natijasida undosh tovushlar til uchi holatini o‘zgarishi va yuz muskullarining ortiqcha faollashuvi hisobiga hosil bo‘ladi. Til uchi holatini bu kabi o‘zgarishlar nisbatan doimiy bo‘lib, ma’lum bir tovushlarning artikulyatsiyasi bilan o‘zaro munosbatda bo‘ladi.

Rinolaliyada tovushlar talaffuzi yalpi (total) buzilgan bo‘ladi. Bemorlarda nuqson mavjudligini mustaqil anglash odatda bo‘lmaydi yoki

tanqidiylik ko‘zi bilan qarash pasaygan bo‘ladi. Nutqning magnit yozuvlarini eshitib chiqish bemorlarni jiddiy logopedik mashg‘ulotlarga stimullashtiradi.

Rinolaliyada nutq faoliyati strukturasida fonetiko-fonematik tizim nuqsoni buzilishning asosiy, yetakchi zvenosi bo‘lib hisoblanadi. Nutqni fonetik jihatdan jihozlashni buzilishi birlamchi bo‘lib hisoblanib, u nutqning leksik-grammatik tuzumining shakllanishiga birmuncha ta’sir qiladi, lekin chuqur sifat o‘zgarishlari odatda rinolaliyaning boshqa nutq buzilishlari bilan birga kelishida kuzatiladi.

Rinolaliyada nutqning to‘liq bo‘lmaganligi bemorning barcha psixik funksiyalarini shakllanishiga va birinchi navbatda shaxsning kamol topishiga ta’sir qiladi. Kommunikatsiya vositasi sifatida nutqning buzilishi bemorlarning kollektivdagi holatini qiyinlashtiradi. Ko‘pincha kollektiv bilan ularning muloqoti bir tomonlama bo‘ladi, aloqa natijasi esa bemorlarga katta zarba beradi. Bolalarda uyalish, ta’sirlanuvchanlik, odamlarga aralashmaslik rivojlanadi.

Duduqlanish – nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishi natijasida sur’at ohangining buzilishidir.

Dizartriya – nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog‘liq holdagi buzulishdir.

Rinolaliya – tovush tembri va talaffuzning nutq apparatidagi anatomik fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzulishdir.

**Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Duduqlanish haqida umumiy tushunchalar bering.
2. Rinolaliya haqida umumiy tushunchalar bering.
3. Dizartriya haqida umumiy tushunchalar bering.
4. Duduqlanish kasalliga yuzaga keladigan nutqiy kamchiliklar qaysilar?

5. Rinolaliyaning ochiq turida qaysi nutq yoki tovush buzilishlari sodir bo‘ladi?

6. Rinolaliyadagi nutq kamchiliklarini aniqlash va tekshirish usullari qaysilar?

7. Dizartriya belgilarini bartaraf etishda logopedik ta’sir ko‘lami qanday?

8. Rinolaliya belgilarini bartaraf etishda logopedik ta’sir ko‘lami qanday?

**Mustahkamlash uchun test topshiriqlari:**

**1. Tovush tembri va talaffuzning nutq apparatidagi anatomik fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzulish qanday kasallik?**

A) Rinolaliya;

B) Dizartriya;

C) Disgrafiya;

D) Logonevroz.

**2. Nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishi natijasida sur’at ohangining buzilishi qanday kasallik?**

A) Duduqlanish;

B) Rinolaliya;

C) Rotatism;

D) Disgrafiya.

**3. Dudqlanish kasalligning yana bir nomi qanday?**

A) Logonevroz;

B) Rotatizm;

C) Disleksiya;

D) Rinolaliya.

**4. Rinolalik bolalarda birinchi so'zlar necha yoshdan boshlab aytilana boshlaydi?**

A) 2 yoshdan;

B) 22 oylikdan;

C) 12 oylikdan;

D) 13 – 15 oylikdan boshlab.

**5. Duduqlanuvchi bolalarda logopedik mashg'ulotlarni amalga oshirish uchun eng qulay yosh davri necha yosh?**

A) 3 – 4 yosh;

B) 4 – 6 yosh;

C) 1 – 2 yosh;

D) 10 – 12 yosh.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. M.Y.Ayupova "Logopediya". Toshkent, 2007 yil, 463 b.
2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.
3. Qodirova F.U. "Texnologiya 4". Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
4. Qodirova F.U. "Texnologiya 3". Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.



## Logopedik ta’sir jarayonida oila bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish texnologiyasi

**Reja:**

1. Logopedik ta’sir jarayonida oila bilan hankorlik qilish yo‘llari va shakillari.
2. Ota-ona va logoped orasidagi hamkorlik darajalari.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir.

Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta’minlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir.

Bolalik inson hayotidagi go‘zal va baxtli davrdir, uni turlicha so‘zlar bilan ta’riflash mumkin: baxtli, beg‘am, beg‘ubor va h.k., lekin ba’zi bolalar uchun u og‘ir. Avvalo ular aybdor bo‘lmagan sabablarga ko‘ra jismoniy va aqliy kamchiliklar, nuqsonlar rivojlanmaslik natijasidir. Bu vaziyat ota-onalarning ruhiy holatiga juda kuchli ta’sir qiladi. Ba’zi hollarda oilaviy baxtsizlikka, tushkunlikka tushib qolish holatiga sabab bo‘ladi.

Korreksion – tarbiyaviy jarayonga ota-onalarni maksimal darajada jalb etish va ularga professional yordam berish zarurligi kundan-kunga muxim masala bo‘lib bormoqda.

Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarni korreksion-rivojlantiruvchi ta’limning individual dasturlariga jalb etish-

ning pedagogik va tashkiliy usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan sanaladi. Ota-onalarni «Biz va bizning farzandimiz» tizimidagi adekvat tarbiyaviy pozitsiyasini shakllantirish maqsadidagi mutaxassis – defektologni oila bilan ishlash jarayonining samarali yo‘nalishlarini modellashtirishga xarakat silinmoqda. Nutqida nuqsoni mavjud bolani oilada tarbiyalash va rivojlantirishda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning shakli va mazmuni ularni logoped (defektolog)lar bilan hamkorlik darajasi bilan aniqlandi. Ota-onalar bilan ishlashni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga tayanamiz:

- Ota-onalarning defektologik yordam olishga tayyorlik darajasini hisobga oluvchi differensiallashgan yordam;
- Ota-onalar tomonidan qayta aloqaning mavjudligi;
- Korreksion o‘qishning turli xil davrida olib boriladigan ishning u yoki bu shakli (ko‘rinishi)ning ustuvorligi.

Hamkorlikini tashkil etish rejasini amalga oshirishda eng katta qiyinchilik qiziqishi kam bo‘lgan ota-onalarda paydo bo‘ladi. Bunday oilalar bilan shug‘ullanganda eng samarali ish shakliy ta’sir etishning individual ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi, jumladan individual tarzda maslahat (konsultatsiya) berishdir. Individual maslahat berish bir necha bosqichda olib borildi. Har bir bosqichda o‘ziga xos va mos masalalar amalga oshirilib, o‘ziga xos usullardan foydalanildi. Birinchi bosqich vazifasi-hamkorlikni rad etgan va unga salbiy qarashda bo‘lgan ota-onalar bilan ochiq va ishonchli munosabat o‘rnatish. Shu maqsadda individual maslahatning maqbul shakllaridan biri bo‘lgan suhbatdan foydalanildi. Suhbat mazmuni shu bosqich vazifasi asosida olib borildi. Boshlang‘ich qisqa suhbatda ota-onalarning pedagogik qobiliyati pastligi va ularni noto‘g‘ri xatta-harakatlarini tanqid qilishdan voz kechiladi. Birinchi uchrashuvda ota-onalar xatoliklarini sezmaganday bo‘lishga va ular ishonchini oqlashga harakat qilinadi. Ota-onalar bilan olib boriladigan individual ishning ikkinchi bosqichi maslahat, tavsiyanoma ko‘rinishida

olib boriladi nutq nuqsonini og‘irligiga qarab rejalashtiriladi. Ota- onalar qo‘llashda bolani tashxisi, ijtimoiy muhit va korreksion-rivojlantiruvchi ishning usullarini egallagan bo‘lishlari kerak. Oilasi a’zolari ham ta’lim va tarbiya ishlaridan chetda turmaydi va bu ishlarga faol qatnashadilar.

Tavsiyalar maxsus ta’limga ehtiyoj sezgan bolalar bilan korreksion-ta’limiy ishlarni oilada olib borish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, uni rivojlanishda orqada qolgan har qanday yoshdagi (ilk yoshdan maktab yoshtgacha) va har qanday nuqson turiga ega bo‘lgan bolalarga nisbatan qo‘llash mumkin. Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bola rivojining barcha asosiy sohalarini qamrab olishi kerak: nutqiy, kognitiv, ijtimoiy-iqtisodiy, motor va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, shuningdek davolash va tibbiy reabilitatsiy.

Individual rivojlantiruvchi dastur quyidagi vazifalarni hal etadi:

tashxisiy vazifalar:

- alohida funksional tizimlarning shakllanib yetilish muddatlari turlicha ekanini hisobga olgan holda bolaning psixofizik holatini muttasil va har tomonlama o‘rganib borish;

- tibbiy va ijtimoiy havf-xatarlar omillarining bola rivojlanishiga ta’sirini baholash;

- bolaning individual ta’lim davridagi holatlari istiqbolini avvaldan belgilash;

- korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar: kamchilikni yengish va o‘rnini to‘ldirish, bolani ijtimoiy atrof muhitda moslashuviga erishish;

ta’limiy vazifalar:

- bolalarni ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish usullariga o‘rgatish;

- ularning bilish faolligini rivojlantirish;

- har bir yosh davri uchun xos bo‘lgan bolalar faoliyatining barcha turlarini shakllantirish;

tarbiyaviy vazifalar:

- ijtimoiy muhitga moslashtirish;

- bolaning oilada mustaqilligini oshirish;

- maktabgacha yoshdagi bolaning faoliyati va ahloqida ma’naviy-ahloqiy mezonlarni tarkib toptirish, shuningdek bolada ijobiy insoniy fazilatlarni tarbiyalash;

- bilish faoliyati bo‘limiga tevarak-atrof bilan tanishtirish;

- matematika hamda o‘yin, mehnat, rasm, applikatsiya kabi faoliyat turlari bo‘yicha mashg‘ulotlar kiradi;

- nutqni rivojlantirish bo‘limiga nutq nuqsonini bartaraf etish, rivojlatirish, o‘stirish va erkin muloqotga o‘rgatish;

- motor rivojlantirish bo‘limiga ertalabki gimnastika va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, harakatli o‘yinlar kiradi;

- ijtimoiy-hissiy bo‘limga bayramlar, musiqa mashg‘ulotlari va boshqa tadbirlar kiradi;

- o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga ijtimoiy-maishiy xizmatga yo‘altirish va mehnat mashg‘ulotlari kiradi.

- musiqaviy tarbiya ishlari quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi: musiqani tinglash, kuylash, raqsga tushish, musiqa asboblarini chalish. Ota-onalarni farzandlari bilan xamkorligini shakllantirish buyicha indvidual dastur quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni kuzda tutadi. Tarbiyaning faol va ishonchli usulini shakllantirish, psixofizik rivojla-nishida nuqsoni bor bolalarni kichik yoshdagi bola bilan predmet-o‘yin faoliyatini tashkil etishga ota-onalarni o‘rgatish. Ota-onalar burchagida ular uchun foydali axborot beriladi. Unda tashkiliy tartibdagi ma’lu-motlar: guruh tarkibi, pedagoglarning aniq ism-familiyalari, kun tartibi, mashg‘ulotlar jadvali bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bu kabi ma’lumot ota-onalarga bolalarning maktabgacha muassasada bolalarning hayoti haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi deb Ota-onalar bilan ishlarni olib borishda izchillik, tizimlilik, ularning imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim. Logoped va ota-onalarning o‘zaro tushunishi,

hamkorlikdagi ishtiroki va faolligi rivojlantiruvchi va korreksion ishlarning umumiy natijasini ko‘p jihatdan belgilaydi.

## 1-LOGOPEDIK MASHG‘ULOTI.

| sana | Mavzu. Maqsad | Mashg‘ulotning borishi | Jihoz | Vaqt |
|---|---|---|---|---|
| | ***Mavzu:*** Oila muqaddas<br><br>***Ta‘limiy maqsad:*** Bolalarda oila qadriyatlarini tashkil toptirish va ular asosida oila a‘zolarini nomlab chiqish, nutq tarkibiga oila a‘zolarini nomlarini to‘g‘ri nomlashlariga o‘rgatish.<br>***Korreksion maqsad:*** Nutqini o‘stirish, lug‘at boyligini oshirish, tovushlarning talaffuz kamchiliklarini aniqlash va tuzatish. Artikulyasion apparat, umumiy, mayda qo‘l va barmoqlar motorikasini rivojlantirish. To‘g‘ri nutqiy | **I.Tashkiliy qism:**<br>-Salomlashish<br>-Bolani diqqatini mashg‘ulotga qaratish.<br>-oy, yil fasllarni nomlatish.<br>**II.*Asosiy qism***:<br>**II. Artikulyatsion gimnastika**.<br>**Massaj:** Yuzimizni massaj qilishni boshlaymiz, meni ortimdan takrorla!<br>***A) Yuz mushaklarining massaji:***<br>Yuzni uqalash va yumshatish<br>2-4 ta barmoqlar bilan bajariladi.Harakatlar ikki tomonga bir tekis olib boriladi.<br>1) Peshona o‘rtasidan iyakkacha.<br>2) Peshona o‘rtasidan quloqqacha.<br>3) Burundan quloq chanog‘igacha.<br>4) Quloqdan yuz bo‘ylab burungacha.<br>***B) Nafas mashqi:***<br>1) “Qanotlar”. Qo‘llaringni yon tomonga tushir. Qo‘lingni boshingni orqasiga qo‘y-nafas olamiz.Qo‘llar dastlabki holatga qaytarib-nafas chiqaramiz.<br>2) “Kapalakni tutamiz”. Birgalikda qo‘llarimizni ikki tomonga ko‘taramiz-nafas olamiz, so‘ng qayrilamiz. Keyin yangidan nafas olamiz, chiqarishda tanani boshqa tomonga buramiz. | Fasl, rasmlari mavzuga oid ko‘rgazmali tasvir.<br><br>Krem bolalar uchun, qo‘l yuvish vositasi.<br><br>Oyna | Taxminiy vaqt |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | nafas olish va chiqarish, kinestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so‘zlarni tovush-harf analizini rivojlantirish. Tafakkur, idrok va xotira jarayonlarini rivojlantirish.<br><br>***<u>Tarbiyaviy maqsad:</u>***<br>Bolani mashg‘ulot davomida intizom saqlashiga erishish. Mashg‘ulotga qiziqishini orttirish. Ko‘rsatmalarni to‘g‘ri va ongli bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish. Bolalarni oila va oila a’zolarini hurmat qilishga o‘rgatish, insoniylik fazilatlarini tarbiyalash. | ***<u>D)Lab mashqlari:</u>***<br>-“Tabassum”, “To‘siqcha”;<br>-“Xartumcha”;<br>-“Shirin murabbo”.<br>***<u>E)Til mashqlari:</u>***<br>-“Bo‘yoqchi”;<br>-“Zinapoyalar”;<br>-“Tepa tishlarni tozalaymiz”;<br>-“Kosacha”;<br>-“Kosachani sindirmang”;<br>-“Arg‘imchoq”;<br>-“Qo‘ziqorincha”.<br>***O‘tilganlarni takrorlash.***<br>III.**Yangi Mavzu** ***“MENING OILAM”***<br><br>Har bir oila o‘z a‘zolaridan iborat. Bizning oilmizda kimlar bor buvi sizga kim bo‘ladi?<br>Buva sizga kim bo‘ladi?<br>Ular aslida bizninig va sizning ota-onalaringizni voyaga yetkazgan insonlardir.<br>Hamma o‘z oilasi bilan tanishtirib chiqadi.<br>Bobo – so‘zini yana boshqacha nomlash ham mumkin, misol uchun BUVA, DODA<br>Buvi – ya‘ni ota-onamizning onasi.<br>So‘zlarni lug‘at tarkibiga kiritish:<br>AKA; UKA; OPA; SINGIL; AMMA; AMAKI; HOLA; TOG‘A; KELNOYI; OPOQI; JIYAN; AMMAVACHA; AMAKIVACHCHA; TOG‘AVACHCHA; HOLAVACHCHA; NEVARA; EVARA.<br>Qarindoshlar nomini to‘g‘ri talaffuz qilib bu so‘zlar kimga nisbatan qo‘llaninlishini o‘rgatish. | Rivoyat asosida ko‘rgazma. | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. **Jismoniy daqiqa**<br>Bolalar, endi hammamiz o'rnimizdan turamiz va doirabo'lib turib olamiz. Qo'llarimizni isitamiz: unga puflaymiz: "o-o-o", kaftlarimizni bir-biriga ishqaymiz, tezlashtiramiz. Turgan joyimizda 5 gacha sanab sakraymiz.<br>3. **Mustahkamlash**<br>So'zlar asosida kichik gaplar tuzdirish<br>Mening akam …….<br>Mening onam …………….<br>Opa va singil……….<br>Mening otam………………<br>Bog'langan nutq uchun gaplar tuzdirish<br>Meni ota-onam yaxshi ko'radi chunki …………………..<br>Men bobo va buvimni yaxshi ko'raman chunki…………..<br>Rasmlar asosida kichik hikoyalar tuzdirish, bog'langan nutqni o'stirish uchun rasmlar: oila a'zolari dasturxon ustida odobi, oila a'zolarining kattalarga hurmatlari, kichik bolalarning dasturxon oldidagi odobi.<br>**IV. Yakunlash**<br>Bu yil mamlakatimizda "sog'lom ona va sog'lom bola" yili bizning mamlakatda oila muqaddas dargoh hisoblanadi. Bizning oilamiz ota-onamizga qilgan hizmatimiz yurt tinchligi uchun qilgan hizmat bilan barobar shu sababli biz oyi ,adalarimiz nimaiki iltimos qilshsa yoki buyruq berishsa hop bo'ladi deb bajarishimiz zarur.<br>**1. Mashg'ulotlarga yakun yasash**<br>**2. Rag'batlantirish**: faol qatnashgan, bolalarga rag'bat kartochkalarini berish. | | |

# 2-LOGOPEDIK MASHG‘ULOT.

| sana | Mavzu. Maqsad | Mashg‘ulotning borishi | Jihoz | Vaqt |
|---|---|---|---|---|
| | ***Mavzu:***<br>Tana a‘zolari<br><br>***Ta‘limiy maqsad:***<br>bolalarni fasllarga qarab tanlashlari, va tana kiyimlarini nomlashi uni qisimlarini ham to‘g‘ri talaffuz ettirish hamda faol nutq tarkibiga kiritish. bolalarga kiyimlar va ularning turlari haqida ma’lumot berish va kiyinish qoidalarini eslatib o‘tish. Dizaynerlik, tikuvchilik kasblari haqida boshlang‘ich ma’lumotlar berish.<br><br>***Korreksion maqsad:***<br>Nutqini o‘stirish, lug‘at boyligini oshirish, | **I.Tashkiliy qism:**<br>-Salomlashish<br>-Bolani diqqatini mashg‘ulotga qaratish.<br>-oy, yil fasllarni nomlatish.<br>**II.*Asosiy qism*:**<br>**II ARTIKULATSION GIMNASTIKA**<br>1.BARMOQ MASHQI: “uzukcha mashqi” bosh barmoq bilan ko‘rsatkich barmoq birlashtirilib uzuk shakliga keltiramiz. Har bir barmoqqa navbatma-navbat taqib chiqmiz.<br>**2.artikulatsion mashqlar:**<br>Nafas mashqi – “Gul” – burun orqali chuqur sekin nafas olishni mashq qildirish.(gullarning yoqimli hidini hidlash).<br>Lablar uchun mashqlar- a)lablarni imkon qadar jilmayamiz;<br>b)lablarni imkon qadar yig‘amiz; mashqni ovoz ishtirokida bajaramiz jilmayganda “i-i-i-i-i“, lablar yig‘ilganda “u-u-u-u”, unli tovushar bilan birga talaffuz qilamiz; d) Lablar tezligi va ovoz tezligini oshirib boramiz 1-2 daqiqa. e) Lablar jilmaygan holda, tishlar ko‘rinib turadi; f) lablar jilmaygan holda bir-biriga tegib turadi; g) lablarni ochish va yopish tezligi ortib boradi.<br>Til uchun mashqlar – a) “naycha” lablarcho‘chaygan holatda, tilni yon tomonlari ko‘taramiz, til o‘rtasida ariqcha hosil qilib til uchiga puflash mashqi. b) “tepalikda shamol | Fasl , rasmlari mavzuga oid ko‘rgazmali tasvir.<br><br>Krem bolalar uchun, qo‘l yuvish vositasi.<br><br>Oyna<br><br>Ko‘rgazmali kartochkalar. | Taxminiy vaqt |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | tovushlarning talaffuz kamchiliklarini aniqlash va tuzatish.<br>Artikulyasion apparat, umumiy, mayda qo‘l va barmoqlar motorikasini rivojlantirish.<br>To‘g‘ri nutqiy nafas olish va chiqarish, kinestetik sezgilarni shakllantirish.<br>Fonematik idrok, so‘zlarni tovush-harf analizini rivojlantirish.<br>Tafakkur, idrok va xotira jarayonlarini rivojlantirish.<br><br>***<u>Tarbiyaviy maqsad:</u>***<br>Mashg‘ulot davomida o‘zaro hurmat sabr - toqat kabihislatlarga tarbiyalash kiyimlarni ozoda kiyishga va pala – partishlikni oldini olishga, saramjonlik yaxshi fazilat, uni qadrlash. | esmoqda” tabassum qilib o‘g‘izni ochib tilni tepalik holatiga keltiramiz. Keyin tinch holatda til o‘rtasi bo‘ylab puflaymiz. Havo sovuq bo‘lishikerak.<br>d) “kurakchaga puflaymiz” tabassum holatida og‘izni ochamiz, tilchetlarini keng yozib pastki lablar ustiga qo‘yamiz, tinch holatda tilning o‘rtasiga puflanadi.<br>***O‘tilganlarni takrorlash.***<br>**III ASOSIY QISM**<br>Odamning tana a‘zolari bo‘linadi:<br>1.Boshdagi tana a‘zolar: bosh, ko‘z, quloq, burun, og‘iz, qosh, sochlar;<br>A) ogiz bo‘shligimizda: lablar, tishlar, milk, til;<br>B) bosh qismimiz: peshona, yuz, ensa, iyak, dahan qismlariga bo‘linadi.<br>2. Boshqa tana azolar: bo‘yin, yelka, ko‘krak, qorin, bel, qo‘l, va oyoq sohalariga bo‘linadi<br>A) qo‘llarimiz: yelka bilak, tirsak panjalar yoki barmoqlar<br>B) oyoqlarimiz: son, boldir, tizza, tovon, oyoq barmoqlariga bo‘linadi.<br>Kiyimlarimizga keladigan bo‘lsak ular o‘g‘il bolalarda va qiz bolalarda bir-biridan farq qiladi. Turli xil kiyimlar kiygan o‘g‘il va qiz bolalarning tasvirlari namoyish etish bilan mavzu yoritib boriladi.<br>Kiyimlar nimalardan tikiladi?<br>Ular bizga yetib kelguncha qanday bosqichlarni bosib o‘tadi?<br>Qiz bolalar kiyimlari o‘g‘il bolalar kiyimlaridan farq qiladimi?<br>Qizlarning tor bichimli shim kiyishlari to‘g‘rimi? degan savollarga javoblar olinadi.<br>Kiyimni yuvish, dazmollash, saqlash | Ko‘rgamali vositalar. | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Ota-onalari olib bergan kiyimlarni asrab avaylashga o‘rgatish. | qoidalari amaliy tarzda ko‘rsatib berish mumkin.<br>2. **Jismoniy daqiqa**<br>TETIKLASHTIRUVCHI MASHQ. “QO‘NG‘IZLAR” VA “CHIVINLAR” O‘YINI<br>Bolalar, hozir ikki guruhga bo‘linamiz. Birinchi guruh bolalari chivinlar bo‘lishadi, ikkinchi guruh bolalari qo‘ng‘izlar bo‘lishadi. Chivinlar bu yerda, qo‘ng‘izlar esa mana bu yerda yashashadi. Qachon men “Chivinlar uchib ketishdi” deb aytsam, chivinlar xona bo‘ylab yugurib ketishadi va “zzz” deb ovoz chiqarishadi. Men “Qo‘ng‘izlar uchib ketishdi” deb aytsam, qo‘ng‘izlar xona bo‘ylab yugurib ketishadi va “zzz” deb ovoz chiqarishadi.<br>**3. Mustahkamlash**<br>Ko‘rgazmali vositalar bolalarga ko‘rsatiladi va tana qismlari nomlatiladi, qiz bolaning kiyimlari, o‘g‘il bolaning kiyimlari, qishki, yozgi, kuzgi va bohorgi mavsumga mos kiyimlari asosida to‘rtinchisi oshiqcha o‘yini o‘ynatiladi.<br>**IV. Yakunlash**<br>Kiyimni yuvish, dazmollash, saqlash qoidalari nima uchun kerakligini ota-onangizdan so‘rang.<br>**1. Mashg‘ulotlarga yakun yasash**<br>**2. Rag‘batlantirish**:<br>bolalarga rag‘bat kartochkalarini berish. | | |

# 3-LOGOPEDIK MASHG‘ULOT.

| sana | Mavzu. Maqsad | Mashg‘ulotning borishi | Jihoz | Vaqt |
|---|---|---|---|---|
| | ***Mavzu:***<br><br>Kiyimlar<br><br><br>***Ta‘limiy maqsad:*** bolalarni fasllarga qarab tanlashlari, va tana kiyimlarini nomlashi uni qisimlarini ham to‘g‘ri talaffuz ettirish hamda faol nutq tarkibiga kiritish. bolalarga kiyimlar va ularning turlari haqida ma’lumot berish va kiyinish qoidalarini eslatib o‘tish. Dizaynerlik, tikuvchilik kasblari haqida boshlang‘ich ma’lumotlar berish.<br><br>***Korreksion maqsad:*** Nutqini o‘stirish, lug‘at boyligini | **I. Tashkiliy qism:**<br>-Salomlashish<br>-Bolani diqqatini mashg‘ulotga qaratish.<br>-oy, yil fasllarni nomlatish.<br>**II.*Asosiy qism***:<br>**II ARTIKULATSION GIMNASTIKA**<br>1.BARMOQ MASHQI: “uzukcha mashqi” bosh barmoq bilan ko‘rsatkich barmoq birlashtirilib uzuk shakliga keltiramiz. Har bir barmoqqa navbatma – navbat taqib chiqmiz.<br>**2.artikulatsion mashqlar:**<br>Nafas mashqi – “Gul” – burun orqali chuqur sekin nafas olishni mashq qildirish. (gullarning yoqimli hidini hidlash).<br>Lablar uchun mashqlar- a) lablarni imkon qadar jilmayamiz;<br>b) lablarni imkon qadar yig‘amiz; mashqni ovoz ishtirokida bajaramiz jilmayganda “i-i-i-i-i“, lablar yig‘ilganda “u-u-u-u”, unli tovushar bilan birga talaffuz qilamiz; d) Lablar tezligi va ovoz tezligini oshirib boramiz 1-2 daqiqa. e) Lablar jilmaygan holda, tishlar ko‘rinib turadi; f) lablar jilmaygan holda bir-biriga tegib turadi. g) lablarnin ochish va yopish tezligi ortib boradi.<br>Til uchun mashqlar – a) “naycha” lablar cho‘chchaygan holata, tilni yon tomonlari ko‘taramiz, til o‘rtasida ariqchahosil qilib til uchiga puflash mashqi. b) “tepalikda shamol esmoqda” tabassum qilib o‘g‘izni ochib tilni tepalik holatiga krltiramiz. Keyin tinch holatda til o‘rtasi | Fasl, rasmlari mavzuga oid ko‘rgazmali tasvir.<br><br>Krem bolalar uchun, qo‘l yuvish vositasi.<br><br>Oyna<br><br>Ko‘rgazmali kartochkalar. | Taxminiy vaqt |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | oshirish, tovushlarning talaffuz kamchiliklarini aniqlash va tuzatish. Artikulyasion apparat, umumiy, mayda qo‘l va barmoqlar motorikasini rivojlantirish. To‘g‘ri nutqiy nafas olish va chiqarish, kinestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so‘zlarni tovush-harf analizini rivojlantirish. Tafakkur, idrok va xotira jarayonlarini rivojlantirish.<br><br>***<u>Tarbiyaviy maqsad:</u>***<br>Mashg‘ulot davomida o‘zaro hurmat sabr-toqat kabi hislatlarga tarbiyalash kiyimlarni ozoda kiyishga va pala – partishlikni oldini olishga, saramjonlik yaxshi fazilat, | bo‘ylab puflaymiz. Xavo sovuq bo‘lishi kerak. d) “kurakchaga puflaymiz” tabassum holatida og‘izni ochamiz, til chetlarini keng yozib pastki lablar ustiga qo‘yamiz, tinch holatda tilning o‘rtasiga puflanadi<br>***O‘tilganlarni takrorlash.***<br>**III ASOSIY QISM**.<br>Inson tana azolari turli xil bo‘lganligi va nomlanishi jihatdan har xilligi sababli kiyimlar xam ularga monand ataladi.<br><br>*Bosh kiyimlar: oyoq kiyimlar: Boshqa xil kiyimlar*<br>DO‘PPI TUFLIK<br>BO‘YINBOG‘<br>QALPOQ ETIKSHARF<br>SHLYAPA KALISH<br>QO‘LQOP<br>TELPAK KRASOVKA<br>BELBOG‘<br>RO‘MOL MAXSI<br>PAYTAVA<br>KEPKA KOVUSHICH<br>KIYIMLAR<br>Kiyimlarning nomlari rasmlar asosida<br>ko‘ylak palto<br>Halat va lozim kurtka<br>Kofta pashch<br>Yubka djemper<br>Suzish kiyimi Shim<br>Shalvar Futbolka<br>Shortik Mayka<br>Kiyimlarning qisimlari<br>Yeng chok<br>Yoqa cho‘ntak<br>Tugma shimning pochasi<br>2.**Jismoniy daqiqa**<br>TETIKLASHTIRUVCHI MASHQ.<br>Uycha baland bo‘lsin desangiz,<br>Uycha mahkam bo‘lsin desangiz,<br>Mixlarni tekis qoqgin,<br>O‘ngga – to‘q-to‘q-to‘q, | Ko‘rgamali vositalar. | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | uni qadrlash.<br>Ota-onalari olib bergan kiyimlarni asrab avaylashga o‘rgatish. | Chapga – to‘q-to‘q-to‘q,<br>Oldinga – to‘q-to‘q-to‘q.<br>— Bolalar chordana qurib o‘tiradilar;<br>— qo‘llarining kaftlari bilan tizzalariga urishadi;<br>— musht bilan tizzalariga urishadi;<br>— ikki qo‘l mushti bir-biriga uriladi;<br>— o‘ng qo‘l mushti bilan o‘ng tarafga yerga uradilar;<br>— so‘ng chap tarafga;<br>— ikki qo‘l mushti bilan “mix qoqishadi”.<br><br>3.**Mustahkamlash**<br>Rasmlar asosida kiyimlar bo‘laklarini tana a‘zolariga to‘g‘irlab chiqish va ularni nomlash.<br>**IV. Yakunlash**<br>Bugun biz tana azolarimizga mos bo‘lgan kiyimlar bilan tanishdik. Endilikda biz bu so‘zlarni nutq tarkibimizda faol qo‘llab yurishga odatlanaylik.<br><br>**1. Mashg‘ulotlarga yakun yasash**<br>**2. Rag‘batlantirish**: faol qatnashgan, bolalarga rag‘bat kartochkalarini berish. | | |

# 4-LOGOPEDIK MASHG‘ULOT.

| sana | Mavzu. Maqsad | Mashg‘ulotning borishi | Jihoz | Vaqt |
|---|---|---|---|---|
| | ***Mavzu:***<br><br>**Sabzavotla, mevalar. Bog‘**<br><br>***Ta‘limiy maqsad:*** Sabzavotlarni va mevalarni faol nutq tarkibiga kiritish, ularni to‘g‘ri nomlashga o‘rgatish. sabzavotlarni va mevalarni bir guruhga birlashtirish bu asosida nutqda ularni umumiy nolatish. bolaga meva haqida umu-miy ma‘lumot berish. Kattalar mehnatidan bog‘bon mehnati haqida tushuntirish ildizi poyasi bargi mevasi danagi haqida tushuntirish.<br>***Korreksion maqsad:*** Artikulyasion apparat, | **I. Tashkiliy qism:**<br>-Salomlashish<br>-Bolani diqqatini mashg‘ulotga qaratish.<br>-oy, yil fasllarni nomlatish.<br>**II.** ***Asosiy qism***:<br>**II ARTIKULATSION GIMNASTIKA**<br>**1. Massaj:** Yuzimizni massaj qilishni boshlaymiz, meni ortimdan takrorla!<br>***Yuz mushaklarining massaji.***<br>Yuzni uqalash va yumshatish<br>1) Yuzimizni massaj qilishdan boshlaymiz, meni orqamdan takrorla!<br>2) Qo‘llarimizni isitib olamiz, barmoqlarimizni uqalaymiz;<br>3) Peshonamizni silaymiz (2-3 marta);<br>4) Peshonamizdan pastga tomon burun qanotchalariga va quloqlarimizgacha silaymiz (2-3 marta);<br>5) Labimizni ustini (2-3 marta);<br>6) Daxanimizni (2-3 marta) silaymiz.<br>**2. Artikulyatsion mashqlar:**<br>**A)Unli tovush [u] bir nafas chiqarishda ashula ohangida aytiladi.**<br>***“O‘tin yoramiz”-[u].***<br>Dastlabki holatda turib, qo‘llar tushiriladi. Oyoqlar yelka bilan bir tekis, qo‘llar tepaga qarab nafas olinadi. Egilib, ashula ohangida “u-u-u”deb nafas chiqariladi.<br>**B)Lab mashqlari:**<br>-“Tabassum”;<br>- “To‘siqcha”;<br>-“Xartumcha”;<br>-“Shirin murabbo”.<br>**D)Til mashqalari:** | Fasl, rasmlari mavzuga oid ko‘rgazmali tasvir.<br><br>Krem bolalar uchun, qo‘l yuvish vositasi.<br><br>Oyna<br><br>Ko‘rgazmali kartochkalar. | Taxminiy vaqt |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | umumiy, mayda qo'l va barmoqlar motor-ikasini rivoj-lantirish. To'g'ri nutqiy nafas olish va chiqarish, ki-nestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so'zlarni tovush-harf analizini rivojlantirish. Fazoda mo'ljal olish ko'nikma-larini rivojlan-tirish. Katta-kichik tushunchala-rini shakllantirish. Tafakkur, idrok va xotira jarayonlarini rivojlantirish.<br><br>***<u>Tarbiyaviy maqsad:</u>***<br>Bog'da mehnat qilish malakalarini shaklantirish, mevalarni va sabzavotlarni yuvib yeyishga o'rgatish, hamda oziq ovqat mahsulotlarini is'temolini | -"Soatlar";<br>-"Bo'yoqchi";<br>-"Zinapoyalar";<br>-"Tepa tishlarni tozalaymiz";<br>-"Kosacha";<br>-"Kosachani sindirmang";<br>-"Arg'imchoq";<br>-"Qo'ziqorincha".<br>***O'tilganlarni takrorlash.***<br>**III ASOSIY QISM**. *Sabzavotla, mevalar. Bog'*<br>Bolalar bugungi Mavzuyimiz mevalar.<br>Qani hammamiz qaytaramiz<br>Ularni birma bir nomlaymiz.<br>Olma, olxo'ri, smorodina, shaftoli, banan, nok, ...........<br>Bolalar ularni kim o'stiradi bog'bonmi, dexqonmi*<br>Bog'bon<br>Barakalla ularni bog'bon ekib o'stiradi<br>Bolalar dexqon daraxt ko'chatlarini qanday parvarishlaydi?<br>Ariq oladi, chopadi, ekadi, sug'oradi, butalaydi, o'g'itlaydi, o'raydi, teradi, sochadi, beradi.<br>Bolalar bog'bonning ish jihozlari nimalar-dan iborat?<br>Arra, tesha, ketmon, lopadka, o'g'it tashishga arava, chelak, shlanka, tok qaychi.<br>Bizning bog'da surati asosida suhbat<br>Uzumzorda uzum<br>Olmazorda olma<br>Anorzorda anor<br>Do'lanazorda do'lana o'sadi<br>Bananzorda banan<br>Parnikda limon<br>Ularning shakli cho'zinchoq dumaloq yassi doirasimon.<br>Odamlar nimalarni qotirib qoqi turshak qiladilar va qish faslida iste'mol qiladilar.<br>U odamni quvvatli g'ayratli sog'lom baquvvat qiladi. Qorinni to'ydiradi. | Ko'rgamali vositalar. | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | to‘g‘ri tashkil qilishga o‘rgatish. | 2.**Jismoniy daqiqa**<br>“Bozor” o‘yini. Bola faqat meva sabzavotlarni “sotib olib” ikkita alohida savatga solidi<br>3.**Mustahkamlash**<br>Bolalar hozir otlarni ko‘plikda kelishini takrorlaymiz<br>Uzum-uzumlar<br>Shaftoli-shaftolilar<br>Anor-anorlar<br>Gilos-giloslar<br>Ulardan shinni, murabo, pirog, sok, tort, uksus vitaminlar, dorilar, qoqi, turshaklar qilinadi.<br>**IV.Yakunlash**<br>Bugun biz meva va sabzavotlar va bog‘manzarasi bilan tanishdik. Endilikda biz bu so‘zlarni nutq tarkibimizda faol qo‘llab yurishga odatlanaylik.<br>**1.Mashg‘ulotlarga yakun yasash**<br>**2.Rag‘batlantirish**: faol qatnashgan, bolalarga rag‘bat kartochkalarini berish. | | |

## GURUHLI ISHLASH UCHUN LOGOPEDIK MASHG‘ULOT ISHLANMALAR

| | |
|---|---|
| **Birinchi o‘yin:** | "Topib ko‘rchi" |
| **O‘yinning maqsadi:** | Tafakkur va nutqni rivojlantirish |
| **O‘yinning borishi:** | O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh bolalar ikkinchi guruhdan sir tutib ma‘lum bir predmetni o‘ylab topadi. Ikkinchi guruhdagi bolalar savol berib ushbu predmet nimaligini topishlari kerak. Bu savollarga birinchi guruh bolalari "ha" yoki "yo‘q" deb javob beradi. Birinchi guruh bolalari saf bo‘lib turishadi. Ularning ro‘parasida turgan ikkinchi guruh bolalaridan biri: "Uning joni bormi?" deb savol beradi. Birinchi guruhning birinchi a‘zosi "ha" yoki "yo‘q" deb javob beradi. Undan so‘ng, ikkinchi guruhning ikkinchi a‘zosi: "Men uni ko‘rganmanmi?" deb savol beradi. Birinchi guruhning ikkinchi a‘zosi: "ha" va h.k. O‘yin shu tarzda davom etadi. Predmet topilgandan keyin guruhlar o‘z o‘rinlarini almashtirishadi.<br>O‘yin jarayoniga taalluqli izohlar:<br>1. Bolalarga sintez vaklassifikatsiya operatsiyalariga doir "Uning joni bormi (yoki u jonsizmi)?", "U uyda bormi?", "U ko‘chadagi narsami?", "U hayvonmi?", "U odammi?" va h.k. kabi savollar beriladi. |
| | 2. Agar predmet 8 – 10 daqiqa ichida topilmasa, bolalar zerikib qolmasliklari uchun uning nomini aytish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruh bolalariga barchaga ma‘lum predmetlar nomini aytish tavsiya etiladi. |

<table>
<tr><td>Ikkinchi o‘yin:</td><td>"Tovushlarni eshit"</td></tr>
<tr><td>O‘yinning maqsadi:</td><td>Diqqat faolligini rivojlantirish.</td></tr>
<tr><td>O‘yinning borishi:</td><td>O‘yin olib boruvchi oldindan bolalar bilan kelishadi va u biror-bir klavishni bosganda bolalar biror-bir holatga kirishlarini aytadi.<br>O‘yin olib boruvchi musiqani chalayotganda bolalar xona bo‘ylab yurishadi (yoki doira shaklida yurishlari mumkin).
<table>
<tr><td>Tovush</td><td>Xilma-xil holatlar</td></tr>
<tr><td>Registrning pastki klavishini bosamiz</td><td>"Yig‘layotgan majnuntol" holati (oyoqlar yelka kengligida, qo‘l va yelka pastga egilgan, bosh chap yelka tomon egilgan)</td></tr>
<tr><td>Registrning yuqori klavishini bosamiz</td><td>"Daraxt" holati (oyoqning tovonlari birlashtiriladi, panjalari esa ikki yonga qaratiladi, oyoq tekis tutiladi, qo‘llar tepaga ko‘tarilib, boshni orqaga tashlab, qo‘l barmoqlariga qaratiladi).</td></tr>
</table></td></tr>
<tr><td>Uchinchi o‘yin:</td><td>"Alifbo harflari". (harflarni taniydigan bolalar uchun)</td></tr>
<tr><td>O‘yinning maqsadi:</td><td>Diqqatni rivojlantirish jarayoni.</td></tr>
<tr><td>O‘yinning borishi:</td><td>Har bir bolaga alfavit harflari beriladi. Boshlovchi harf nomini aytadi, o‘sha harf bolalardan qaysi biriga berilgan bo‘lsa, o‘sha bola bitta chapak chaladi.</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| **To‘rtinchio‘yin:** | "To‘rt she‘r". |
| **O‘yinning maqsadi:** | Eshitish va harakat analizatorlari bilan bog‘liq diqqatni rivojlantirish. |
| **O‘yinning borishi:** | Bolalar stulda doira shaklida o‘tirishadi. Boshlovchining buyrug‘i bilan bolalar qo‘llari bilan ma‘lum bir harakatni amalga oshirishadi. Qo‘llarning harakati:<br>"Yer" – bolalar qo‘llarini pastga tushirishadi. "Suv" – bolalar qo‘llarini to‘g‘riga uzatishadi. "Havo" – bolalar qo‘llarini tepaga uzatishadi. "Olov" – bolalar qo‘llarini olovga o‘xshatib o‘ynatishadi |
| **Beshinchi o‘yin:** | "Eshit va bajar". |
| **O‘yinning maqsadi:** | Diqqat va xotirani rivojlantirish. |
| **O‘yinning borishi:** | Boshlovchi bir nechta harakatni aytadi, lekin ularni ko‘rsatmaydi. Bu mashqni 1 – 2 marta qaytarishga ruxsat etiladi. Keyin bolalar shu mashqlarni boshlovchi aytgan holatda bajarishi lozim.<br>1-mashq. Boshni oldin o‘ngga, keyin to‘g‘riga burish, yana boshni pastga egish va ko‘tarish kerak.<br>2-mashq. O‘ng qo‘lni tepaga ko‘tarish, keyin chap qo‘lni tepaga ko‘tarish, keyin ikki qo‘lni pastga tushirish kerak.<br>3-mashq. 90-daraja o‘ng tomonga burilish, o‘tirish va turish kerak.<br>4-mashq. O‘ng oyoqni ko‘tarish, chap oyoqda turish, o‘ng oyoqni qo‘yish, chap oyoqni ko‘tarish va h.k. |

| | |
|---|---|
| **Oltinchi o'yin** | "Sehrli so'z". |
| **O'yinning maqsadi:** | o'zini-o'zi boshqarish va diqqatning taqsimlanishini rivojlantirish. |
| **O'yinning borishi:** | 1-variant. Bolalar va boshlovchi doira shaklida turib olishadi. Boshlovchi izoh beradi. U har xil harakatlarni ko'rsatishi va bolalar uning harakatlarini qaytarishlari kerak. Shart shuki, bundan oldin boshlovchi sehrli so'z – "Marhamat" so'zini aytishi lozim. Bu so'zni aytmasa, bolalar harakatni qaytarmaydilar.<br>Eslatma: Sehrli so'zni boshlovchi to'satdan yoki bir necha harakatdan so'ng aytishi kerak.<br>2-variant:<br>O'yin tartibi xuddi birinchi variantga o'xshash, faqat kimdir adashsa, o'rtog'I chiqib ashula, she'r yoki o'ynab berish sharti bilan.<br>Eslatma: Agar o'yin shartlariga kimdir qo'shilmasa, uni majburlash kerak emas. O'yinni davom ettiraverish lozim. Shu tarzda bolalar sekin-asta o'zlariga ishonch hosil qilib, erkin harakatda bo'lishadi. O'yin qoidalariga amal qilmaslik o'z-o'zidan sekin-sekin yo'qolib boradi. |
| **Yettinchi o'yin:** | "O'yinchoqni aniqlash". |
| **O'yinning maqsadi:** | Tafakkur, idrok va ziyraklikni rivojlantirish |
| **O'yinning borishi:** | Boshlovchi tanlanadi va u 2 – 3 daqiqaga xonadan chiqib turadi. Uning yo'qligida bolalardan biri topishmoq o'ylab topadi. Biron bir bola hatti-harakat va mimikalari bilan gap qanday o'yinchoq haqida borayotganini ko'rsatishi kerak. Masalan: "quyoncha" xususidagi topishmoqda bola sakraydi, "sabzi yeydi" va h.k.<br>Boshlovchi topishmoqni topishi va o'yinchoqni qo'liga olib uning nomini baland ovozda aytishi kerak, qolgan bolalar esa, jo'r bo'lib (birgalikda) "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deydilar. Agar javob to'g'ri bo'lsa, qaytadan topishmoq o'ylab topuvchi va |

| | |
|---|---|
| | mazkur topishmoqni topuvchi bolalar tanlanadi. Javob noto‘g‘ri bo‘lsa, boshlovchi o‘zgarmaydi, topishmoqni o‘ylab topish esa boshqa bolaga havola etiladi va o‘yin shu tariqa to‘g‘ri javob topilmaguncha davom etadi. |
| **Sakkizinchi o‘yin:** | "Jumla tuz". |
| **O‘yinning maqsadi:** | Tafakkur va fantaziyani rivojlantirish. |
| **O‘yinning borishi:** | O‘qituvchi guruhdagi bolalarga loto o‘yinidagi biron bir predmet tasviri tushirilgan ikkita rasmni taklif etadi. Guruhdagi bolalar yarim aylana bo‘lib o‘tirishadi va har bir bola navbatma-navbat o‘zlari o‘ylagan ikki predmet nomlaridan iborat bo‘lgan jumla o‘ylab topishadi. O‘yinni olib boruvchi yana boshqa ikki predmetni ko‘rsatadi va bolalar yana doira bo‘lib o‘tirib shu predmetga oid yangi gaplarni tuzishadi.<br>O‘yinga izohlar: Bolalardagi o‘ziga xos turfa xil jumlalarni tuzishga bo‘lgan intilishlarni rag‘batlantiring. Agar bolalarning berilgan ikki so‘zdan jumla tuzishlari oson kechayotgan bo‘lsa, keying gal jumla tuzish uchun uchta so‘z taklif qiling. |
| **To‘qqizinchi o‘yin:** | "Qarama-qarshiliklar". |
| **O‘yinning maqsadi:** | Tafakkur va nutqni rivojlantirish. |
| **O‘yinning borishi:** | Boshlovchi bolalar guruhiga bitta rasm ko‘rsatadi. O‘sha rasmdagi predmetning mazmunan aksini anglatuvchi predmet nomini aytish o‘yinning asosiy maqsadidir.<br>Masalan, boshlovchi piyolani ko‘rsatdi deylik. Bolalar "dasturxon" deyishlari mumkin (piyola qobariq, dasturxon esa yassi), "suv" (suv – suyuq, piyola esa – qattiq) va shu tarzda davom ettirish mumkin.<br>Har bir bola navbatma-navbat o‘z javobini taklif etadi va albatta, nima uchun aynan shu narsani tanlaganini isbotlab beradi. |

| | |
|---|---|
| **O‘ninchi o‘yin:** | "Surat – topishmoq". |
| **O‘yinning maqsadi:** | Tafakkur va nutqni rivojlantirish. |
| **O‘yinning borishi:** | Bolalar guruhi ichidan bir yetakchi tanlab olinadi, qolganlar stulda o‘tirishadi, ular jumboqni topishlari shart.<br>O‘qituvchida turli xil buyumlarning kichkina suratlari solingan katta quti bo‘ladi (bunda bolalar lotosi rasmlaridan ham foydalanish mumkin).<br>Etakchi bola o‘qituvchining oldiga keladi va bitta rasm oladi. Qolgan bolalarga ko‘rsatmasdan rasmdagi buyumni ta‘riflab beradi. Guruhdagi bolalar o‘z javob variantlarini aytishadi.<br>Birinchi bo‘lib to‘g‘ri javob topgan bola keyingi galda yetakchilik qiladi. |
| **O‘n birinchi o‘yin:** | "Topishmoqni o‘ylab top". |
| **O‘yinning maqsadi:** | Nutq va tafakkurni rivojlantirish |
| **O‘yining borishi:** | Bolalar guruhidan yetakchi tanlanadi. Uning vazifasi topishmoq o‘ylab topishdir. Guruh a‘zolari bu topishmoqni topishi lozim. Keyin boshqa topishmoq o‘ylab topiladi va shunday davom etadi.<br>Olti yoshdagi bolalar topishmoq o‘ylab topishni yaxshi ko‘rishadi, o‘yin jonli o‘tadi. |

| | |
|---|---|
| **O‘n ikkinchi o‘yin:** | "Qayerda bo‘ldik, nimalarni ko‘rdik?". |
| **O‘yinning maqsadi:** | Tafakkurni va nutqni rivojlantirish. |
| **O‘yinning borishi:** | Katta xonada yoki toza havoda o‘tkazish kerak. O‘yinda bolalar ikkita guruhga bo‘linadilar.<br>1- guruh: "Bobo va nevaralar" (bobo va nevaralar ikkinchi guruh aytgan topishmoqning javobini aytishi kerak).<br>2- guruh: Topishmoq aytuvchi guruh. Guruhlar o‘rtasiga chiziq chiziladi, o‘sha chiziqdan qochgan bolalarni ushlash vaqtida "bobo va nevaralar" chiziqdan chiqishi mumkin emas.<br>"Bobo va nevaralar" ikkinchi guruhga qaramasdan orqasini o‘girib turadi. O‘qituvchi o‘sha paytda ikkinchi guruh bilan qandaydir topishmoq o‘ylab topadi. O‘ylab topilgandan so‘ng "bobo va nevaralar"ga ikkinchi guruh belgi beradi.<br>Keyin dialog boshlanadi.<br>- Assalomu alaykum, soqoli uzun-uzun bobo, assalomu alaykum, nevaralari.<br>- Vaalaykum assalom, bolalar! – bolalar va bobo javob berishadi.<br>- Qaerda bo‘ldingizlar, kimlarni ko‘rdingizlar?<br>- Biz o‘rmonda bo‘ldik va tulkini ko‘rdik, lekin u yerda bizlar nima ish qilganimizni aytmaymiz, ammo ko‘rsatamiz.<br>Topishmoqni ikkinchi guruh bolalari o‘z hatti-harakatlari bilan ko‘rsatadilar. Masalan, bolalar o‘rmonda egilgan chaq o‘zi qorin va mevalarni teryaptilar va "au, au" deya tovush chiqaryaptilar.<br>Agar "bobo va nevaralar" topishmoqning javobini to‘g‘ri topishsa, ikkinchi guruh bolalari javobni aniq qilib ko‘rsatadi, to‘ldiradilar. Agar "bobo va nevaralar" topishmoqning javobini noto‘g‘ri aytsalar, ikkinchi guruh bolalari qochadilar.<br>"Bobo va nevaralar" ikkinchi guruh bolalarini tutishga harakat qiladilar, lekin "bobo va nevaralar" chiziqdan o‘tishi mumkin emas. Bir – ikkita topishmoqdan so‘ng "bobo va nevaralar" ikkinchi guruh bilan o‘rin almashadilar.<br>Almashgan guruh o‘ziga "bobo" tanlaydi. |

| | |
|---|---|
| **O‘n uchinchi o‘yin:** | "Kim ortidan kim". |
| **O‘yinning maqsadi:** | Bolaning qo‘zg‘aluvchanligini susaytirish. |
| **O‘yinning borishi:** | Sokin musiqa eshittirilib, xonaga stullar qo‘yiladi. Boshlovchi birinchi bolaning nomini aytib chaqiradi. Chaqirilgan bola stullar orasida harakatlanishni boshlaydi. Musiqada tanaffus bo‘lganda u stulga o‘tirib oladi (qolgan bolalar atrofda turishib, tomosha qilishadi). Keyin boshlovchi boshqa bolani chaqiradi, u ham musiqa sadosida stul atrofida aylanadi va tanaffusda o‘tiradi. O‘yin hamma bolalar stulga o‘tirib olguncha davom etadi. |
| **O‘n to‘rtinchi o‘yin:** | "Zerikib, zerikib shunday o‘tir". |
| **O‘yinning maqsadi:** | Erkinlikni tarbiyalash va o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish. |
| **O‘yinning borishi:** | Xonaning bir tomonida stullar turadi, ularning soni o‘yinchilar soniga teng. Qarama-qarshi tomonda xuddi shunday stullar turibdi, lekin ular soni o‘yinchilar sonidan bittaga kam.<br>Bolalar birinchi tomonda turgan stullarga o‘tirishadi. Boshlovchi quyidagicha ko‘rsatma beradi:<br>Zerikarli-zerikarli shunday o‘tirish<br>Bir-birimizga tikilib. Yugurgilashib kelsak, Joylarimiz almashsak.<br>Boshlovchi ko‘rsatmasini tugatishi bilan hamma bolalar qarama-qarshi tomondagi stullarga yugurib borib o‘tirib olishga harakat qilishadi. Stulsiz qolgan bola yutqazgan hisoblanadi.<br>O‘yinga izohlar:<br>1.Bolalarga ko‘rsatma tugamasdanoq turib ketishlariga ruxsat bermang.<br>2.Bolaga o‘zidan oldin stulni egallagan bolani tushurish man etiladi. |

| | |
|---|---|
| **O‘n beshinchi o‘yin:** | "Ikki xo‘rozcha urishib qolishdi". |
| **O‘yinning maqsadi:** | O‘z-o‘zini boshqarish, o‘zini erkin tutishni rivojlantirish. |
| **O‘yinning borishi:** | Quvnoq qo‘shiq yangraydi (A.Raychevning "Ikki xo‘rozcha urushib qolishdi" qo‘shig‘i). Bolalar yelkalari orqali harakat qilishadi va yelkalari bilan bir-birlarini yengil turtib qo‘yishadi. |

## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Logoped va bolaning ota-onasi bilan bo‘ladigan hamkorlik ishlari qay tarzda boshlanadi?
2. Bolaning ota-onasi bilan hamkorlik bolaning rivojlanishi uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Logoped hamda ota-onaning birgalikdagi hamkorligi logoped uchun qanday afzalliklari bor?

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:


1. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Y. Logopediya. T., 1993 y.
2. Филичёва Т.Б., Чиркина Г.В. Коррекционного обучение и воспитание детей 5-летнего возраста с общим недоразвитием речи. – М., 2011.

# II-modul. Logopediyada innovatsion texnologiyalar



## Nutqni tuzatishda kompyuterli dasturlarning tarixiy asoslari

**Reja:**

1. Nutq buzilishlarini bartaraf etishda kompyuterli dasturlar va ularning ahamiyati.
2. Zamonaviy tovushlar talaffuzini korreksiyalashda qo‘llaniladigan visual dasturlar.

Korrektsion pedagogika, logopediya, defektologiya jismoniy yoki aqliy kamchiliklarga ega bo‘lgan bolalarning individual va shaxsiy rivojlanishini boshqarish tabiatini va qonuniyatlarini o‘rganadi. Uning maqsadi meyordagi va mavjud bo‘lgan kamchiliklar o‘rtasidagi moslanmaganlikni bartaraf qilish yoki kamaytirishdan iborat [2, b. 60]. O‘zbekistondagi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasalarida turli darajadagi nutqiy nuqsonlarga ega bo‘lgan bolalar ham tarbiyalanadi. Ularda nutqning kech rivojlanishi, lug‘aviy zahiraning kamligi, talaffuz qilishda buzilishlar kuzatiladi. Shuningkek, bunday bog‘chalarda tarbiyalanuvchi bolalar asosan turli tug‘ma kasalliklarga chalingan bo‘lishadi. Maktabgacha ta’limning zamonaviy kontseptsiyasi, maktabgacha ta’limning mazmuni va tabiatiga bo‘lgan talablarning o‘zgarishi nutqni rivojlantirishning muhim yo‘nalishi bo‘lgan ko‘pqirrali ajralmas jarayon sifatida maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishini takomillashtirish zarurligini oldindan belgilab beradi. Shu munosabat bilan maktabgacha

yoshdagi bolalarni o‘rganishga, o‘z ona tilida va boshqa fanlardan dasturni o‘zlashtirishga tayyorligi masalalari katta ahamiyatga ega. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga korrektsion, ya’ni tuzatuvchi yordam berish ta’lim sohasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Maktabgacha ta’limning zamonaviy kontseptsiyasi, maktabgacha ta’limning mazmuni va mohiyatiga o‘zgaruvchan talablar nutqni rivojlantirishning muhim yo‘nalishi bo‘lgan ko‘p qirrali yaxlit jarayon sifatida maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishini takomillashtirish zarurligini oldindan belgilab beradi [1]. Nogiron bolalar bilan ishlashda biz bolalarda o‘qish va o‘rganish uchun motivatsiya deyarli yo‘q yoki juda past ekanligini, e’tiborni jalb qilishda qiyinchilikka uchrashini, fonetik va fonemik nutqning rivojlanmaganligini, tez charchashni, leksik va grammatik nutqning rivojlanmaganligini, gipo- yoki giperaktivlikni kuzatamiz. Bugungi kunda ushbu muammolarni hal qilishga axborot-kommikatsion texnologiyalari yordam beradi. Rang, harakat, tovush – bu bolalar e’tiborini uzoq vaqt ushlab turadigan, o‘quv jarayonini ongli qiladigan omillardir. Bundan tashqari, nutqdagi nuqsonlarni tuzatish uchun bolalarning o‘zaro muomala qilish qobiliyatini, atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan faol aloqada bo‘lish qobiliyatini ta’minlaydigan nutq muhitini yaratish katta ahamiyatga ega. Va bu ishda ham motivatsiya manbalaridan biri sifatida bizga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yordamga keladi. Kompyuter texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’lum bir o‘yin vaziyatiga tushirishga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim faoliyatini yanada mazmunli, qiziqarli, jozibali va haqiqatan ham zamonaviy qilishga imkon beradi. Axborot texnologiyalari so‘nggi paytlarda nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korrektsion va rivojlantirish ishlarining istiqbolli vositasiga aylandi. Kompyuter texnologiyalari maxsus pedagogikada tobora ko‘proq qo‘llaniladigan eng samarali o‘qitish vositalaridan biridir. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, kompyuter vositalari mutaxassis uchun korrektsiya ta’limi tarkibi-

ning bir qismi emas, balki bola rivojlanishidagi og‘ishlarni tuzatish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar to‘plamini taqdim etadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan tuzatish va tarbiyaviy ishlar ixtisoslashtirilgan yoki moslashtirilgan kompyuter dasturlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ularni qo‘llash samarasi o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasiga, yangi imkoniyatlardan foydalanish qobiliya-tiga, har bir bolaning ta’lim tizimiga AKTni kiritishga, ko‘proq motivatsiya va psixologik qulaylikni yaratishga, shuningdek o‘quvchiga faoliyatning shakllari va vositalarini tanlash erkinligiga bog‘liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va o‘qitishning an’anaviy shakllari bilan taqqoslaganda AKT bir qator afzalliklarga ega: - ma’lumotni kompyuter ekranida o‘yin uslubida namoyish qilish bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi; - harakatlar, tovush, animatsiya uzoq vaqt davomida bolaning e’tiborini tortadi; - muammoli vazifalarni belgilash, bolani kompyuterning o‘zi hal qilishi bilan rag‘batlantirish, bu bolalarning bilim faoliyati uchun rag‘batlantiruvchi omil; - kompyuter maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Faoliyat jarayonida har bir bola o‘ziga xos darajadagi vazifalarni va o‘z tezligida bajaradi. [3] Bugungi kunda Rossiyalik logopedlar uchun turli kompyuter dasturlari va dasturiy vositalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni qo‘llash borasida ma’lum tajriba to‘langan. Bu tajriba bilan Internet orqali tanishish mumkin. Mutaxassislar zamonaviy interfaol johozlardan “Interaktiv pol”, “Interaktiv qumdon”, Interaktiv ekran”, “Logomer” dasturi o‘rnatilgan interaktiv majmuadan foydala-nishni tavsiya qilishmoqda. “Interaktiv pol” noyob ishlanma bo‘lib, video va tasvirlarni polda aks ettirish imkonini beradi. O‘rgatuvchi proyektsiya-lar yordamida narsalarning rangini, shaklini, nomini aytadilar. Interaktiv qumdondagi o‘yinlar bolaning hissiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, qum bilan o‘ynab, izchil gapirishni, jumlalar tuzishni o‘rganadilar. “Logomer” – bu logoped va

defektolog uchun dasturiydidaktik majmuadir. Majmua-da logopedik va korrektsion mashg‘ulotlarning asosiy mavzulari va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korrektsion darslar bo‘yicha o‘yinlar va mashqlar mavjud. Dasturning maqsadi rus tilidagi tovushlarni, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va izchil gapirish, mustaqil ravishda iboralar va jumlalarni qurish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur dasturda keltirilgan mashq va o‘yinlardan o‘zbek tiliga moslashtirib o‘zbek guruhlarida foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Interfaol ekranni ishlatish korrektsion-rivojlantiruvchi ishlarni hayajonli, dinamik, rang-barang qilishiga va bolalarning fikr-mulohaza-larini olishga yordam beradi. Interfaol ekran uning komplektasiyasiga kiruvchi standart dasturiy ta’minotdan va mualliflarning taqdimotlari, simulyatorlari, videofilmlari, kompyuter o‘yinlari va hokazolardan foydalanish imkonini beradi.

Interaktiv uskunalardan foydalanish bolalar charchashining oldini oladi, ularning bilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, umuman ish samara-dorligini oshiradi. Nutqni rivojlantirish darslarida ulardan foydalanish bolalar uchun qiziq va ularning e’tiborini tortadi.

O‘yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning kelajakdagi o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan. O‘yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o‘z o‘yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o‘sha davrdagi ba’zi qabilalarning sholi sepish jarayoii o‘yinlar bilan juda kapa tantana qilib amalga oshirilar edi.

Ba’zi hollarda esa o‘yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Masalan, ovchi tyulenni ovlash uchun uning oldiga hayvonga o‘xshab sudralib, sirpanib boradi.

Ayrim hollarda esa bola o‘z o‘yinida oldip katgalar mehnatiga taqlid qiladi, keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi. O‘yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o‘yinni bunday tushunish birinchi marta K.D.Ushinskiy tomonidan ta’riflab berilgan edi. U o‘z asarlarida bolalar o‘yinining mazmuni, ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, ular shaxsining shakllanishiga ta’sir etadi, deb yozadi. Bu fikrni P.F.Lesgaft ham tasdiqlab, bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak – atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday kilib, o‘yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o‘yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishni ilg‘or olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatpsh va amaliy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Shu tariqa o‘yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo‘lgan ijtimoiy faoliyatdir. O‘yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi; o‘yin ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan ongli faoliyat bo‘lib, uning mehnat bilan ko‘p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O‘yin faoliyati asosida boladagi o‘quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o‘ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o‘qiydi;

Bolalarning o‘yini nazariyasi (20 – 30 yillarda) Ye.A.Flerina, Ye.I.Tixeeva, Ye.A.Arkin kabi olimlar asos soldilar, keyinchalik R.Ya.Lextman-Abramovich, F.I.Uradkina, N.M.Aksarina, A.P.Usova, D.V.Mendjeriskaya, R.I.Jukovskaya, T.A.Markova, S.L.Novosyolova, Ye.V.Zvorigina va boshkalarning tadqiqot ishlari bolalar o‘yini mavzuini ishlab chiqishga bag‘ishlanadi.

Bolalar o‘yinining tarixi, tabiati, uning rivojlanish qonuniyatlari L.S.Vigotskiy A.N.Leontev, D.B.Elkonin, A.V.Zaporojes kabi psixologlar va ularning davomchilari ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topdi.

A.V.Zaporojes bolalar o‘yinining ilk yoshdan boshlab kuzatib borish natijasida uni xfrakatga keltiruvchi sabablar, rivojlanish qonuniyatlari, har xil yosh bosqichlarida bolalar o‘yinining o‘ziga xos tomonlari, mazmuni va tuzilishini o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.

Ilk yoshli bolalar o‘yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o‘yin bo‘lib, u narsa-buyum-o‘yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo‘l ishdagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o‘yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o‘yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta’lim-tarbiyaviy ishlarini ma’lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o‘z o‘yinlarida qo‘llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o‘yin mazmuni jihidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o‘yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola quyidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi. Masalan, qoshiq bilan ovqat yeyiladi, piyoladan choy ichadi, karavotda yotiladi, qo‘g‘irchoqni «onasi» erkalaydi va hokazo. Shuniig asosida syujetli-rolli o‘yinning dastlabki qirralari yuzaga kela boshlaydi.

Navbatdagi bosqich roli o‘yin bo‘lib, unda bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy muposabatlarini aks etiradilar.

Bolalar o‘yin faoliyatiping bosqichma-bosqich rivojlanishi to‘g‘risidagi umumiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o‘yin

faoliyatiga rahbarlikniig aniq sistemali tavsiyalaripi ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, bolalar bog‘chasining pedagogik jarayonida o‘yinning tutgan o‘rni juda kagga bo‘lib, o‘yindan maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim bsrishda ksng foydala-niladi. Zero:

- o‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi;
- o‘yin maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o‘yin bolalarga ta’lim va tarbiya bershining metod va usulidir;
- o‘yin bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlari o‘yinga kompleks rahbarlik qiliti orqali bolalarga axloqiy munosabatlari, bolalar o‘yinining rivojlanishi darajasiga ta’sir etish mumkinligini ko‘rsatadi.

Bolalar o‘yini o‘zining mazmuni, hususiyati, tashkil etilishiga ko‘ra xilma-hildir, shuniiguchun uni quyidagicha turkumlarga ajratiladi:

1. Ijodiy o‘yinlar.
2. Qoidali o‘yinlar.

Ijodiy o‘yinlar bolalar o‘zlari o‘ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo‘lmaydi. O‘yin qoidasini bolalar o‘zlari o‘yin jarayonida belgilashadi.

Ijodiy o‘yinlarga drammalashgan o‘yinlar, qurilish o‘yinlari, tabiiy materiallar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar kiradi.

Qoidali o‘yiplarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o‘yinlarga quyidagilar kiradi: *didaktik o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, musiqali o‘yinlar, ermak o‘yinlar.*

Bolalarga ta’lim tarbiya berish maqsadida kattalarning o‘yinni tanlay bilishi, unga to‘g‘ri rahbarlik qilnsh kerak. Bolalar bog‘chasida

«ta’lim va tarbiya dasturi»da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydi.

O‘yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o‘yinni bog‘cha yoshi davrida yetakchi faoliyat dsb hisoblandilar. O‘yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o‘tishni ta’minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarln o‘zgarishlar yuz beradi.

O‘yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o‘zaro ta’sir etgan holda shakllanadi. Uynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqish-larini, tevarak-atrof to‘g‘risidagi tasavvurini, kattalarga va o‘rtoqlariga bo‘lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o‘yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmuni jihatidan boy o‘yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o‘yinlarini rivojlantirish uchun esa o‘z navbatida yaxshi tashkil qilingan bolalar jamoasi zarur bo‘ladi.

O‘yin bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida, bog‘chaning ta’lim-tarbiya ishida axloqiy, mehnat va estetik tomonidan tarbiyalashda katta o‘rin tutadi.

O‘yinda yosh organizmga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qondi-riladi, hayotiy faollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o‘yin munosib o‘rin egallaydi. Atoqli pedagog va shifokor N.A.Arkin o‘yinni ruhiy vitamin deb bekorga aytmagan.

O‘yin ta’lim va mashg‘ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘lik bo‘lib juda katta ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ijodiy o‘yinlardan muhim bilimlarni egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurni, hayolni, diqqatni, xotirani faollashtirishni talab qiladi. Bola masalalarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi, o‘ylagan narsasini amalga oshirish uchun

yaxshiroq va osonroq usul o‘ylab topadi, o‘z bilimlaridan foydalanish va uni so‘z bilan ifodalashni o‘rganadi.

O‘yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg‘oiadi. Ko‘pincha o‘yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilish doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalarda kattalarning mehnatiga, ijtimoiy hayotga, kishilarning qahramonona ishlariga qiziqish sari ularda bo‘lajak mutaxasislik, yaxshi ko‘rgan qahramonlariga tahdid qilish kabi dastlabki orzular paydo bo‘ladi. A.V.Zaporojes o‘yinning ahamiyati haqida gapirar ekan, o‘yinda tevarak-atrofdagi predmet va voqealarning umumlashgan tipik obrazlari uyushmasini yaratish qobiliyati rivojlanadi, keyin ular har xil qilib, o‘zgartiriladi. Bolaning kelajakdagi butun rivojlanishi uchun hayol yoki obrazni tafakkurning bunday rivojlanish xususiyati bebaho qimmatga egadir, deydi.

Ijodiy o‘yinni tor didaktik maqsadlarga bo‘ysundirib bo‘lmaydi, bu o‘yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Qoidali o‘yin bolaning sensor rivojlanishi, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o‘yin ma’lum didaktik maqsadga ega bo‘lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Ta’limning o‘yin shaklida bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o‘yin bolaning faolligini oshiradi, o‘yinda bola mashg‘ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu – ta’lim butunlay o‘yin shaklida bo‘lishi kerak degan gap emas. Ta’lim turli-tuman usullar va metodlarni qo‘llashni talab etadi. O‘yin ta’limning shakllaridan biri bo‘lib, boshqa bir metod bilan qo‘shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bu kuzatish, suhbat, o‘qib berish va hokazolardir.

Bola o‘ynayotib, o‘z bilimidan foydalanishga, uni har xil sharoitda ishlata bilishga o‘rganadi. Ijodiy o‘yinlarda bolalarning fantaziyasi, buyum yasash, tajriba qilishga keng yo‘l ochiladi.

O‘yinda aqliy rivojlanish bilan bog‘liq holda axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O‘yin jarayonida yuz bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o‘yin bolada yaxshi hislatni, ulug‘vor orzular va intilishlarni, sog‘lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi. O‘yinda bola o‘z xulqini boshqarishga, qiyinchilikni yengishga, o‘z maqsadida qat’iy turib yetishishga o‘rganadi.

O‘yin mustaqil faoliyat bo‘lib, bu jarayonda bolalar o‘z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o‘yin do‘stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birgalikdagi o‘yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o‘yinga jalb qilish, bolalar o‘rtasida do‘stlikka, haqqoniylikka, o‘rtoqdarini javobgarlikni sezishga asoslangan munosabatlar o‘rnatishdan iboratdir. O‘yinni bolalar o‘z ixtiyorlari bilan o‘ynaydilar, ammo boshqa xech bir faoliyatda o‘yindagi singari bolalarning xulq bilan bog‘liq bo‘lgan qat’iy qoida yo‘q. Bunday qat’iy koida ijodiy o‘yinga ham, qoidali o‘yinga ham, qoidani bolalar o‘zlari o‘rnatadigan o‘yinga ham tegishlidir. Mana shuning uchun ham o‘yin bolalarni intizomli qiladi, ularni o‘z harakatlari va fikrlarini qo‘yilgan maqsadga bo‘ysundirishga o‘rgatadi;

O‘yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishiga ham yordam beradi. Bolalar o‘z o‘yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar, bu bilan ular kattalarning harakatigagina taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishga, mehnatiga bo‘lgan munosabatlirini ham aks ettiradilar. O‘yin bolada ko‘pincha mehnat qilish xoxishini uyg‘otadi, o‘yin uchun kerakli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur bo‘ladi. O‘yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo‘lgan texnikaga qiziqish paydo bo‘ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydilar.

O‘yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O‘yinda ijodiy hayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanlangan o‘yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o‘yiilarda harakatning go‘zalligi va maromi bolalarni o‘ziga maftun kiladi.

O‘yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. O‘yin befoyda, hatto zararli bo‘lishi ba’zan yolg‘on qiziqishlarni, yolg‘on hislarni qo‘zg‘atishi mumkin. Tarbiyachi o‘yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga muntazam ravishda ta’sir etib borish zarur.

Bu vazifani hal etishda o‘yin bolalar bogchasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. O‘yinda bolalarning mushg‘ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o‘rgatiladi. Ikkinchi tomondan, o‘yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko‘chiriladi.

Bolalar bog‘chasidagi pedagogik jarayoni maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning o‘sib kelayotgan yosh organizm xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ularni yaxshi tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan qilib tashkil etish lozim.

Buning uchun bolalar hayotini tashkil etishda o‘yin yetakchi o‘rin egallashi lozim. Bolalar o‘yiniga ajratilgan vaqtni mashg‘ulot yoki kun tartibidagi boshka tadbirlarini cho‘zib yuborish orqali egallash mumkin emas.

Bolalar bog‘chasida ta’lim-tarbiya dasturida har kungi kun tartibiga ovqatlanish, badan tarbiya, mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan bir qatorda o‘yin xam kiritilgan. O‘yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhlash (uch yoshdan) boshlanadi.

O‘yin ertalab nonushtagacha (15 – 20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin

o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar qurish-yasash, harakatli (to‘p bilan) o‘yinlarni tashkil qilish tavsiya etiladi.

Mashg‘ulot o‘rtasida harakatli, qoidali o‘yinlar o‘tkaziladi. Ular asosan mashg‘ulotning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

Ochiq havodagi o‘yinlarga yugurish, otish sirpanish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar, qoidali o‘yinlar («Ayyor tulki», «Ok terakmi, ko‘k terak») kiradi. Shuningdek, qurilish, rolli, sport o‘yinlari, tabiiy materiallar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar (qum, suv, loy bilan), didaktik o‘yinlar, bolalarning harakatini rivojlantiruvchi o‘yinlar, drammalashtirilgan o‘yinlar bo‘ladi, tarbiyachi hamma o‘yinlarga rahbarlik kiladi.

Kunduzgi uyqudan keyingi o‘yinlarga qurilish o‘yinlari, ertak bo‘yicha qo‘yiladigan o‘yin, rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar va hokazolar kiradi.

O‘yinlarning turlari, mazmuni ularni har bir yosh guruhlari bo‘yicha tashkil etishin taqozo qiladi. O‘yin pedagogik jarayonda mehnat va ta’lim, bolalarning boshqa faoliyatlari bilan o‘zaro bog‘liq holda olib boriladi.

O‘yinda bolalar tevarak-atrofdagi voqelikni amaliy jihatdan o‘zlashtirib boradi. Bolalar o‘yin jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish, uni takomillashtirishni asosiy maqsad qilib qo‘ymaydilar, biroq kattalardek harakat qilish, boshqa bolalar bilan aloqaga kirishish o‘yin vazifalarning jozibadorligi, musobaqa va shunga o‘xshashlar bolaning bilimlarini egallab, mustahkamlab borishni taqozo etadi. Bolalar hatto didaktik o‘yinlarni ham biron narsani bilib olish uchun o‘ynamaydilar. Ammo o‘yin jarayonida bolaning bilimi o‘zi sezmagan holda o‘z-o‘zidan takomillashib boradi.

**Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. “Logomer” dasturi qanday o‘quv dasturi?
2. Korreksion pedagogikada foydalanadigan kompyuter dasturlari qaysilari bor?

3. Kompyuter dasturlari ta’lim sohasida qanday imkoniyatlar yaratadi?

4. “Interaktiv pol” ishlanmasi qanday foydalaniladi?

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адаптированная примерная основная образовательная программа для дошкольников с тяжелыми нарушениями речи. – СПб., 2014.

2. Болибеков А.А., Эгамбердиева М.Г. Совместная работа воспитателя и логопеда дошкольного учреждения по устранению речевқх нарушений у детей. // Вестник науки и образования. 2020. №10(88). Часть 3. С. 60 – 62. URL: http://scientificjournal.ru/images/PDF/2020/88/VNO-10-88-III-.pdf (Дата обращения 12 ноября 2020 г.)

3. Легачева Е.Н., Кочелакова О.Д. Развитие речи детей старшего дошкольного возраста посредством использования ИКТ технологий // Молодой ученый. – 2016. – №7. – С. 666 – 669.



## Turli nutq buzilishlarida noan’anaviy metodlardan foydalanish texnologiyasi

Ta’lim jarayonida (mashg‘ulotlarda) bolalarning bilimini shakllantiruvchi aniq maqsad qo‘yiladi. Tarbiyachi bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, ularda o‘quv faoliyatining eng oddiy malakalarini shakllantirib boradi. Ta’limning xususiyati va mazmuni bolalar o‘yinlari mazmuniga ta’sir etib, uni rivojlantiradi. Mashg‘ulotlarda, ekskursiyalarda egallagan bilimlar bolalarning o‘yin faoliyatini, qiziqishlarini rivojlantiradi.

Ikkinchi tomondan, har xil metodlar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda turli-tuman o‘yin usullaridan ham foydalaniladi. Bunday usullar bolalar diqqatini to‘plash, ular idrokini faollashtirish, bilimlarini to‘larok o‘zlashtirib olish imkonini yaratadi.

Pedagogik jarayonda mehnat bilan o‘yin o‘rtasida umumiylik va farq; borligini ham aytib o‘tish kerak. Bolalarning qo‘l mehnati o‘yin bilan bevosiga bog‘liq. Ayniqsa, katta guruhga borganlarida bolalar mavjud o‘yinchoklar bilan o‘ynabgina qolmay, yetishmaganlarni o‘zlari kattalar yordamida qogoz, yog‘och, karton, tabiiy materiallardan yasab oladilar.

O‘yinning mehnat bilan bog‘liqligi shundaki, bolalar o‘zlarining o‘yinchoqlarini har doim avaylab saqlab boradilar.

Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari (V.I.Loginova, M.V.Krulext) natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik guruhlardagi mehnat faoliyatiga o‘yin xususiyatlarini kiritishni taqozo etadi. Ma’lum bo‘lishicha avval bolalar kattalar mehnat jarayonini qanday bajarganlarini

o‘zlashtirib olib, keyin o‘z o‘yinlarida buni aks ettirar ekanlar, shundan keyingi mustaqil mehnat faoliyatiga o‘tar ekanlar.

Bolalar mehnati qiziqarli bo‘lishi uchun ko‘pincha o‘yin tarzida o‘tiladi. Masalan, maydonchani tozalaganda bolalar axlatlarni zambillarda tashishi o‘rniga mashinalarida tashiydilar, ustaxonada kartonlardan qutichilar yasaydilar va hokazo.

Bolalar o‘z o‘yinlarida kattalar mehnatini aks ettirishlari ularda bu mehnatga hurmatni shakllantirib boradi. Bu ham o‘yinning mehnat bilan bog‘liqligiga misol bo‘la oladi.

Shunday qilib, o‘yin yaxshi yo‘lga qo‘yilgan pedagogik jarayonda bolalarning butun hayotini kamrab oladi va uning qiziqarli ta’minlaydi.

Bolalar o‘yinining o‘ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi. O‘yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o‘rmon, metro stansiyasi, temir yo‘l vagoni bo‘lishi mumkin va h.k.

Bolalar o‘yinining yana bir xususiyati uning xavaskorlik tarzida bo‘lishidir (xususiy faoliyat). Bu uning tashqi belgilari bo‘lmay, balki xaqiqiy mohiyatidir. O‘yinning ijodkori, yaratuvchisi-bolalardir. Ular o‘yinda o‘zlariga tanish bo‘lgan hayotiy voqea va hodisalarni ularga bo‘lgan munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o‘yinining yana bir o‘ziga xos xususiyati – unda harakat, so‘z va obrazlarning o‘zaro bog‘lanib ketishidir. O‘yinda bola o‘zi aks ettirayotgan qahramonlarning xis-hayajoni, kechinmalari, harakatlari bilan yashaydi.

Bola hech qachon jim o‘ynamaydi, bitta o‘zi o‘ynasa ham u o‘yinchoq bilan gaplashadi, o‘zi tasvirlayotgan qaxramon bilan muloqot o‘rnatadi, onasi, bemor, shifokor, xullas hammahxammaning o‘rniga o‘zi gapiraveradi. So‘z obrazning yaxshiroq ochilishiga bir xilda yordam beradi.

Nutq o‘yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o‘z his-tuyg‘u, kechinmalarini o‘rtoqlashadi. So‘z bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatlishiga tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

O‘yinda obraz, o‘yin harakati, so‘z o‘zaro bog‘lanib, o‘yin faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi, borliqni aks ettirish vositasi bo‘lib;xizmat qo‘ladi.

Bolalarning o‘zi yaratgan o‘yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o‘yinning g‘oyasi, mazmuni, o‘yin harakatlari, rollar, o‘yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

**O‘yinning g‘oyasi** – bu nima o‘ynashni belgilab olish: *«do‘kon», shifoxona», «uchuvchilar», «ona-bola», («oila») «bolalar bog‘chasi»* va shunga o‘xshashlar. O‘yin mazmuniga, g‘oyasiga qarab bolalarning bunday o‘yinlarini bir necha o‘ziga xos guruhlarga bo‘lish mumkin:

a) maishiy turmushini aks ettiruvchi o‘yinlar *(«oila», «shifoxona», (bolalar bog‘chasi» va h.k.)*

b) kishilarning yaratuvchilik mehnatini aks ettiruvchi o‘yinlar *(metro qurilishi, dehqonlar mehnati, uy, fabrikalarning qurilishi va h.k.)* ijtimoiy voqealarni, an’analarni aks ettiruvchi o‘yinlar bayramlar, namoyishlar, sayohat, mehmonlarni kutish va h.k.)

O‘yinlarning bunday bo‘lishi albatta shartli bo‘lib, bir o‘yinda har xil hayotiy voqealar aks etishi ham mumkin.

G‘oya o‘yinning mazmuni, jonli to‘qimasi bo‘lib, uning rivojlanishi, o‘yin harakatlarini, bolalar munosabatlarini har xilligi va o‘zaro bog‘la-nishni belgilab beradi. O‘yinning qiziqarli bo‘lishi va unda bolalarning qanday ishtirok etishlari o‘yin mazmuniga bog‘liq. O‘yinda bola ijro etadigan rol-o‘yinning asosiy o‘zagi va tarkibiy xususiyatidir. Buning uchun ham bu o‘yinlar rolli yoki syujetli-rolli o‘yinlar nomini olgan. Bola olgan roliga qarab, o‘sha obrazga kirib ketadi va uning rostligiga ishonadi.

O‘yin bolalarning qiziqarli ermagigina bo‘lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o‘yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Pedagog bolalar o‘yinini tashkil etar ekan, quyidagi talablarga e’tibor berishi zarur, o‘yin mazmuni, ta’lim-tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo‘lishi, aks ettirilayotgan narsalar hakidagi tasavvurlar to‘g‘ri va to‘la bo‘lishi, o‘yin harakatlari faol, ma’lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo‘lishi kerak, hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e’tiborga olgan holda o‘yinga rahbarlik qilish, o‘yinchoklar va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o‘yinda xayrihoh va xursand bo‘lishlarini ta’minlash lozim. Pedagog bolalar o‘yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga, ongiga, his-tuyg‘ulariga, irodasiga, xulqiga ta’sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanish lozim.

O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o‘zining butun qiziqini o‘yinga qaratishi lozim. Bola o‘ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvuri yetarlimasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi.

Shunday qilib, o‘yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to‘g‘ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi.

Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda ona-vatanga o‘z xalqiga munosabatini shakllantiradi, mustahkamlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to‘g‘rilik, o‘zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi.

O‘yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi o‘ziga xos maktabdir. O‘yinda bola kishilarning axloq-odob me’yorlarini mehnatga munosabatlarini jamiyat mulkiga, boshqalarga munosabatlarini bilib oladi.

Tarbiyachi bolalar o‘yiniga rahbarlik qilayotib ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z xoxishlarini jamoa xoxishi bilan kelishib olishga o‘yinda o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o‘rganadilar.

Ammo o‘yinga to‘g‘ri rahbarlik qilmasa, u noxush oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o‘yindan keng foydalanadi. Juda ko‘pchilik o‘yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o‘z navbatida organizmda modda almashinishini ta’minlaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavdasining to‘g‘ri o‘sishini, harakatlari chiroyli bo‘lishini ham ta’minlaydi. Ammo o‘yin pedagogning rahbarligisiz o‘z-o‘zidan jismoniy tarbiya vositasi bo‘lolmaydi, chunki ortiqcha harakat qilib yuborish yoki uzoq vaqt bir vaziyatda o‘tirish bolaning sog‘ligiga zarar keltirishi mumkin. Bundan tashqari, o‘yin paytida gigienik shart-sharoit tug‘dirish uchun alohida g‘amxo‘rlik qilish lozim.

O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobiy ruxiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi.

O‘yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo‘llaniladi. Bolalar tevarak-atrofidagi hayotni, voqelikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O‘yinda bolalarning avval olgan taassurotlari orqali obraz yaratishlari-hayol juda katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko‘p o‘yinlarda avval o‘rgangan ashula, she’r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

O‘yin bola uchun haqiqiy hayotdir.



Agar tarbiyachi bolalar o‘yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P.Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish – ularni to‘g‘ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o‘yin shuning uchun ham samarali natija beradiki, o‘yinda bola yashashni o‘rganmaydi, balki o‘z hayoti bilan yashaydi.

O‘yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg‘ulot o‘rtasida bolalar o‘yiniga 8 – 10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘pincha avval boshlagan o‘yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o‘ynashlari uchun 1 soat – 1 soatu 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o‘yiniga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘proq syujetli-rolli o‘yinlarni, qurilish materiallari, ko‘g‘irchoqlar oilan, stol usti o‘yinchoqlari o‘ynashlari mumkin. Shu bilan birga ermak o‘yinlardan ham foydalaniladi.



Ammo o‘yin bilan ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlik bola ulg‘aygan sari o‘zgarib boradi.

Kichik guruhda o‘yin ta’lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg‘ulotlarda ta’limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o‘zlarida maktabdagi o‘qishga ishtiyoq uyg‘onib qoladi.

Ammo bolalar uchun o‘yinning qadri yo‘qolmaydi, balki mazmuni o‘zgaradi endi bolalarni ko‘proq fikriy faollikni talab etuvchi o‘yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o‘yinlar qiziqtira boshlaydi.

Pedagogika fani o‘yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O‘yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko‘nikmalari, harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O‘yinda bolaning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

Bolalarning o‘yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich bolalarning **«yonma-yon»** o‘yinning shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir. Bunday o‘yinda bolalar chog‘ining o‘yinga qiziqish bilan qaraydilar, birga o‘ynab **«yonma-yon»** o‘tirirganlaridan xursand bo‘ladilar. Bu yoshdagi bolalarning o‘yini kattalar rahbarligida ularning xulqiga ta’sir etish orqali tashkil etiladi.





**Ikkinchn bosqichda** bolalar o‘yin orqali mexanik ravishda birlasha boshlaydilar. Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo‘ladi. Bu davrga kelib, bolalardan kimning qaysi o‘yinga qiziqishi aniq bo‘la boshlaydi, bir xil bolalar didaktik o‘yinga qiziqsalar, ikkinchilari harakatli o‘yinni yoqtiradilar, uchinchilariga ijodiy o‘yinlar ma’qulroq bo‘ladi va h.k. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o‘yin bilan uzoqroq o‘ynashga o‘rgatishdir.

**Uchinchi bosqichda** o‘ynovchi bolalar guruhi bir-biriga do‘stona munosabat va o‘zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Birga o‘ynovchilar soni ko‘p bo‘lmasa-da, bolalar qiziqib o‘ynaydilar. Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiy talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiya-

chi bolalarning o‘yinda birlashishlarining ahloqiy asosini yuzaga keltirish, ularda o‘zaro yordam, o‘rtoqlik, do‘stlik munosabatlarini shakllantirish lozim. Bolalarning o‘yinlari qiziqarli, mazmunli bo‘lishi uchup o‘yinning hamma turlaridan o‘rinli foydalanilsa, bolalarga ta’lim berish va ularni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishiladi. Shunday qilib, pedagogika fani o‘yinga bola shaxsini har tomonlama shakllantirish vositasi va ular hayotini tashkil etish shakli, bolalar jamoasini shakllantirish vositasi deb qaraydi.

Bugungi kunga qadar maktabgacha ta’lim muassasasida bolalar bilanishlashning turli shakllarini qo‘llash bo‘yicha boy tajriba to‘plangan. Maqolamizning bir qismi sifatida biz maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning bunday shakliga ta’lim holati sifatida murojaat qilamiz. Ta’lim holati bolalarning kichik kichik guruhining ishtirokini o‘z ichiga oladi: bolalarning xohishiga va vaziyat mazmunining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, uchdan sakkizgacha. O‘quv jarayonida bir didaktik vosita (syujetli rasm, o‘yinchoq, kitob, tabiiy material) bilan bir nechta o‘quv vaziyatlarini tashkil qilish mumkin, ammo kognitiv-nutq xarakteridagi murakkabroq vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilish uchun. Bugungi kunda maktabgacha ta’limda dizayn alohida o‘rin tutadi. Zamonaviy pedagogikada loyiha usuli samarali ta’lim tizimining tarkibiy qismi sifatida tizimli fan ta’limi bilan bir qatorda qo‘llaniladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida loyiha usulining asosiy maqsadi – rivojlanish vazifalari bilan belgilanadigan bolaning erkin ijodiy shaxsini rivojlantirish, Loyiha usuli – bu pedagogik texnologiya bo‘lib, uning o‘zagi bolalarning mustaqil faoliyati – tadqiqot, kognitiv, samarali bo‘lib, uning davomida bola atrofdagi dunyoni o‘rganadi va yangi bilimlarni haqiqiy mahsulotlarga kiritadi. Boshqacha qilib aytganda, nazariyadan amaliyotga – o‘qitishning har bir bosqichida tegishli muvozanatni saqlagan holda, akademik bilimlarni pragmatik bilimlar bilan uyg‘unlashtirish. Zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalari amaliyotida

qo‘llaniladigan va maktabgacha yoshdagi bolalarda ob’ektiv dunyo tarixiga qiziqish paydo bo‘lganda foydalanish mumkin bo‘lgan loyihalar turlarini ko‘rib chiqish muhim ko‘rinadi: Noan’anaviy ta’lim aniq bir mavzudan uzoqlashmagan holda, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda, turli ta’lim metodlaridan foydalanib mashg‘ulotni tashkil etishdir. An’anaviy ta’lim-ta’lim tizimining negizidir. Uni noan’anaviy qilish uchun talabalarni qiziqtiradigan yangi texnologiyalaridan foydalanish kifoya.

Davr shiddat bilan o‘zgarib borayotganligi sababli maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish uchun nostandart, noan’anaviy yondashuvni talab qiladi.

Bizning davrimizda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishni tashkil etishning yangi shakllari va usullarini izlash nafaqat tabiiy hodisa, balki zaruriy hodisa hamdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har bir bolaning faol ishtirokini ta’minlaydigan, ularning diqqatini chorlaydigan, bolalarning shaxsiy javobgarligini oshiradigan, mustaqil tarzda ish qobiliyatini shakllantiradigan faoliyatlarni tashkil eta olish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Buni nostandart, noan’anaviy ta’lim va tarbiya shakllari texnologiyasi orqali muvaffaqiyatli hal etish mumkin. Noan’anaviy faoliyatlarning vazifalari: bolaning rivojlanish darajasiniyaxshilash. Insonning axloqiy fazilatlarini, qarashlari va individulliligini shakllantirish tarbiyalanuvchilarda bilimga qiziqish, ijodkorlik, iroda, his-tuyg‘ular, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga o‘rgatishda-nutq, xotira, e’tibor, tasavvur, idrok. Ta’limni noan’anaviy tashkil etish shakllari hozirgi vaqtda maktabgacha ta’lim muassasalari amaliyotida eng samarali qo‘llanilmoqda. Darsning noan’anaviy shakllari, qoida tariqasida, bitta yoki bir nechta mavzularni, mashg‘ulotlarni o‘rgangandan so‘ng, mustahkamlash funktsiyalarini bajarish uchun amalga oshiriladi. Bunda birinchi navbatda ta’lim muhiti o‘zgartiriladi. Xato qilish qo‘rquvi tufayli an’anaviy sharoitda paydo bo‘ladigan ruhiy

to‘siqni yo‘q qiladi va bajarilgan ish natijalarini sarhisob qilishda bayramona muhit yaratadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktab-gacha yoshdagi bolalar uchun noan’anaviy faoliyatlarni tashkil etish faoliyatlarda uslubiy, pedagogik va psixologik xarakterdagi maqsadlarga erishish mumkin. Bular quyidagilar: talabalarning ma’lum bir mavzu bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatlarni jiddiy qabul qilish ko‘nikmasi vujudga kelib, ijodiy muhit tashkil etiladi. Tarbiyachi faoliyat davomida minimal ishtirok etadi.

Ta’lim jarayonining pedagogik samaradorligini pasaytiradigan noan’anaviy faoliyatlarning kamchiliklariga quyidagilar kiradi. Ijobiy o‘zgarishlar – bilim va ko‘nikmalar sifatining oshishi, talabalar rivojlanishidagi siljishlar prognozining yo‘qligi. Hammatarbiyachilar faoliyatlarning asosiy g‘oyasini, uning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini aniqlay lmaydilar.

Reproduktiv ta’lim texnologiyalarining tarqalishi. Ta’lim jarayoni-ning mazmuniga emas, balki asosan uni tashkil etish shakliga e’tibor beriladi. Ba’zi bir faoliyat turlarida haddan tashqari didaktik materiallar ortiqcha yuklanadi. Faoliyatlar doimo integratsiyalashgan, ko‘ngil ochar shaklda tashkil etiladi. Bu kabi faoliyatlarda alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lmagan faktik materiallar bilan ishlash ustunlik qiladi. Noan’anaviy faoliyatlarni tashkil etishda qo‘yiladigan talablar. Maktab-gacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachi, pedagoglari, psixologlari noan’anaviy faoliyatlarni tashkil etishda bir necha talablarga javob berishlari kerak. Bular quyidagilar: Noan’anaviy faoliyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini umumlashtirish va mustahkamlashda yakuniy mashg‘ulot sifatida ishlatilishi kerak. Ta’lim jarayonini tashkil etishning bunday shakllariga juda tez-tez murojaat etish noo‘rin, chunki bu mavzuga va o‘quv jarayoniga doimiy qiziqishni yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

Noan'anaviy faoliyatlardan oldin puxta tayyorgarlik ko'rish va birinchi navbatda ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadlari tizimini ishlab chiqish kerak. Noan'anaviy faoliyatlar shakllarini tanlashda tarbiyachi, pedagog, psixolog maktabgacha ta'lim yshidagi tarbiyalanuvchilarning xarakteri va temperamentining xususiyatlarini, tayyorgarlik darajasi va umuman butun guruhning va tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari kerak. Noan'anaviy faoiyatlarni tashkil etishning didaktik talablari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar noan'anaviy faoliyatlarini tashkil etishda – faoliyat nafaqat bola uchun bilim bera olishi, birinchi navbatda ijodiy muhitni yaratib berishi zarurdir. Noan'anaviy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishini orttirishi, faoliyatlar davomiaesa, bolalarni mustaqil tarzda ishchanligini oshirishi kerak. Faoliyat tarbiyachiga maktabgacha yoshdagi bolalarning individual qobiliyatlarini o'rganishga, ular orasidan iqtidorli, qobiliyatli bolalarni aniqlashga yordam beradi. Noan'anaviy faoliyat tarbiyalanuvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish bilan birga o'quv dasturining asosiy mazmunidan chalg'itmasligi kerak. Noan'anaviy faoliyat davomida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi ijodiy yoki amaliy ma'noda muhim tadqiqotlarni izlayotgan tadqiqotchi sharoitida o'zini his etib, shu yo'sinda mashg'ulotlarda ishtirok etishi kerak. Noan'anaviy faoliyat talabani ixtiyoriy ishni bajarish majburiyati bilan birlashtirish asosida rivojlantirishi va takomillashtirishi kerak.

Maxsus pedagogikadagi noan'anaviy korreksion ta'lim metodlari: fitoterapiya, aromaterapiya, xromaterapiya, litoterapiya, imagoterapiya, artterapiya, mnemotexnika.

**Fitoterapiya** – Shifobaxsh o'simliklar qadimdan tibbiy muolajalarning asosiy quroli bo'lib kelgan. Zamonaviy tibbiyotda ham dori preparatlarining 45 foizi o'simliklardan ajratib olinadi. Fitoterapiyada har bir o'simlik o'ziga xos tarzda og'riqni qoldiruvchi, tetiklashtiruvchi, tinch-

lantiruvchi, yurak faoliyatini yaxshilovchi, gipotenziya va gipertenziya, yallig‘lanishga qarshi, balg‘am ko‘chiruvchi va terlatuvchi kabi qator ta’sirlarga ega. Ayniqsa, oshqozon-ichak faoliyatida ishtaha ochish, ovqat hazm qilish va ich surishda samarali qo‘llanib kelmoqda. Bundan tashqari, qon ketishini va ivishini kamaytiruvchi, bakteriyalarni o‘ldiruvchi fitoterapiya mahsulotlari ham keng foydalaniladi», dedi Shayxova.

Uning so‘zlariga ko‘ra, bugungi kunda fitoterapiyaning shifobaxsh xususiyatlari qator kasalliklarni davolashda qo‘l kelyapti. Gastrit, oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi, xoletsistit, kolit va enterokolit, piyelonefrit, neyrosirkulyar distoniya, nevroz va asteniya shular jumlasidan.

Shifobaxsh o‘simliklar moddalar almashinuvi va qon tarkibidagi xolesterin miqdorini me’yorlashtiradi. O‘z navbatida, arterial qon bosimi bir me’yorda bo‘lishi, yurakda va bosh miyada qon aylanishi yaxshilanishi, asablarni bo‘shashtirib, uyqusizlikni bartaraf etish ham fitoterapiyaning ijobiy samaralaridandir. Iste’mol qilinadigan ko‘katlar va ziravorlar organizmga qo‘shimcha quvvat beradi. Agar fitoterapiya o‘z o‘rnida qo‘llansa, qo‘shimcha muolaja sifatida rivojlanish xavfi bo‘lgan kasalliklarni boshlanmasdan bartaraf etish mumkin.

**Aromaterapiya** – bu o‘simliklarning gullari, barglari, qobig‘i, ildizlari va boshqa qismlaridan olingan efir moylaridan foydalanishni o‘z ichiga olgan tabiiy davolash usuli. Bu efir moylari o‘simliklarning hidlarini olib yuradigan va o‘simliklarni zararli organizmlardan himoya qilishga yordam beradigan komponentlardir.



**Xromoterapiya** – ang terapiyasi ko'pincha muqobil tibbiyot amaliyot shifokorlarida qulaylashtiriladi. Rang terapiyasi vibratsiyalashgan shifobaxsh uslub sifatida tasniflanadi. Vibratsiyali tibbiyot o'simliklar, qimmatbaho toshlar va kristallar, suv, quyosh nuri va tovush kabi jonli organizmlarda chi energiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.



Rang – oddiygina elektromagnit energiyaning ko'rinadigan nurining shakli.

Kamalak shishasida aks ettirilgan barcha asosiy ranglar o'zlarining noyob shifo xususiyatlarini ko'tarib turadi. Faqat quyosh ajoyib shifalovchi! Tasavvur qilaylik, quyosh nuri bo'lmagan hayot qanday bo'ladi. Quyosh nurlarining etishmasligi ba'zi odamlar uchun ruhiy tushkunlikka sabab bo'lmoqda.

Rang terapiyasida o'qitilgan terapevtimiz jismoniy, hissiy, ruhiy yoki aqliy bo'lmasa, tanamizning energiya balansida energiyani muvozanatlash uchun asboblar, vizualizatsiya yoki og'zaki taklif qilish usulida nur va rangni qo'llaydi.

**Litoterapiya** – Litoterapiya atamasi yunon tilidan olingan *Litos* tosh va degan ma'noni anglatadi *Terapiya,* terapiya. Litoterapiya – parvarish qilish maqsadida toshlar va kristallarning xususiyatlaridan foydalanadigan usul.

Toshlar va kristallar organizmning hayotiy funktsiyalarini muvozanatlash orqali jismoniy va ruhiy darajada harakat qiladi. Litoterapiya tanadagi muvozanatni saqlashga yordam beradigan yaxlit energiya terapiyalaridan biridir.

Qadimgi hind, Misr, Mesopotamiya va yunon tashkilotlarida foydali qazilmalar omad keltirgan. Ularning mifologiyada mavjud bo‘lgan "filtrlari" keyinchalik jodugarlarga o‘zlashtiriladi: ular odamlarni hayvonlar va o‘simliklarga aylantirishi mumkin edi.

O‘rta asrlardan XNUMX-asrgacha shifokorlar kimyogarlar, alkimyogarlar va munajjimlar bo‘lganligini unutmang. Ular bizga o‘zlarining "mo‘'jizaviy" davolari bo‘yicha o‘z yozuvlarini qoldirdilar. Keyin imzolar nazariyasi qo‘llanildi: qizil toshlar qon kasalliklarini, sariq toshlarni, jigar kasalliklarini davolaydi.



**Imagoterapiya** – bu psixoterapiyaning bir turi bo‘lib, unda terapevtik samaraga erishishning asosiy vositasi bemor yoki bemorlar guruhining ijodiy faoliyatini faollashtirish orqali bemorning shaxsiyatini rivojlantirish va boyitishdir.



**Artterapiya** – amaliy psixologiyaning eng qiziqarli, jozibali va hatto sirli yo‘nalishlaridan biri deb atash mumkin.




Turli uslublarga boy bo‘lgan art-terapiya ruh va tanani tinchlan-tirish, turli alomatlarni yengillashtirish, bartaraf etish va yo‘q qilish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘pchilik odamlar uchun u vaqtni naf bilan o‘tkazish, stress ta’sirini kamaytirish va quvvatni tiklash imkonini beruvchi sevimli mashg‘ulot hamdir.

Art-terapiya – bu psixoterapiyaning tasviriy san’at va ijodiy faoliyatga asoslangan, ixtisoslashtirilgan shaklidir.

Bu inson ongi va ong osti orasidagi, aql va ruh o‘rtasidagi bog‘lovchi zanjir sanalmish usul.

Art-terapiya samaradorligining mohiyati shundaki, insonning aksariyat muammolari yuzaki ong darajasida emas, balki chuqur ong osti darajasidan kelib chiqadi.

## *RINOLALIYA NUTQ KAMCHILIGIDA TOVUSHLAR KAMCHILIGINI ZONDSIZ POSTANOVKA QILISH TEXNOLOGIYASI*

Rinolaliyada tovushlarni korreksiyalashda foydalaniladigan usul vosita va mashqlar individual yondoshilgan holda tanlanadi. Biroq qo‘pol organik nuqsonlar to‘g‘ri artikulyatsiyaga erishishni qiyinlashtiradi. Labdagi chandiqlar, uning harakatini cheklaydi, ochiq prikus, progeniya, prognatiya, ortodantik apparatni uzoq vaqt toliqishi lab va til oldi tovushlarini nutqga qo‘yishni bir oz qiyinlashtiradi.

«P» tovushini bir necha usulda nutqga qo‘yish mumkin:

- Bolaga yo‘naltirilgan havo oqimi chiqarish vaqtida lablarini bir-biriga urish taklif qilinadi, bunda shivirlagan pa-pa-pa bo‘g‘ini hosil bo‘ladi. Lablarni hullash bu mashqlarni bir oz yengillashtiradi.
- Bolaga lunjlarini shishirish taklif etiladi va ikkala kafti bilan shu vaqt o‘zida lunjlariga uriladi. Og‘izdan tishlarni orasidan partillab havo oqimi chiqadi. Keyincha bu harakatlar og‘iz bo‘shlig‘idagi hovoning hajmini kamaytirib qo‘llarning ishtirokisiz bajariladi. Bunda bola lablari bilan «tuflaganiga» o‘xshagan harakat qiladi va «p» tovushi hosil bo‘ladi.
- Burun qanotlari barmoqlar yordamida qisiladi (havoning burun orqali chiqib ketmasligi uchun) va ikkinchi usul amalga oshiriladi. Keyinchalik bu mashq burun qanotlari qisilmasdan amalga oshiriladi.

Birinchi usul orqali hosil qilingan «p» tovushi, (ikkita qolgan usullardan farqli ravishda) tovush talaffuzidan so‘ng, boshqa tovush talaffuziga o‘tish oson kechadi.

Tadqiqotchilarni aytishicha, rinolaliyada «t» tovushi talaffuzida ovozni erkin chiqishi kuzatiladi. «T» tovushini hosil qilish uchun lablarni kulgi holatiga keltirib, til uchini tishlar orasidan bir oz tashqariga chiqarib «tuflash»ga o‘xshash harakat qilish kerak.

Yangi fonemalarni nutqda bor bo‘lgan tovushlardan hosil qilish maqsadga muvofiq, chunki bunda tovush hosil bo‘lishi zo‘riqishsiz kechadi va bo‘g‘in, so‘zlarda oson mustahkamlandi,

Rinolaliyada «k» tovushi umuman bo‘lmaydi, yoki boshqa tovush bilan almashtiriladi. «K» tovushi asosan ta-ta-ta bo‘g‘inlari talaffuz qilish bilan bir vaqtda til uchi shpatel yordamida bosilib bir oz ichkariga itariladi. Bunda til orqaga surilgan sari «ta» bo‘g‘ini avval -tya, so‘ng -kya va nihoyat -ka bo‘g‘iniga aylanadi. Keyinchalik mexanik yordamdan butunlay voz kechadi.

Tug‘ma tanglay yoriqliklarida frikativ tovushlar ko‘p hollarda faringial usul orqali shakllantiriladi. Bunda og‘iz orqali chiqarilayotgan yo‘naltirilgan havo oqimi alohida o‘rin tutadi. Biroq burun orqali havo chiqishi hollarida hali tovushlarni korreksiyalash mumkin, lekin bunda tovush kuchsiz chiqadi.

*A.B.Ippalitova* (1955) fikricha, frikativ undoshlardan «f» tovushini nutqga qo‘yish oson kechadi. Buning uchun bemor instruksiya asosida yoki mexanik usul yordamida pastki labni tepa tishlarga yaqinlashtiradi va unga puflaydi.

«S» tovushi odatda an‘anaviy usullar yordamida korreksiyalanadi. Bunda bemor paxtaga puflash, til uchiga puflashga o‘rgatiladi.

Sirg‘aluvchi tovushlarni to‘g‘rilashdagi qiyinchiliklar ularning murakkab artikulyatsiya holatiga bog‘liq. Tishlarning bir-biriga yaqinlashuvi quruv nazarotini qiyinlashtiradi. Sirg‘aluvchilarning artikulyatsiyasining barcha tarkibiy qismini alohida-alohida o‘rgatish kerak (lab, til holatlari, havao oqimining yo‘nalishi va x.k.),

«Sh» tovushini nutqga qo‘yishda tilni «kosacha» shaklida tepaga ko‘tarishiga o‘rgatishga uzoq vaqt ketadi. Shuningdek tilni og‘iz ichida «kosacha» shakli keltirish bilan bir vaqtda havo oqimini tepaga yo‘naltirish qiyinchilik bilan kechadi. Bolalar havo oqimini tepaga yo‘naltirish o‘rniga ko‘pincha burun orqali nafas chiqaradilar.

Agar bola taqlid orqali «sh» tovushini quyi artikulyatsiyasiga erishsa, unda bu tovush nutqga kiritiladi va mustahkamlanadi.

«X» tovushi odatda qiyinchiliksiz nutqga qo‘yiladi. Bunda «x» tovushi chuqur nafas chiqarishda stimulyatsiya qilinadi yoki «k» tovushini uzoq, cho‘ziq talaffuz qilish natijasida yuzaga keladi.

«j» tovushi «i» unlisini birikishi natijasida yuzaga keladi. Masalan «yana» so‘zi o‘rniga «iana» va x.k. Rinolaliyada bu fonemaning yo‘qligi 5 yoshdan kichik bo‘lgan bolalarda kuzatiladi.

Rinolaliyada «ya» tovushi ko‘pchilik hollarida saqlangan bo‘ladi. Bu tovushning nutqda yo‘qligi yoki boshqa bir tovush bilan almashtirilsa, unda «a» unlisidan hosil qilish mumkin. «A» unlisini talaffuz qilinadi va shu zaxotiyek tilning keng uchi yengilgina tishlanadi. Shunda aniq «ya» hosil bo‘ladi.

Vibratsion «r» tovushini nutqga qo‘yish juda qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Bunday holda yo‘naltirilgan havo oqimi yetarli kuchga ega bo‘lmay, til uchida vibratsiya hosil qila olmaydi. Bunda havo oqimining kuchi tanglay pardasining uzunligi va avtomatlashtirish darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Burun qanotlari qisilgan holda havo oqimning burun bo‘shlig‘iga o‘tishi til uchida vibratsiya hosil bo‘lishiga imkon yaratishi mumkin. Yumshoq tanglay harakatning kordinatsialan-magan sekinlashuvi nutq jarayonida titravchi «r» tovushini talaffuz qilishga yo‘l qo‘ymaydi (tovushni alohida talaffuzi erishganida ham).

Bunday holda bir urinishli yoki takroriy tovushga o‘rgatiladi va u nutqga kiritiladi. «**R**» tovushni korreksiyasi an‘anaviy usullarga ko‘ra, «**z**» va «**j**» tovushidan hosil qilinadi.

Rinolaliyada «m» va «n» tovushini buzilishi ham kuzatiladi. Bu buzi-lishini ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

Vokalizatsiya bilan almashtiriladi yoki operatsiyadan so‘ng burunli ohangini yo‘qotib, bolani bu tovushni to‘liq og‘iz rezonanida talaffuz etadi.

Buning uchun bolaga lablarini birlashtirib, tishlarini bir oz bir-biridan uzoqlashtirib «a» tovushini uzoq vaqt cho‘zib talaffuz qilish buyuriladi. Bu yo‘l bilan «m» tovushi nutqga qo‘yilgach, shu tovushni tilni tishning orasida qisib talaffuz qilish buyuriladi. Bunda aniq «m» tovushi eshitiladi.

Rinolaliyada odatda tovushning talaffuzini to‘g‘rilash jarangsiz undoshdan boshlanadi. Ovozsiz ishlash ko‘p holda tovushni tayyorlash va stimulyatsiya qilish, uni nomini aytmay turib, tovush talaffuzida uchraydigan patalogik ta‘sirdan qutilish imkonini beradi.

«**B**», «**v**», «**g**», «**d**», «**j**» tovushini nutqga qo‘yish «**a**» unlisi orqali amalga oshiriladi. «A» unlisi jarangli undosh fonamalarni hosil qilishda foydalaniladi, chunki katta ochilgan og‘iz o‘zini kuzatish uchun qulay va bo‘shashgan lab muskullari artikulyatsiyaga xalaqit bermaydi. «**D**» tovushini talaffuz qilishda, tashqariga chiqarilgan tilga tepa tishni tekizish tavsiya etiladi.

«**J**» tovushi ustida ish olib borilganda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- Bola «**a**» tovushini cho‘zish bilan bir vaqtda tilni «kosacha» holatiga keltiriladi;

- Bola «**a**» tovushini cho‘zish bilan bir vaqtda tilni «kosacha» holatiga keltiriladi va tishni bir-biriga yaqinlashtirib, lablarni doira holatiga keltiradi.

«**J**» tovushni «**r**» tovushidan hosil qilish ham mumkin.

«**G**» tovushi mexanik usul yordamida «**k**» tovushiga o‘xshab «d» tovushidan hosil qilinadi.

Sirg‘aluvchi «**z**» tovushi «**e**» tovushidan hosil qilinadi. Buning uchun «**e**» tovushi talaffuz qilinadi va shu vaqtning o‘zida til tashqariga chiqariladi va tishlar bir-biriga yaqinlashtiriladi.

## *NUTQQA TOVUSHLAR POSTANOVKASI UCHUN ISHLATILADIGAN ZONDLAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI*





Shovqinli tovushlarni nutqga qo‘yuvchi zond



Til orqa tovushlarni nutqga qo‘yuvchi zond



Til oldi  tovushlarni nutqga qo‘yuvchi zond



Afrikat tovushlarni nutqga qoyuvchi zond



Sonor tovushni nutqga qo‘yuvchi zond

## *NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA MASSAJ ZONDLAR BILAN ISHLASH*

### *Til muskuli massaji*

Mushaklarni tarangligining buzilishi doim katta darajada til mushaklarida aks etadi. Til mushaklarining tarangligi oshishi, tarangligi susayishiga nisbatan ko‘p kuzatiladi. Til mushaklarida mushak tarangligining bir me‘yorda tarqalmaganligi ham quzatiladi, masalan, taranglik faqatgina ayrim mushak guruhlarida pasaygan bo‘lishi mumkin (tilning ildizida, til uchining va xokozo bir qismida).

Til mushaklarining massaji qiyin tuzilishga ega bo‘lib, artikulyasiya jarayonida nozik, aniq harakatlar qilib, qiyin muolaja hisoblanadi. Bundan tashqari, tilda massaj harakatlarini amalga oshirishda qoidaga ko‘ra massaj qilinayotgan kishida yoqimsiz hisni tug‘diradi. Yana shuni inobatga olish kerakki, til inson tanasining yetarli darajada ko‘rinmas qismidir. Til mushaklarining massaji logopedik aniq harakatlarni, extiyotkorlikni va juda xushmuomalalikni talab qiladi.

Massaj qilish jarayonida quyidagi metodik ko‘rsatmalarni hisobga olish talab qilinadi:

- Differensiallangan til til mushaklarining massaji yo rezina qo‘lqopda, yo dokali salfetka, yoki sterillangan dastro‘mol yordamida qilinadi;
- Tilni massaj qilishda turli vositalardan: zontdan, shpateldan, tish sho‘tkasidan va boshqalardan foydalanish mumkin.
- Massaj qoidasi bo‘yicha (lekin shart emas), og‘izdan tashqarida bo‘lgan holatda til massaji qilinadi. Buning uchun logoped tilini quyidagicha tarzda oldinga tortadi; til uchini (salfetka yoki dastro‘mol yordamida) shunday tortadiki, bosh barmoq tilning ustki qismida, o‘rta va ko‘rsatkich barmoq pastda turishi kerak, asta-sekinlik bilan oldinga tortadi. Tilni ushlab olish chap qo‘l bilan amalga oshiriladi, masaj harakatlari esa o‘ng qo‘lda bajariladi.

- Massaj harakatlari 3 yo‘nalishda amalga oshiriladi, til mushaklari joylashgan yo‘nalishga mos bo‘lishi kerak;

- 1) Ko‘ndalang
- 2) Bo‘ylama
- 3) Yotiq yo‘nalishlarda;

- Agar tilni oldinga chiqarishda qandaydir yonga chetlashuvga ega bo‘lsa, massaj harakatlarini ko‘proq til chetlashuvi tomonida bajarilishi kerak.

### *Faollashtiruvchi massaj*

Faollashtiruvchi massajni bajarish chog‘ida quyidagi xolatlarga e‘tibor berish kerak bo‘ladi:

- Faollashtiruvchi massajda harakatlar faol, intensiv va asosan til ildizidan uchiga yo‘nalgan bo‘ladi;
- Asosan ishqalash va qizdirish usullari qo‘llaniladi;
- Qoidaga ko‘ra, til mushaklarining tonusi pasayganida qayd qilish refleks ham pasayadi. Shuning uchun massaj harakatlari bu xolatda xatto ildiz soxasida ham faol bo‘lishi mumkin;
- Agar taranglikning pasayganligi tilining biron bir qismida kuzatiladi (masalan, tilning bir qismida), massaj harakatlari asosan shkastlangan tomonda bajariladi;
- Mushaklarning pasaygan tarangligida qoidaga ko‘ra, gipersali-vasiya (so‘lakning ko‘p ajralishi) kuzatiladi, shuning uchun massajni bajarishdan oldin va massaj qilish jarayonida logoped bolaga tufugini yutib turishini taklif qiladi.

### *TIL MASSAJI CHOG‘IDA QUYIDAGI MOSLAMALARDAN FOYDALANISH MUMKIN BO‘LADI:*



Tashkil qiluvchi zonalar. Ye.V.Novikova taklif qilgan zonalar, shpatellar, tish chyotkalari, shuningdek “Chikko” firmasi ishlab chiqaruvchi bolalarni dastlabki ishlarida ishlatish uchun mo‘ljallangan tish chyotkasiga taqlid qiluvchi moslamalar.

Ushbu vositalar yordamida qilingan massaj, qo‘l massajini to‘ldiradi, lekin o‘rnini bosa olmaydi, chunki olgoped o‘zining teri tushish sezgisiga asoslanib, massaj mushaklariga qanchalik o‘zgarish berayotganligini bilish mumkin.

Asbobli massaj usuli qo‘pincha til massajida qo‘llaniladi. Logopedik zondlardan, shpatellardan, tish chyotkalaridan foydalanish chog‘ida massaj harakatlari 3 ta yo‘nalishda amalga oshiriladi:

- vertikal – tilga ritmik bosishlar;
- qo‘ndalangiga – tilning xar bir qismida o‘ngdan chapga va teskari harakatlar;
- gorizantal – til uchidan ildizi tomonga va teskarisiga;

Ta‘sir quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi: silash, ingichka chizish, chopish, bosish, tebratish (yengil va qattiq) burash.

Bu holatlarda massaj harakatlarni oshirishda quyidagilarni hisobga olish kerak;

- Bo‘shashtiruvchi massajda harakatlar yengil (silash, yengil bosish va yengil,tebratish), tish chyotkasining shyotka qismi ishlatilmaydi.

- Faollashtiruvchi massajda esa aksincha, harakatlar faol (ingichka chizish, chopish, bosish, qattiq vibratsiya, urish, burish).

### *Til yuganchasi massaji*

Til yuganchasining kaltaligi aniqlansa, uni cho‘zishga qaratilgan massaj harakatlari amalga oshiriladi. Chap qo‘lning ko‘rsatkich va bosh barmoqlari bilan til uchidan ushlab, uni yuqoriga ko‘tariladilar. Bu holatda og‘iz yopiq bo‘ladi. O‘ng qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmoqlari til yuganchasida pastdan yuqoriga qarab sirpanuvchi, cho‘zuvchi harakatlar bajariladi.

### *Milk va qattiq tanglayning shilliq qavati massaji*

Qator hollarda bolada mushaklar tarangligi buzilishidan tashqari, sezish qobiliyatining susayganligi ham kuzatilishi mumkin. Bunday hollarda artikyasion proksisni yengish maqsadida massaj harakatlari majmuasiga mimik va qattiq tanglayning shilliq qavatining massaji ham qo‘shiladi. Bolani og‘zi ochiq. Bosh barmoq yuqorigi milklarning tashqi tomonida, ko‘rsatkichni esa ichki tomonida joylashgan. Milklarning jadal boshi bilan o‘ngdan chapga, keyin esa chapdan o‘ngga harakatlar yuqorigi va pastki milklarda amalga oshiriladi.

### *Bo‘shashtiruvchi massaj*

Tilning bo‘shashtiruvchi massajga nisbatan qiyin hisoblanadi. Tarangligi oshganida tilni og‘iz bo‘shlig‘idan tashqarida ushlab turish qiyin bo‘ladi, tanglay yutqiy (qayd qilish) refleksi ham massajni qiyinlashtiradi. Shularni xisobga olib tilni bo‘shashtiruvchi massaj qilish jarayonida kator qatlami qoidalarni bajarishi kerak:

- Til mushaklarini bo‘shashtiruvchi massajni faqatgina boshqa mushaklarni bo‘shashtiruvchi massajlardan keyin, ayniqsa bo‘yinni, yelkani, pastki jag‘i bo‘shashtiruvchi massajlardan keyin amalag oshirish talab qilinadi, chunki bu mushaklar til mushagi bilan, ayniqsa til ildizi bilan uzviy bog‘liqdir;

- Bo‘shashtiruvchi massajda harakatlar asosan til uchidan til ildiziga qarab yo‘nalgan bo‘ladi;

- Massaj qilishdan oldin tanglay yutqin refleksi “chegarasi” aniqlab olinadi. Buning uchun asta-sekinlik bilan tilning ustki tomoniga shpatel bilan uriladi, bunda tilning o‘rta chizig‘i bo‘ylab til uchidan ildizi tomon yo‘naladi. Qayd qilish refleksi “chegarasi” deb xisoblanadi. Tarangligi oshganda qayd qilish refleksi “chegarasi” tilning o‘rta qisimlariga to‘g‘ri keladi, og‘ir holatlarda esa hatto til uchida ham bo‘lishi mumkin. Bu holatda massajni juda ehtiyotkorlik bilan bajarish, sekinlik bilan qayd qilish refleksi “chegarasidan” o‘tish kerak bo‘ladi.

- Til mushaklarining aniq ko‘rsatilgan massaj qilishdan oldin og‘izda 2 – 3 marta iliq o‘tli damlamalarni yoki bir oz ezilgan va dokaga o‘ralgan o‘tlarning o‘zini ushlab turish maqsadga muvofiqdir. (Damlama quyidagicha tayyorlanadi: 1 choy qoshiq moychechak, 1choy qoshiq choyga 0,5 litr qaynatilgan suv qo‘shiladi, 15 minut turgach 40 – 50 °C gacha sovutish kerak. Bir oz asal ham qo‘shish mumkin, agar bolada unga qarshi allergiya bo‘lmasa);

- Agar yaqqol ifodalangan mushaklar tarangligida, ayniqsa til ildizi sohasida bo‘lsa, tilni og‘iz tashqarisida ushlab tura olmasa, til massajini og‘iz bo‘shlig‘ida boshlash kerak bo‘ladi. Asta-sekinlik bilan tarang-likdan bo‘shalishiga qarab. Til og‘iz bo‘shlig‘idan tashqariga chiqariladi;

- Til mushaklarini bo‘shashtiruvchi massaj qilishdan oldin uning ildizini bo‘shashtirishga qaratilgin maxsus mashqlarni o‘tkazish maq-sadga muvofiqdir.

**Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Noan’anaviy ta’lim ta’lim dasturlariga qaysilar kiradi?
2. Ta’lim jarayonida foydalanilayotgan noan’anaviy ta’lim dasturlari an’anaviy ta’lim dasturlari bilan nimasi bilan farq qiladi?
3. Noan’anaviy ta’lim dasturlaridan foydalanishda qanday xususiyatlariga e’tibor berish kerak?

***Mustahkamlash uchun testlar:***

**1. Tovushlarni nutqqa qo‘yishni uch usulini: taqlid (imitativ), mexanik (yordam) va aralash ko‘rsatgan pedagog kim?**

A) Rau;

B) Ayupova;

C) Xvatsev;

D) Vigotskiy.

**2. Ushbu tarif nutqga qo‘yishning qaysi usuliga mos. Logoped-dan eshitgan tovushga mos qilib bolaning ongli ravishda shu tovush artikulyatsiyasini topishga va talaffuz qilishga urinishiga asoslangan. Bunda bola akustik tayanchdan tashqari ko‘rish, taktil va fikrlash sezgilardan ham foydalanadi.**

A) Aralash;

B) Taqlid;

C) Mehanik;

D) Avtamatizatsiya.

**3. Ushbu tarif nutqga qo‘yishning qaysi usuliga mos logoped boladan bir tovushni aytishni va shu tovushni bir necha marta takrorlashini so‘raydi, takrorlash vaqtida zond yoki shpatel yordamida tovushning artikulyatsion holatini o‘zgartiradi. Natijada boshqa tovush hosil bo‘ladi**

A) Aralash;

B) Taqlid;

C) Mehanik;

D) Avtamatizatsiya.

**4. Rinolaliyada Sirg‘aluvchi «z» tovushi orqali qaysi tovush hosil qilinadi?**

A) A;

B) U;

C) E;

D) I.

**5. ……. – qattiq tanglay yoriqligini bartaraf etish maqsadida qilinadigan operatsiya.**

A) Uranoplastika;

B) Xeyloplastika;

C) Sheyloplastika;

D) Plastika.

**6. ……. – labdagi yoriqlikni bartaraf etish maqsadida qilinadigan plastik operatsiya.**

A) Uranoplastika;

B) Xeyloplastika;

C) Sheyloplastika;

D) Plastika.

**7. ……. – nutq tempining patologik sekinlashuvi.**

A) Taxilaliya;

B) Bradilaliya;

C) Battarizm;

D) Alaliya.

**8. ……. – nutq tempining patologik tezlashishi.**

A) Taxilaliya;

B) Bradilaliya;

C) Battarizm;

D) Alaliya.

**9. ……. – haddan ziyod tezlashtirilgan nutq.**

A) Taxilaliya;

B) Bradilaliya;

C) Battarizm;

D) Alaliya.

**10. ……. – dizartriyaning ogir formasi, nutq harakat muskul-larining paralichi tufayli nutq tovushlarini talaffuz qilish mumkin bo‘lmay qoladi.**

A) Dizartriya;

B) Anartriya;

C) Balneolgiya;

D) Disgrafiya.

**11. ……. – imkoniyati cheklangan bolalarning psixofizik rivojla-nishidagi kamchiliklarni to‘g‘rilash, zaiflashtirish yoki to‘g‘rilashga qaratilgan psixologo-pedagogik choralar tizimi.**

A) Korreksiya;

B) Reablitatsiya;

C) Postanovka;

D) Differensatsiya.

**12. ……. – bosh miya qobig‘idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida olgan shikastlanishi natijasida nutqning yo‘q bo‘lishi yoki rivojlanmay qolishi.**

A) Rinolalaiya;

B) Dizartiya;

C) Alaliya;

D) Afaziya.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Усова А.Б. Роль игры в воспитании детей. Москва. 1976 г.

2. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish. Toshkent, 1995 y.

3. В.И.Селиверстов. "Игры в логопедической работе с детьми" Москва, 1986 г.

4. Maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyatida loyiha usuli: Pos. maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari va amaliyotchilari uchun / Avt.-komp. 2. L.S.Kiseleva, T.A.Danilina va boshqalar – M.: ARKTI, 2011. – 196 p.

5. Somkova O.N. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tashkil etishga yangi yondashuvlar // Bolalar bog‘chasi: nazariya va amaliyot. – No 3. – S. 6 – 17.

6. M.Y.Ayupova “Logopediya”. Toshkent, 2007 yil, 463 b.

7. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.

8. Qodirova F.U. “Texnologiya 4”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.

9. Qodirova F.U. “Texnologiya 3”. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internat-

larning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.

10. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya // O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2021, 140 b.

11. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.

12. Dehqanova M.G‘., Tag‘onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o‘ziga xos xatoliklarni paydo bo‘lish mexanizmi // “Yangi O‘zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar” mavzusidagi Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022., 405 – 407 b.

13. Dehqanova M.G‘. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // NeuroQuantology, 2022. Vol. 20, pp. 1 – 9.

# GLOSSARIY

✓ **Analizator** – yuksak darajada rivojlangan hayvonlar va odam organizmining tashqi va ichki muhitdan kelib chiquvchi ta'sirlarni idrok, tahlil va sintez qilishini ta'minlovchi murakkab anatomik-fiziologik tizim.

✓ **Analitik-sintetik tovush metodi** – butun bir matndan gapni, gapdan so'zni, so'zdan bo'g'inni, bo'g'indan tovushni ajratib olish va aksincha, tovushlardan bo'g'inni, bo'g'inlardan so'zni, so'zlardan gapni tuzish yo'li bilan savod chiqarishni aks ettiruvchi metod. Analitik-sintetik tovush metodi asosan, tayyorlov guruhlari hamda birinchi sinflarda alifbegacha bo'lgan davrda qo'llanib, uning yordamida bolalar harflarni taniydilar, tovushlar yordamida so'zlar tuzadilar. Bu metod bolalar nutqining rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

✓ **Anomal** – (yunoncha "apotalos" – noto'g'ri, notekis) so'zidan olingan bo'lib, umumme'yordan o'zgacha bo'lgan holat ma'nosida qo'llanadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar – tug'ma, irsiy kasalliklarga ega bo'lgan kasalliklar yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan jarohatlar asoratlari oqibatida hayotiy faoliyat(lar)i cheklangan jismoniy va (yoki) psixik kamchilikka ega bo'lgan 18 yoshgacha bolalar (bola).

✓ **Artikulyatsiya mashqlari** – nutq organlarining mo'tadil va me'yordagi holatini ta'minlovchi mashqlar tizimi. Artikulyatsiya mashqlari asosan lab, til-jag' mashqlaridan iborat. Artikulyatsiya mashqlarining asosiy maqsadi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun zarur bo'lgan artikulyatsiya a'zolarining erkin harakatini ta'minlashdan iborat.

✓ **Aks ettirilgan nutq** – Ayrim so'zlarni, jumlalarni logoped shaxsi nutqi ketidan (yakka holda yoki jo'r bo'lib) takror aytish. Aks ettirilgan nutq duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan nutqiy mashqlar turidir. Bunday mashqlarda duduqlanuvchi bola logoped

tomonidan aytilgan so‘zlarni takrorlaydi, bu esa tutilmasdan gapirishga yordam beradi.

✓ **Anketa metodi** – pedagogika va psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri. Bu metod orqali izlanish obyektini o‘rganish maqsadida tuzilgan savollarga yozma ravishda tegishli javoblar olinadi. Olingan natijalar tahlil (analiz) qilingach, xulosalar qilinadi va ular asosida keyingi bosqichda bajariladigan ishlar belgilanadi. Maxsus ta‘lim sohasida Anketa metodidan alohida yordamga muhtoj bolalarning u yoki bu jihatdan rivojlanganlik darajasini o‘rganishda keng foydalaniladi.

✓ **Bolaning lug‘ati** – me‘yorida rivojlanayotgan bolaning lug‘ati o‘zgalar nutqining ta‘siri ostida uzluksiz boyib boradi. Lug‘at nofaol va faol bo‘ladi. Nofaol lug‘at bola tushunadigan, lekin o‘zi ishlatmaydigan yoki kam ishlatadigan, faol lug‘at bola o‘z nutqida keng foydalanadigan so‘zlardan iborat bo‘ladi. Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarda lug‘atning shakllanishi bir qator xususiyatlarga ega. Ya‘ni birlamchi muammolar bunday bolalar lug‘atining nihoyatda kam bo‘lishini, ular nutqida fonetik-fonematik va grammatik xatolarga yo‘l qo‘yilishi kabi ikkilamchi muammolarni keltirib chiqaradi. Bolaning lug‘at maxsus logopedik tadbirlar, shuningdek, atrofdagilar (kattalar) bilan muloqot jarayonida boyitib boriladi.

✓ **Bog‘lanmagan (poyma-poy) nutq** – mantiqiy tafakkur qoida va talablari doirasida fikrlay olmaslikni aks ettiruvchi nuqson; nutqdagi jumla va fikrlarning bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi. Bog‘lanmagan nutq bosh miya qobig‘idagi ba‘zi nutq markazlarining zararlanishi (masalan, duduqlanish, dizartriya, afaziya) natijasida yoki ba‘zi ruhiy kasalliklarda ham sodir bo‘lishi mumkin.

✓ **Bo‘g‘in** – nutq apparati mushaklarining bir zarb bilan harakatlanishi natijasida yuzaga keladigan tovush va tovushlar birikmasi. O‘zbek tilida unli tovushlar bog‘in hosil qiladi. Bo‘g‘in qanday tovush bilan tugashiga ko‘ri ikki turga bo‘linadi: unli tovush bilan tugaydigan ochiq

bog‘in, undosh bilan tugaydigan yopiq bo‘g‘in hisoblanadi. Bo‘g‘in urg‘uli, nisbatan past, kuchsiz talaffuz etiladigan va urg‘usiz bo‘ladi. Cho‘ziq va qisqa unlilar ishtirokiga ko‘ra bog‘inlar cho‘ziq va qisqa bo‘ladi.

- ✓ **Verbal muloqot** – ikki yoki undan ortiq shaxslarning so‘z, nutqiy vositalar, o‘z fikrlarini bayon etish yordamida fikr almashishlari (munosabatga kirishishlari).
- ✓ **Diqqat** – ongimizning muayyan obyektga yo‘naltirishi va unga jalb etilishidan iborat ruhiy holat. Ongimiz yo‘naltirilgan narsalar diqqatning obyekti hisoblanadi. Obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalar, ruhiy kechinmalar, taassurotlar diqqatning obyekti bo‘lishi mumkin.
- ✓ **Deviant hulq** – (lotincha “deviation” – og‘ish, chetga chiqish) so‘zidan olingan bo‘lib, hulqning me‘yordan chetga chiqishi ma‘nosini anglatadi. Ya‘ni shaxsning jamiyatda qabul qilingan huquqiy yoki axloqiy me‘yorlarga qarama-qarshi bo‘lgan xatti-harakatlar tizimi yoki ba‘zi harakatni sodir qilishi tushuniladi. Huddi shunday xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi bolalar «ijtimoiy xatar guruhiga mansub bolalar» sirasiga kiritilmoqda.
- ✓ **Diksiya** – so‘zni aniq, ravon, tushunarli tarzda ifodalash.
- ✓ **Impressiv nutq** – nofaol (passiv), ya‘ni ichki nutq.
- ✓ **Innovatsiya** – sohaga yangilik, o‘zgarishlar olib kirish jarayoni va faoliyati.
- ✓ **Intergratsiyalashgan** – “integrative” – jamlovchi (mujassam-lovchi), “integrate” – jamlash (qo‘shish).
- ✓ **Integratsiya ta‘limi** – aqliy va jismoniy rivojlanishlarida kam-chiliklari bo‘lgan bolalarning sog‘lom tengdoshlari jamoasida ta‘lim olishi.
- ✓ **Inklyuziv** – “inclusive” – qo‘shuvchi, “inclusion” – uyg‘un-lashtirish degan ma‘nolarni bildiradi.

✓ **Inklyuziv ta‘lim** – bolalarni bir-biridan ajratuvchi to‘siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta‘minlanganlik darajasidan qat‘iy nazar, umumta‘lim jarayoniga to‘liq uyg‘unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati ya‘ni imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom tengdosh-lari qatoriga qo‘shish.

✓ **Interfaol metodlar** – ta‘lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan maqsadga erishish uchun qo‘llanuvchi o‘quvchilarning o‘z va o‘zaro faollashuvlariga qaratilgan yo‘l va metodlar yig‘indisi.

✓ **Idrok** – Sezgi organlarimizga bevosiga ta‘sir etib turgan narsa va hodisalarning ongimizda bir butun, yaxlit holda aks ettirilishidan iborat ruhiy jarayon.

✓ **Ichki nutq** – Nutqning bu turi ongda shakllanadi va boshqalarga bayon qilinadi. Ichki nutq ovozsiz, qisqa bo‘ladi. Ichki nutq inson nutqiy tafakkurining muhim ko‘rinishidir, shuning uchun ham nutqida kamchi-ligi bo‘lgan bolalarda uni to‘liq shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

✓ **Impressiv nutq** – taassurot so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zgalar nutqini idrok qilish, tushunishga asoslangan nutq turi.

✓ **Initsiativ nutq** – Bolaning o‘z tashabbusi bilan yuzaga kelgan mustaqil nutqi. Bolalar o‘rtasidagi suhbatni ham initsiativ nutqga kiritish mumkin. Ichki nutqni paydo qilish uchun bolaning nutqi deyarli shakllangan bo‘lishi zarur.

✓ **Intellekt** – tushunish, tushuncha so‘zidan olingan bo‘lib insonning umumiy bilish faoliyati; uning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, aqliy rivojlanishi.

✓ **Kommunikatsiya** – insonlarning bilish va mehnat faoliyatlari jarayonidagi o‘zaro bog‘lanishlarining shakli bo‘lib, ularning birgalikdagi amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi, bilish, fikr almashishga doir yoki emotsional xarakterdagi o‘zaro ma‘lumotlarning almashinuvi hisoblanadi.

✓ **Kompensatsiya** – ta‘lim-tarbiya jarayonida sog‘lom sezgi a‘zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me‘yordan chiqqan analizator o‘rnini to‘ldirish (qoplash).

✓ **Korreksiya** – rivojlanishdagi muammolarni bartaraf etish, yaxshilash, to‘g‘rilash.

✓ **Korreksiya metodikasi** – ta‘limiy maqsadga erishishni ta‘minlashda qo‘llanuvchi maxsus ta‘limiy shakl va vositalar majmuasi.

✓ **Leksika** – tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi. Lug‘at ma‘lum qonun-qoidaga bo‘ysunadigan izchil va murakkab sistemani tashkil qiladi Har bir tilning lug‘ati to‘xtovsiz o‘zgarib turadi. lug‘at boyib borishi jamiyat taraqqiyoti (ishlab chiqarish, fan, texnika, san‘at va madaniyatning rivojlanishi) bilan chambarchas bog‘liq.

✓ **Logik urg‘u** – so‘z ma‘nosini kuchaytirish, ta‘kidlash maqsadida gapdagi biror so‘zni boshqalarga nisbatan kuchliroq talaffuz etish.

✓ **Malaka** – mashqlarni ko‘p takrorlash natijasida yuzaga keladigan avtomatlashgan harakatlar. Bolalarda. yurish, talaffuz etish, o‘qish, yozish, hisoblash, mehnat qilish malakasi shakllantiriladi. Malaka hosil qilishdagi asosiy usul mashqdir.

✓ **Maxsus ta‘lim tashkilotlari** – imkoniyati cheklangan bolalarni tashxislash, o‘qitish, tarbiyalash va maslahatlar berish uchun yaratilgan tashkilotlar: maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar, umumta‘lim maktablari qoshidagi logopedik punktlar, psixologo-tibbiy-pedagogik konsultatsiyalar, psixologo-pedagogik korreksiya kabinetlari, reabilitatsiya markazlari va boshqa tashkilotlar.

✓ **Maxsus ta‘lim shart-sharoitlari** – maxsus ta‘lim dasturlari va ta‘lim usullari, individual texnik ta‘lim vositalari hamda yashash va faoliyat ko‘rsatish muhiti, shuningdek pedagogik, tibbiy, ijtimoiy va boshqa xizmatlar, zero bu xizmatlarsiz alohida yordamga muhtoj shaxslar ta‘lim dasturlarini o‘zlashtira olmaydilar.

✓ **Metod** – yunoncha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘l, axloq, usul ma‘nolarini anglatadi.

✓ **Metodika** – biror ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, usullari, yo‘llari majmuasi. U alohida metodlardan tashkil topadi.

✓ **Monologik nutq** – bir odam so‘zlab, boshqalar uning nutqini idrok qilishiga asoslangan nutq turi. Monologik nutqning buzilishi ko‘pincha alaliya, afaziya, duduqlanish kabi nutq kamchiliklarida kuzatiladi.

✓ **Morfema** – morfema so‘zning eng kichik, bo‘linmas ma‘noli qismidir. Morfema bir yoki bir necha fonemadan iborat bo‘lishi mumkin.

✓ **Mustahkamlash** – esda qoldirilgan muayyan materialni turli usullar bilan ongimizda yanada mustahkamlashga qaratilgan xotira jarayoni.

✓ **Noverbal muloqot** – axborot, fikrni so‘zlashuv nutqidan boshqa tana xatti-harakati vositalari yordamida yetkazish (imo-ishora, hatti-harakat va boshqalar).

✓ **Nutq** – insonlarning tarixiy shakllangan, til vositasida yuzaga keluvchi muloqot qilishlarining shakli.

✓ **Nutq madaniyati** – fikr almashish jarayonida nutqning to‘g‘ri, aniq, ravon, ifodali, mazmunli bo‘lishiga erishish; so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlata bilish va to‘g‘ri talaffuz etish.

✓ **Nutq kinesteziyalari** – nutqning hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi organlar holati hamda harakatini his etish.

✓ **Nutqni eshitish, ko‘rish asosida idrok etish** – ko‘rish va eshitish a‘zolari yordamida og‘zaki nutqni idrok etish.

✓ **Ovoz** – Nutqning barcha jarayonini bosh miya bajaradi. Undan kelgan signal natijasida ovoz va muayyan nutq tovushlari paydo bo‘ladi.

✓ **Taqlid qilish –** biror shaxsning xatti-harakatini ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda takrorlash. Maxsus ta‘lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llanuvchi ish usullaridan birini tashkil qiladi. Rivojlanishida

muammolari bo‘lgan bolalar ta‘lim jarayonida pedagogga taqlid qilishlari asosida ma‘lum ko‘nikma va malakalarni egallaydilar.

- ✓ **Moderator** – ta‘lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.
- ✓ **Trener** – o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o‘tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassis.
- ✓ **Fasilitator** – darsda ko‘makchi, yo‘naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.
- ✓ **Mentor** – ustoz, o‘rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
- ✓ **Kouch** – ta‘lim oluvchilarning to‘liq o‘zlashtirishlari uchun yordam ko‘rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg‘ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish).
- ✓ **Konsultant** – maslahat berish, tushuntirish, qo‘shimcha ma‘lumot berish.
- ✓ **Lektor** – nazariy ma‘lumotlar bilan tanishtiruvchi.
- ✓ **Ekspert** – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.
- ✓ **Innovator** – yangiliklarni ta‘lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qilish.
- ✓ **Kommunikator** – o‘zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.
- ✓ **O‘qituvchi** – mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha ko‘zda tutilgan mazmunni tushuntirish, o‘quv jarayoniga rahbarlik.
- ✓ **Menejer** – tashkiliy-pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.
- ✓ **Spekter** – kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.
- ✓ **Assistent** – mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish.

✓ **Sekretar** – zarur ma‘lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o‘rnatilgan tartibda saqlash.

✓ **Texnolog** – pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta‘minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etib boradi.

✓ **Metodist** – ta‘lim-tarbiya metodlari bo‘yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

✓ **Koordinator** – loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

✓ **Alaliya** – bosh miya qobig‘idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo‘q bo‘lishi yoki rivojlanmay qolishi.

✓ **Afaziya** – bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog‘liq holda nutqning to‘liq yoki qisman yo‘qolishi.

✓ **Rinolaliya** – tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzilishdir.

✓ **Dizartriya** – nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir.

✓ **Duduqlanish** – nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur‘at-ohangning buzilishidir

✓ **Artikulyatsion apparat** – og‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan organlar holati va rivojlanishi.

✓ **Mimik mushaklar** – yuzning harakat rivojlanishi.

✓ **Umumiy motorika** – umumiy tana harakatining rivojlanishi.

✓ **Fonema** – yun. olingan bo‘lib, “tovush” degani.

✓ **Fonematik idrok** – eshitgan tovushlarni to‘g‘ri anglash.

✓ **Frontal tekshirish** – bir necha bolalar ishtirok etgan, guruhli tekshirish.

- ✓ **Fonematik analiz** – eshitib tahlil qilish.
- ✓ **Frontal tekshirish** – bir necha bolalar ishtirok etgan, guruhli tekshirish.
- ✓ **Fonematik analiz** – eshitib tahlil qilish.
- ✓ **Korreksiyalash** – imkoniyati cheklangan bolalarning psixofizik rivojlanishidagi kamchiliklarni to‘g‘rilash, zaiflashtirish yoki to‘g‘rilashga qaratilgan psixologo-pedagogik choralar tizimi.
- ✓ **Og‘zaki-nutqiy tayyorlik** – og‘zaki nutq tarkibidagi tuzilmaviy komponentlar (fonetik-fonematik va leksik-grammatik tizim) rivojlanishining muayyan holati (darajasi).
- ✓ **Diksiya** – (lotin. Talaffuz.) – So‘zlarni aniq, ravshan talaffuz etish, so‘zlash usuli.
- ✓ **Intonatsiya** – (lot. Baland talaffuz qilaman) – nutqning ohangi, kuy manbai, tovushning navbatma navbat ko‘tarilishi.
- ✓ **Pauza** – (yunoncha. to‘xtash, tugash) musiqa asari ijrosida bir necha, ba‘zan barcha ovozlarning muayyan vaqt to‘xtalishiga sabab bo‘ladi.
- ✓ **Duduqlanish** – nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishi natijasida sur‘at ohangining buzilishidir.
- ✓ **Dizartriya** – nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog‘liq holdagi buzulishdir.
- ✓ **Rinolaliya** – tovush tembri va talaffuzning nutq apparatidagi anatomik fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzulishdir.
- ✓ **Gammatsizm** – (grekcha gamma G harfining nomi) – G tovushi talaffuzidagi kamchili.
- ✓ **Kappatsizm** – (grekcha kappa K harfining nomi) – K tovushi talaffu zidagi kamchilik.
- ✓ **Lambdatizm** (grekcha lambda L harfining nomi) L tovushi talaffuzdagi kamchilik.

✓ **Progeniya** – (grekcha pgogenus – pastiki jag‘) pastki jag‘ning oldinga chiqishi.

✓ **Prognatiya** – (grekcha prognathas – yuqori jag‘) yuqori jag‘ning oldinga chiqishi.

✓ **Rotatsizm** (grekcha rhotacismis – Po harfining nomini bildiradi) R tofushi talaffuzidagi kamchilik.

✓ **Sigmatizm** (grekcha sigma – S harfining nomini bildiradi) Sirg‘aluvchi va shovqinli tovushlar talaffuzidagi kamchilik.

✓ **Anartriya** – (an + grekcha arthroo tovushlarni bulib talaffuz etish) – dizartriyaning ogir formasi, nutq xarakat muskullarining paralichi tufayli nutq tovushlarini talaffuz kilish mumkin bulmay koladi.

✓ **Artikuliyatsion kinesteziya** (kin – grekcha, aesthesis – sezgi) – artikuliyatsiyani sezish.

✓ **Artikuliyatsion paraksiz** – maksadga karatilgan avtomatlash-gan artikuliyatsion xarakat aktlarini bajarish.

✓ **Dizartriya** (diz – grekcha arthroo tovushlarni bulib talaffuz etish) – nutq apparatining innervatsiyasidagi kamchiliklar tufayli nutqning talaffuz tomonidan buzilishi.

✓ **Kommunikatsiya** – (lotincha – kommunicatio – aloka) – uzgalarningfikrini tushinish va ularga uz fikrini til vositalari orkali tushintira olish jarayoni.

✓ **Motivatsiya** – motination ingiliz suzidan olingan bulib istak degan ma‘noni anglatadi.

✓ **Assimetriya** (grekcha fsymmetria nomutanosiblik) nomutono-sib qism, simmetriyaning yo‘qligi yoki buzilish.

✓ **Obturator** (lotincha obturo,obturatum bekitmoq) – qattiq yoki yumshoq tanglaydagi kamchilikni bekitish uchun moslama.

✓ **Rinolaliya** (lotincha «rinos» – burun, «lalio» – nutq) – burunli nutq tushunchasini anglatadi.

- ✓ **Uranoplastika** – qattiq tanglay yoriqligini bartaraf etish maqsadida qilinadigan operatsiya.
- ✓ **Xeyloplastika** – labdagi yoriqlikni bartaraf etish maqsadida qilinadigan plastik operatsiya.
- ✓ **Autogen** – (grekcha autos – o‘zi) – mustaqil rivojlanish.
- ✓ **Autosugstiya** (auto+lotin. suggestio – ishontirish) – o‘z-o‘zini ishontirish.
- ✓ **Geterosuggestiya** – (getero+lotin. suggestio – ishontirish) – boshqa shaxs orqali ishontirish.
- ✓ **Duduqlanish** – nutqning temp va ravonligining buzulishi.
- ✓ **Psixoterapiya** – (grekcha psyche – jon, therapeia – davolash so‘zlaridan) – bemorlarga psixik ta‘sir ko‘rsatish yordamida davolash. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda psixoterapiyada tushuntirish, ishontirish, gipnozdan foydalaniladi.
- ✓ **Battarizm** (grekcha battarismos – duduqlanish) – haddan ziyod tezlashtirilgan nutq. Battarizmda so‘zlarjuda tezsur‘atda, noaniq talaffuz etiladi, gapdagi oxirgi so‘zlar tushirib qoldiriladi.
- ✓ **Balneologiya** mineral suvlar va loylardan davo sifatida foydalanishni, shuningdek, turli kasalliklarni davolash va profilaktika metodlarini o‘rganadiganfan.
- ✓ **Bradilaliya** (grek. Bradys – sekin, lalia – nutq) – nutq tempining patologik sekinlashuvi.
- ✓ **Detsentralizatsiya** – markaziy organlarning ba‘zi vazifalarini mahalliy organlarga berish.
- ✓ **Interverbal sekinlashuv** – so‘zlar orasidagi pauzalaming cho‘zilib ketish yoki nutq tovushlarini sekin, cho‘zib talaftuz etish va so‘z tovushlari orasidagi pauzalarning cho‘zilishi.
- ✓ **Metronom** – musiqada tempni aniqlash uchun ishlatiladigan asbob.

- ✓ **Modulyatsiya** (lotin. Modulatio – bir maromdagi, motorikadagi) – bir ohangdan ikkinchi ohangga o‘tish.
- ✓ **Skandirlanish** – har bir misrdagi urg‘uli bo‘g‘iimi aniq qilib o‘qimoq.
- ✓ **Taxilaliya** (grek. Tachis – tez, lalia – nutq) – nutq tempining patologik sekinlashuvi.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

## I. Normativ huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018 yil. 55 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi – “Ta’lim to‘g‘risda”gi va – “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni – T.: 2020 yil 23-sentabr.

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogiron shaxslar huquqlari” to‘g‘risidagi Konvensiyasi 2006.

## II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son 2017 yil.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qaror 2020 yil.

## III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

7. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi, 2018-yil 8-dekabr.

8. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi – Toshkent: «O'zbekiston», 2016.

9. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" – Toshkent: «O'zbekiston», 2017.

## IV. Maxsus adabiyotlar:

1. M.Y.Ayupova "Logopediya". Toshkent, 2007 yil, 463 b.

2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.

3. Qodirova F.U. "Texnologiya 4". Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.

4. Qodirova F.U. "Texnologiya 3". Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.

5. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya // O'quv qo'llanma, Toshkent, 2021, 140 b.

6. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.

7. Dehqanova M.G'., Tag'onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o'ziga xos xatoliklarni paydo bo'lish mexanizmi // "Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar" mavzusidagi Respublika miqyosida o'tkaziladigan ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022. 405 – 407 b.

8. Dehqanova M.G‘. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // NeuroQuantology, 2022. Vol. 20, pp. 1 – 9.

9. Tkachenko T.A. Uchim govorit pravilno sistema korreksii obshego nedorazvitiya rechi u detey 6 let. Izd-vo. GNOM i D. 2001 yil.

10. Gulbeva G.G. Korreksiya narusheniya fonematicheskoy storonы rechi u doshkolnikov. Iz-vo. Soyuz. – M., 2001 yil.

11. Dadiovich. L.R Reznichenko T.S. Rebyonk ploxogovorit. Pochemu? Chto delat? Korreksionno pedagogicheskaya rabota s negovoryaщimi detmi. Iz-vo. GNOM i D M., 2001 yil.

12. Nishonova Z.T. va boshqalar Psixodiagnostika o‘quv qo‘llanma T.: TDPU.

## MUNDARIJA

Kirish . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 3

**I-Modul. Logopedik tekshiruv texnologiyalari**

Logopedok tekshiruvda an’anaviy yondashuv. Logopedik tekshiruvning mazmuni va mohiyati . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 7

Artikulyatsion apparat va mimik mushaklar holati va harakatchanligini tekshirish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 24

Nutqning tovush tomonini, fonematik idrok va so‘zning tovush-bo‘g‘in tuzilishini tekshirish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . . . 39

Nutqni tushunishni, lug‘at boyligi va nutqning gramatik qurilishini tekshirish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 48

Bog‘lanishli nutq tekshirish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 55

Yozma nutq holatini tekshirish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 62

Nutqning prosodik tomoni tekshirish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . 83

Turli nutq buzilishlarida umumiy, mayda motorikani tekshirish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 90

Nutqni tekshirishda neyropsixologik yondashuv . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 98

Logopedik tekshiruvga turlicha yondashuv. Erta yosh davrida bolalarni logopedik tekshirish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 110

Turli nutq buzilishlarida logopedik tekshirish texnologiyasi . . . . . . . . 118

Logopedik ta’sir jarayonida oila bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 131

**II-modul. Logopediyada innovatsion texnologiyalar.**

Nutqni tuzatishda kompyuterli dasturlarning tarixiy asoslari . . . . . . . . 156

Turli nutq buzilishlarida noananaviy metodlardan foydalanish texnologiyasi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 169

Glossariy . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 199

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 211

*Ilmiy nashr*

**M.S.VOXOBOVA**

# LOGOPEDIK TEXNOLOGIYA

DARSLIK

Terishga berildi: 8.05.2024-y.
Bosishga ruxsat etildi: 27.05.2024-y.
Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$. Hajmi 13,5 bosma taboq.
Times New Roman garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

"Namangan Poligraf Press" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, A.Navoiy koʻchasi, 36-uy.